

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

---

---

M.Sh. NURMATOVA, Sh.T. XASANOVA,  
D.E. AZIMOVA

# USTAXONADA AMALIY MASHG'ULOT

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

**Ikkinci nashiri**

*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2011*

UDK: 378(075)

BBK 74.200.52ya722

N87

*Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya etilgan*

### **Taqrizchilar:**

- O. Hasanboyeva** – Nizomiy nomidagi TDPU «Maktabgacha va oilaviy ta'lim» kafedrasi mudiri,  
pedagogika fanlari nomzodi, professor  
**M. Inoyatova** – Qori Niyoziy nomidagi O'z PFITI katta ilmiy xodimi, pedagogika fanlari nomzodi.

### **Nurmatova, M.Sh.**

- N87 Ustahonada amaliy mashg'ulot: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma/M.Sh. Nurmatova, Sh.T. Xasanova, D.E. Azimova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. Uchinchi nashri. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 196 b.  
I. Xasanova, Sh.T. II. Azimova, D.E.  
ISBN 978-9943-05-449-3

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimiga oliy ma'lumotli malakali kadrlarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asoslangan holda tuzilgan ushbu o'quv qo'llanma pedagogika kolleji o'quvchilariga ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, turli tabiiy tashlandiq ashyolardan buyum yasay olish, hunarmandchilik sirlarini egallash, o'yinchoqlar tayyorlash uchun ko'nikma va malakalarini egallahda amaliy yordam beradi. O'quv qo'llanma talabalar va bolalarning dunyoqarashini jonlantiradi, ularda mehnatsevarlik hislarini shakllantiradi.

UDK: 378(075)

BBK 74.200.52ya722

ISBN 978-9943-05-449-3

---

## KIRISH

*Orzu-tilak yo'li mehnat tagida,  
Xazinaning mo'li mehnat tagida.  
Abu Shukur Balxiy*

Ma'lumki, mustaqil Respublikamizda yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash muhim hayotiy vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnatining mazmuni «Uchinchi ming yillikning bolasi dasturi»da alohida ko'rsatib o'tilgan. Unga bolalarning mehnat jarayonida tarkib topadigan shaxsiy fazilatlariga qo'yiladigan talablarning astasekin murakkablashib borishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Yorqin kelajakni barpo etadigan kishilar mehnatga muhabbat bilan ajralib turishi kerak. Shuning uchun, bolalarda bog'cha yoshidanoq oddiy mehnat ko'nikmalarini, jamoatchilik va o'rtoqlik tuyg'ularini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir.

O'quv qo'llanmada qog'oz va uning paydo bo'lish tarixi, qog'ozni qayta ishlash, bo'yash, ta'mirlash, undan har xil buyumlar yasash texnologiyalari bayon etilgan.

Shu bilan birga unda qog'ozdan esdaliklar yasash, bayramlar uchun ijodiy ishlar, harakatli o'yinchoqlar tayyorlash yo'l-yo'riqlari mufassal bayon qilingan. Shuningdek, ko'rgazmali qurollar texnologiyasi, qo'g'irchoq teatri, uning turlari, qo'g'irchoqlarni yasash, bolalarni applikatsiyada qo'llaniladigan tabiiy materiallar bilan tanishtirish, o'simlik urug'lari va barglaridan applikatsiya qilish, gazlama bilan ishslash, kashtachilik, zardo'zlik hunarining sirlari, yumshoq o'yinchoq tikish jarayoni ko'rsatib berilgan. Bolalar tabiatian kattalarning dunyosiga tezroq qo'shilishni xohlaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalarda ijodkorlik hissini o'stirish jarayonida ularga oddiy mehnat ko'nikmalarini o'rgatibgina qolmay, ayni vaqtida zarur axloqiy sifatlarni: mustaqillik, maqsadga intilish, topshirilgan ish uchun mas'uliyatni his qilish, maqsadga erishish uchun qat'iyatlilik, tengdoshlariga xushmuomalalik va hokazolarni singdirish juda muhimdir. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi mehnat tarbiyasi bolalarni o'zlarining qo'llaridan keladigan mehnat faoliyatiga jalb qilishdan iboratdir. Mehnat turini tanlashda ishning

ko‘pchilik bo‘lib bajaradigan shaklini tanlash lozim. Mana shunday yo‘lga qo‘yilgan mehnat juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi. U bolalarda hayotiy tashkilotchilik malakalarini rivojlan-tiradi, ongli intizomga o‘rgatadi. Uyushqoqlik bilan tashkil etilgan mehnat bolaning o‘z kuchiga to‘g‘ri baho berishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasidagi mehnat tarbiyasining zamon talablari asosida olib borilishi ham hozirgi kun tartibida turgan dolzarb muammolardandir.

Bolalar mehnati, ularga hayotiy tajriba, tushunchalar berish bolalarning ijodkorligiga asoslangan faoliyatning muhim vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, axloqiy tarbiya berishda uning ahamiyati kattadir. Bolalar mehnatining kattalar mehnatiga nisbatan o‘ziga xosligi shundaki, unda mehnatning samarali natijasi darhol namoyon bo‘lavermaydi. Dastlabki bosqichlarda bolalar mehnati ko‘proq o‘yin shaklida tashkil etiladi. Kichik muktab yoshidagi bolalarning mehnat faoliyati cheklangan bo‘lib, asosan, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish mehnatidan iboratdir. Bolalarning mehnati ularning yoshiga ko‘ra asta-sekin o‘ziga xos tashkiliy shakllarga ega bo‘la boradi. Har bir bola qiziqadigan va umumiy maqsadlarni hal etishda muayyan natijalarga erishishga yo‘naltirilgan jamoa mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Bilim berishga asoslangan ba’zi bir mehnat turlarini mash-g‘ulotlarda bajarish ham o‘quv qo‘llanmada ko‘zda tutilgan.

---

## **USTAXONADA AMALIY MASHG'ULOT FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI**

Ustaxonada amaliy mashg'ulot fanining asosiy maqsadi mактабгача та'лим муассасаларидаги баллар ижодига раббарлик қилиш учун амалий билим ва ко'никмалар беришдан иборатdir.

Ушбу фани о'qитishдаги асosiy vazifalardan biri O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni» va «Maktabgacha ta'lim konsepsiysi» аsosida mehnat tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, talabalarni maktabgacha ta'limni o'rgatishda-  
gi bolalar mehnat faoliyatiga раббарлик қилиш учун тайyor-  
lashdan iboratdir.

Bular asosan quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarни танланган касбларига qiziqishlarini uyg'otish, олган билимларини rivojlantirish, mehnat orqali hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- o'quvchilarda mehnatga nisbatan muhabbatni tarbiyalash va kasbga yo'naltirish;
- tanlangan kasbga nisbatan qiziqishlarini tarbiyalab, ijodiy ko'rgazmalar, o'yinlar учун atributlar yasashga xohishlarini uyg'otish;
- qog'oz, karton kabi materiallarning xususiyatlari bilan tanish-  
tirish;
- mehnat қилиш madaniyati malaka va ko'nikmalarini tar-  
biyalash;
- buyumlarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish, tayyorlash texnologiyasini o'rgatish, mahsulotni tejash, buyumlar qoralama-  
sining eskizini va suratini chizishga o'rgatish, chizmalarni o'qish  
va ish joylarini tartibli saqlash;
- o'quvchilarни buyumlar yasash jarayonida oddiy asbob-  
lardan foydalanishga o'rgatish hamda badiiy didlarini shakl-  
lantirishga, vaqtini tejay olishga, maqsadga muvosiq ishlashga  
odatlantirishdir.

## QOG'oz VA KARTONNI QAYTA ISHLASH TEHNIKASI

**Qog'ozning paydo bo'lish tarixi.** Qog'oz sanoati haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz. Odamlar asrlar davomida o'z xotiralarini suyakka, toshga, hayvon terisiga bitib kelishgan. Fikrlarning ilk shakli muayyan shartli belgilar bilan ifodalangandir. Dastlabki kitoblar — qoyalar bo'lib, ibtidoiy odamlar unga ovchilik qurolyarog'lari, o'rmon va sahroda yashovchi hayvonlarning rasmlarini o'yib ishlaganlar. Yozuvning ilk sistemasi piktografiya deyiladi. «Piktos» grekcha so'z bo'lib, rasm demakdir. Biroq ayni bir rasmning o'zi turli hodisalarini bayon qilishi mumkin. Keyinchalik odamlar yozuvni amalda qo'llashga harakat qilganlar. Masalan, Dajla va Frot vodiylarida loy ko'p bo'lib, odamlar ilk sahifani loy plastinkadan tayyorlab, uning yumshoq sathiga uchi o'tkirlangan qamish bilan uzaytirilgan uchburchak shaklidagi belgilarni o'yishgan. Yozuvning bu usuli mixxat deb atalgan. Belgilar bilan to'lgan taxtachalar xumdonlarda pishirilib yassi g'isht sahifalar paydo bo'lgan, ulardan sopol kitoblar tuzilgan, albatta, ularning sahifalari birlashtirilmagan, yashiklarga joylashtirilgan. Ossuriya podshohi Ashurbanipal, eramizdan oldingi VII asrda o'z poytaxtida sopol kitoblarning katta kutubxonasini tashkil etgan bo'lib, u kitob namunalari bizgacha yetib kelgan.

Qadim Hindistonda yozuvlar palma daraxti barglariga bitilgan. Palma yaproqlari quritilib, ulardan eskiz plastinkalar qirqib olingan, keyin tush bilan yozilgan, bu plastinkalar bir-biriga mustahkam yopishtirilib, jildi yaxshi silliqlangan taxtachalar holiga keltirilgan va ustiga bezak berilgan.

Qadimi greklar mum kitoblarni ixtiro qilishgan, bu yaxshi tekislangan taxtacha o'rtasidan kvadrat o'yilgan bo'lib, u sariq yoki qora mum bilan to'ldirilgan. Yozuvda esa po'lat cho'pdan foydalanilgan. Bir uchi bilan o'tkir po'lat cho'pda yozishgan bo'lsa, ikkinchi dumaloq uchi bilan yozilgan narsani o'chirishgan. Bir-biri bilan biriktirilgan taxtachalardan kitoblar yasalgan, kitob, jadval yoki sahifalarning qulayligi shundaki, ulardan uzoq muddat unumli foydalanish, yozuvni o'chirish va qayta yozish oson bo'lgan. Misrliklar yozish materiallarini Nildan olganlar. Nil vodiysi botqoqliklarida qamishga o'xhash o'simliklar mo'l bo'lib, qadimgi Rim xalqi ularni papirus deb ataganlar. Silliq, poyasi bargsiz bu o'simlikning bo'yisi 4 metrga yetgan. Yozuv quroli uchun poya

barglardan tozalanib, uning o'rtasidagi yumshoq g'ovak o'zak olinadi. Undan uzun yupqa kesma qog'ozlar qirqilib tik holda taxlanadi, so'ngra ho'l barg yopishtirilib, taxtakachlanadi, qurigach sirti pemza bilan sayqallanadi. Papirus sinuvchan bo'lib, uni tiklash mumkin emasdi, shuning uchun misrliklar ularni bir-biriga yelimlab o'raganlar. Bulardan qilingan kitob hozirgi kunda Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanadi. Bir necha ming yillar davomida papirus yagona yozuv materiali bo'lib kelgan, undan asosan misrliklar, greklar, rimliklar foydalanib kelganlar. Papirus o'ramlari silindrsimon qutilarga solinib, kutubxonalar tokchalarida saqlangan.

Pergament kitob taxminan eramizning III asrida Kichik Osiyodagi qadimiy shahar Pergameda paydo bo'lgan. U hayvonlar terisidan tayyorlangan, bu anchagina murakkab va ko'p mehnat bilan bajarilgan. Teri maxsus eritmada namlangan, cho'zilgan, quritilgan, keyin qirilgan, sayqal berilgan va tekislangan. Bir kitob uchun butun bir poda mol so'yilgan. Teri kitob papirusga nisbatan bir necha afzallikkarga ega bo'lib, uning ikkala tomonida bemalol yozish mumkin, bundan tashqari oldingi yozilgan tekstni o'chirib, yangisini yozish mumkin bo'lgan. Pergamentdan hozirgi kunda ham ayrim kitoblar tayyorlanadi. Bir necha daftardan iborat kitobni rimliklar kodeks deb atashgan. Tayyorlash jarayonining murakkabligi, materialining qimmatligi uchun pergament unchalik keng tarqalmagan.


Eramizdan V asr muqaddam Uzoq Sharq mamlakatlarda shoyiga yozish rasm bo'lgan. Bu ham qimmatbaho material bo'lib, madaniyat rivojlanib borgan sayin yozish arzon materialga talab orta bongan. Olimlar qog'ozni birinchi marta ipak namati tayyorlanayotgan vaqtda paydo bo'lgan, deb taxmin qiladilar. Bambukdan qog'oz tayyorlagan ustaning nomi bizga noma'lum. Bambuk tozalanib, maydalab qirqilib bir necha kun ohakka bo'ktirib pishirilgan, keyin sovitilib, uni maydalab yopishqoq bo'tqasimon bo'lguncha suv qo'shib aralashtirilgan. Bu bo'tqa maxsus hovuzga botirilib, tezda qaytib olingan, bunda to'rsimon qilib tortilgan iplar ustida yupqa qatlam hosil bo'ladi. So'ngra ular taxtakach ostiga qo'yilib suvi siqb chiqarilgandan keyin qolgan yupqa qog'oz varag'i issiq pechda quritilgan. Qog'ozni to'rda cho'kindi qoldirish usulida tayyorlash hozirgi kundagi qog'oz tayyorlash jarayonida ham ishlataladi. Anchagina pishiqli, arzon xomashyodan tayyorlanadigan qog'oz barcha mamlakatlarda keng

qo'llana boshlandi. Biroq qog'ozni tayyorlashning bu jarayoni juda unumsiz edi, qog'ozga bo'lgan talab esa tobora orta borardi. Keyinchalik xomashyoni maydalashda o'g'ir o'rniiga tegirmon toshidan foydalanila boshlandi, shuning uchun ham qog'ozni tayyorlaydigan korxonalar qog'oz tegirmonlari deb atala boshlandi.


XIX asrda saksoniyalik to'quvchi Keller birinchi bo'lib qog'oz tayyorlashda eng arzon xomashyo – yog'ochni maydalash usulini topdi. Yog'ochni maydalashda u doimo ho'llab turiladigan charxdan foydalandi. 1844 yilda u yog'och massasini maydalaydigan mashina – defibrerni qurdi. Yog'ochdan qilingan qog'ozning lattadan qilingan qog'ozga nisbatan pishiqligi kamroq bo'lib, yorug'lik ta'sirida xiralashardi. Yog'ochdan sellyulozani ajratib olishga faqat 1857 yilda ingliz kimyogari F. Xautan muvaffaq bo'ldi. U yog'och massasiga qaynoq kaustik soda eritmasi bilan ishlov berdi. Qog'oz massasi yog'och, sellyuloza va to'ldirgichlar (bo'r, bo'yoq mod-dalari, yelim)dan iboratdir. Sellyuloza qanchalik ko'p bo'lsa, qog'ozning sifati shunchalik yuqori bo'ladi.

**Qog'oz ishlab chiqarish xomashyosi.** Qog'oz ishlab chiqarishda yog'och, poxol (somon), ip, gazlama, eski ishlatilgan qog'oz (makulatura) xomashyo hisoblanadi. Ip, gazlamadan asosan qog'ozning qimmatbahoh va maxsus navlarini ishlab chiqarishda foydalilanildi. Poxoldan karton, o'ram qog'ozlari tayyorlanadi. Makulatura turli navdagi qog'ozlarni tayyorlashda yaxshi xomashyo hisoblanadi. Poxol va yog'ochdan qog'oz ishlab chiqarishning asosiy xomashyosi hisoblangan sellyuloza tayyorlanadi.


**Qog'oz tayyorlashning texnologik jarayoni.** Qog'oz ishlab chiqarish murakkab texnologik jarayon bo'lib, unda turli xomashyo va kimyoviy moddalar ishlatiladi. Sellyuloza-qog'oz kombinati turli korxonalar kompleksi bo'lib, u yog'och ombori, qog'oz fabrikasi, qatron(smola) va yog'och zavodini o'z ichiga oladi. Qog'oz smola kombinatlari daryo va ko'llar qirg'oqlariga quriladi. Chunki qog'oz ishlab chiqarishda suv ko'p talab qilinadi, bundan tashqari yog'ochni oqizish uchun ham qulaydir. Kombinatga keltirilgan yog'och g'o'lalar uzunligi 1 metr 20 sm yoki 1 metru 25 sm qilib qirqiladi, ular balans deb ataluvchi po'stloq shiluvchi apparatlarga o'tadi. Ular changli suvda aylanib turadi. Baraban aylanar ekan, balanslarni qobirg'aga va bir-biriga ishqalanishga majbur qiladi. Shu yo'sinda ular po'stdan ajraladi va po'stlar qobirg'alar oralig'idan o'tib ketadi.



*massani maydalash*



*qo'shimcha quritish*



*Qog'oz tayyorlashning texnologik jarayoni.*

Tarkibida kletchatka foizi ko'p bo'lgan qoraqarag'ay sellyuloza tayyorlashda eng qulay xomashyo hisoblanadi. Balanslar maydalash mashinalarida payraxalarga ajratiladi, ular maxsus mashinalarda saralanib, qaynatish qozoni tepasidagi bunkerga uzatiladi, bu yerga pishiriladigan kislota va bug' kelib turadi. Kislota odatda oltingugurt kolchedanidan tayyorlanadi. Payrxa qozonda 7–10 soat davomida 135–150 °C haroratda qaynatiladi. Shundan so'ng massa tagi to'r-simon hovuzga chiqariladi, u yerda suv oqimi bilan turli aralashma quyqalardan tozalanadi. Shundan so'ng maxsus mashinalarda yirik zarralari ajratib olinib, quyultiriladi va hovuzlarda saqlanadi. Sellyulozani jo'natish qulay bo'lishi uchun u taxtakachlanadi, quritiladi va qat-qat qilib qirqilib, taxlanadi.

Balanslarning ikkinchi qismi yog'och zavodida maydalovchi mashinalar – defibrallarda aylanuvchi dumaloq toshlar yordamida maydalanadi. Shundan so'ng tarkibida tola bo'lgan bo'tqasimon massa payrxa tutqichdan o'tib, maydalanmagan qismlar o'sha yerda qoladi. Markazidan qochirma navlarga ajratishda massadan yirik, maydalanmagan zarralar ajratib olinadi va yog'och massasi maxsus saqlanadigan hovuzga o'tadi, qog'ozning navi tarkibidagi sellyuloza va yog'och massasiga bog'liq bo'ladi.

Qog'oz massasini yanada ingichkaroq tolalarga ajratish uchun maxsus apparatdan takror o'tkaziladi. Maydalash ba'zida bir sut-kadan ortiq davom etadi, tola qanchalik ingichka bo'lsa, ular bir-biriga shunchalik yaxshi birikadi, demak, qog'ozning navi ham, sifati ham yuqori bo'ladi. Massaga turli kimyoviy moddalar bilan ishlov beriladi, rang uchun kaolin (oq loy), turli bo'yovchi moddalar, pishiqroq bo'lishi uchun kanifol yelimi qo'shiladi. Har bir qog'oz navi o'z tayyorlanish retseptiga egadir. Tayyor qog'oz massasi quvurlar orqali aralashtiriladigan hovuzga o'tadi, yo'il-yo'lakay unga yana kerakli zarur ishlov beriladi: massa yanada maydalanadi va kerakli moddalar qo'shiladi hamda u qog'oz qiluvchi mashinaga o'tkaziladi. Bunday mashina eni 6–8 m, uzunligi 100–120 m bo'lgan kattagina konveyerdir, bunday mashinalar sutkasiga 400 t qog'oz chiqaradi. Juda mayda teshikli metall to'r valiklar har daqiqada 500 m tezlikda harakat qiladi. Qog'oz massa metall to'rga uzlusiz tushib, u bilan birga harakatda bo'ladi. To'r ustida apparatlarning butun bir sistemasi bo'lib, ular siqilgan havo oqimi yordamida qog'oz massasidagi suvni so'rib oladi. Nam qog'oz massasi sukno ustiga o'tadi. Sukno qog'ozni ikki valik orasiga olib kiradi. Bir qator jarayonlardan so'ng qog'oz kesmasi

qurituvchi qaynoq silindrلarga yopishib o'tadi. Qog'ozni silliqlash uchun u sovuq mis silindrлar va cho'yan vallar orqали o'tkazilib polga tushiriladi, mashinaning bu qismi glezer deyiladi. So'nggi bosqich qog'ozni rulonlarga o'rash va iste'molchilarga jo'natishdir.

### **Qog'oz va kartonning sanoat va turmushda qo'llanilishi.**

Qog'ozga kitob va gazetalar bosiladi, undan yozishda foydalaniladi. Hozirgi kunda qog'ozning xilma-xil navlari ishlab chiqilib, undan faqat turmushda emas, balki sanoatda ham foydalanilmoqda. Ishlab chiqilayotgan qog'ozning yarmidan ko'prog'i gazeta, jurnallarga ishlatiladi va yozishda foydalaniladi. Qog'ozlar turli tovarlarni (oziq-ovqat mahsulotlari, yashiklar, upakovka qoplari) o'rash uchun ham sarflanmoqda.

Texnikada qog'ozning maxsus navi va kartondan keng foydalaniladi. Telegraf lentasi, fotosurat qog'oz, elektr o'tkazmaydigan qog'oz shular jumlasidandir. Qog'oz massasi va asbest aralashmasidan asbestli o'tga chidamli karton, gips bilan aralashmasidan esa quruq shkatyrka listlari tayyorlanadi. Oddiy qog'oz suvda namlanadi va oson yirtiladi, undan fibra tayyorlanadi, u juda pishiq va yengil material bo'lib, g'iloflar, chamadonlar va shu kabilarni yasashda foydalaniladi. Qog'oz massasidan turli o'yinchoqlar, xonalar bezaklari, maxsus modda singdirilgan, nam o'tkazmaydigan qog'ozdan sut mahsulotlari uchun idish, muzqaymoq stakanlarini tayyorlashda foydalaniladi. Har yili qog'ozning yangi navlari yaratilmoqda. Maxsus elektrokimiyoviy qog'ozning kashf etilishi tufayli oyning orqa tomonini suratga tushirishga muvaffaq bo'ladi.

**Qog'oz va kartonning tasnisi.** Qog'oz va kartondan faqat poligrafiya sanoatidagina emas, balki xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarida keng foydalaniladi. Sellyuloza qog'oz sanoati qog'oz va kartonning ikki yuzga yaqin turini ishlab chiqaradi. Yuqorida aytib o'tilganidek texnikada qog'ozning telegraf va magnitlangan magnitofon lentalari, foto sezgir qog'ozlar, elektr o'tkazmaydigan qog'ozlar, nam o'tkazmaydigan fibra va shu kabi xilma-xil turlaridan foydalaniladi. Qog'ozdan qurilishda ham keng foydalaniladi. Masalan, qog'ozdan g'isht, to'siqlar uchun plitalar tayyorlanadi. Qog'ozga kitoblar, gazetalar bosilishini, unga ruchka, qalam bilan yozilishini barcha yaxshi biladi. Shuning uchun mehnat ta'limi o'qituvchisi bolalarning e'tiborini ko'proq qog'ozning turmushda tez-tez uchratadigan yoki qo'l mehnati darslarida foydalanadigan turlariga jalb qilishi lozim.

**Gazeta qog'ozı** – eng arzon va ko'p tarqalgan qog'oz turidir. Sifatiga ko'ra, unchalik pishiq emas, namlikni va yelimni yaxshi singdiradi.

**Yozuv qog'ozı** – sathi silliq, yelim singdirilgan, namlikni kamroq singdiradi. Narsalarni konstruksiyalash, muqovalash, kartondan yasalgan narsalarni yelimalashda juda qulay.

**Chizmachilik qog'ozı** – eng pishiq va qalin qog'oz. Lattadan tayyorlanadi, uning oliv navi qo'lida quyiladi. Undan karnaval niqoblari, lito va shu kabilarni yasashda foydalilanildi.

**Rasm qog'ozı** – sellyulozadan tayyorlanadi, oliv naviga 25 % latta qo'shiladi. Qo'l mehnati darslarida, shuningdek, chizmalar chizishda foydalilanildi.

**Rangli va jiloli qog'oz** – mehnat darslarida keng qo'llanilib, applikatsiya va muqova ishlarida foydalilanildi. Turli to'plamlarda chiqariladi.

**Yelimlangan qog'oz** – jilo berilgan qog'oz bo'lib, bir tomoniga yelim surtilgan qo'l mehnati darslari uchun juda qulay.

**Rangli jild qog'ozı** – turli ranglarda bo'yalgan, jilo berilgan rangli qog'ozning o'rnini bosib, qo'l mehnati darslarida keng qo'llaniladi.

**Shagren naqshdor qog'ozı** – muqovasozlikda va tayyor narsalarning ustidan yopishtirshda, archa o'yinchoqlarini yasashda foydalilanildi. Gulqog'ozning rangi va guli turlicha bo'lib, muqovalash, narsalarning ustidan yelimalash, bezash ishlarida keng foydalilanildi.

**Kalka qog'oziga** shaffoflik berish uchun mum va moy singdiriladi. Yaxshi, sifatli kalka qog'ozining hatto tozalangan joyida ham tush yoyilib ketmasligi kerak. Kalka qog'oz «fonus xayol» teatrida archa o'yinchoqlarini yasash, sahnani bezash, rasmlarni qayta tushirish ishlarida ishlataladi.

**Millimetrali qog'oz** sathi bosma to'r shaklida tayyorlanadi.

**Filtr qog'oz** yelimlanmagan qog'ozdir.

**Karton qog'oz** deb 1kv. m 250 grammidan ortiq bo'lgan qog'ozga aytildi. Karton qog'ozning quyidagi turlari mavjud:

**Oq karton** – uni qirqish oson, o'zi unchalik pishiq emas, tez sinadi. Bu karton yelimni ko'p shimadi, ko'pincha yelimdan shishib ketadi. Undan mayda narsalarni muqovalashda ishlatalish mumkin.

**Sariq karton** – oq kartondan ko'ra pishiqroq, egiluvchan, yaxshi qirqiladi. Yelimdan shishmaydi. Turli ishlarida foydalilanildi.

**Kul rang karton** – oq va sariq kartondan pishiqliq, qirqish qiyin. Pichoq karton massasidagi qumdan tez o'tmaslashadi. Kartonning bu navidan o'ta pishiqlikni talab qiluvchi narsalar tayyorlanadi.

**Rangli karton** – yupqa egiluvchan, sathi turli rangda jilo berilgan, ishlov berish juda oson va ko'rinishi chiroqli. Undan hajmi kichik narsalar, papkalar, muqovalar tayyorlash ma'qul. Uning ustidan boshqa narsa yopishtirishga hojat yo'q.

**Qog'ozni standartlash.** Sanoatda standartlash katta ahamiyatga egadir. Standart deganda mahsulotning ma'lum sifatini, u yoki bu buyumning ma'lum o'lchamlari belgilanishini tushuniladi. Qog'oz sanoatida ham qog'ozning o'lchami va navlari standartlashgandir. Yozuv qog'izi sotuvga 250–500 varaqdan qilib taxlangan holda chiqariladi, u katak yoki bir chiziq qilib chizilgan yoki umuman chizilmagan bo'ladi. Bir chiziq va katak qilib chizilgan qog'ozlardan ma'lum o'lchamga va ma'lum varaqqa ega bo'lgan daftarlari chiqariladi. Yozuv qog'ozni bir-biridan tarkibidagi qog'oz massasi, qalnligi, og'irligi va boshqa xususiyatlariga ko'ra farqlanib to'rt navda chiqariladi. Yozuv qog'ozining oliy navi 0, qolganlari muvosiq tarzda 1, 2, 3 raqamlariga bo'linadi.

## QOG'oz VA KARTONNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Quruq holdagi qog'oz nisbatan pishiqliq materialdir. Qog'oz naviga ko'ra suvda iviydi, yumshoqlashadi, pishiqligi yo'qoladi. Qog'oz yaxshi taxlanadi, agar bukilgan joy yaxshilab silliqlangan bo'lsa, qog'oz shu shaklni saqlab, oldingi holiga qiyinlik bilan qaytadi, bunda bukhanishdan hosil bo'lgan chiziqlar saqlanib qoladi. Suv, kleyster, suyuq yelimga namlanganda u cho'ziladi, quritilganda kirishadi, qog'oz uzunasiga qaraganda ko'ndalangiga ko'proq cho'ziladi.

Qog'oz tayyorlashda ko'pgina miqdordagi tolalar uzunasiga joylashadi, shuning uchun ham qog'oz ko'proq kengayadi; ko'ndalang yo'nalishda o'raladi.

Qog'oz oson tortiladi, eniga nisbatan bo'yiga yaxshilab buklangan joydan osonroq yirtiladi. Qog'oz yaxshi yonadi. Uni faqat yelim bilan emas, balki kleyster bilan ham yopishtirish mumkin. Qog'ozni qaychida osonlik bilan kesish mumkin.

Qog'oz silliqligiga maxsus ishlov berish – qog'oz massasini qaynoq silindrsimon vallar orqali o'tkazish yoki uni yelim va lakli bo'yоq bilan qoplash orqali erishiladi. Qog'ozning ayrim navlari siyoh bilan yozishga yaroqli, bo'yоq uchun yaroqsiz.

Qog'ozning bu xususiyatlariga unga maxsus kanifol jelatin, yelim, glinozem berish orqali erishiladi. Yozuv qog'oziga yelim singdirilgan bo'lib, siyoh yoyilib ketmaydi. Gazeta qog'ozni esa bosmaxona bo'yog'ining chuqur botmasligiga mo'ljallangan bo'lib, siyoh unda yoyilib ketadi. Qog'ozning maxsus ishlov berilgan navlаридан boshqalari havo va suvni o'tqazadi. Ushlanganda qattiq, egilmaydigan bo'lib, ko'ringan karton nam suv tekkanda shishadi, yumshab yoki bo'shashib, chidamsiz bo'lib qoladi. Karton naviga ko'ra egiluvchan va sinuvchan bo'ladi. Bir tomoniga qog'oz yopishtirilgan karton qog'oz yopishtirilgan tomonga qayishadi. Karton uzunasiga ham, ko'ndalangiga ham bir xil kesiladi. Uni yirtish qiyin. Karton yonadi. Ammo qiyinchilik bilan maxsus eritma singdirilgan kartonlar yonmaydi.

## QOG'oz VA KARTONGA ISHLOV BERISH USULLARI

Qog'oz va kartonga ishlov berish usullari unchalik murakkab emas, talabalar ularni osonlik bilan o'zlashtirib oladilar. Qog'oz va kartonga ishlov berish yuzasidan egallangan malakalar keyinchalik barcha mehnat turlari bo'yicha hunarmandchilik ta'limida keng qo'llaniladi.

**Qog'ozni buklash usullari.** Qog'oz varag'ini teng ikkiga buklash uchun qog'oz stol yoki parta ustiga qo'yiladi va o'ng hamda chap qo'l bilan qog'ozni o'ziga yaqin turgan tomonining ikki uchidan ushlab, uni pastki uchlari bilan tenglashtiriladi. Bunda qog'ozning shkalalar qirrasi bir-biriga to'g'ri tushishi kerak. Ana shundagina qog'oz qo'l bilan tekislanib, uning bukilgan chizig'i ustidan tirnoq bosib yurgiziladi.

**Qog'ozning bukilgan joyidan yirtish.** Qog'ozni yirtishdan oldin, avval ehtiyyotlik bilan ochiladi, uning bir tomoni o'ng qo'l bilan bosilib, chap qo'l bilan bukilgan chiziqdan sekin yirtiladi. Bukilgan chiziq ustiga chizg'ichni qo'yib ham qog'ozni yirtish mumkin.

**Qog'ozning bukilgan joyini pichoqda qirqish.** Qog'ozni buklab, tirnoq bilan bosib, iz tushiriladi. Shundan so'ng uning buklangan

chizig'ini o'ng tomonga qilib stol ustiga qo'yiladi. Uning orasiga pichoq tiqib yurgiziladi.

**Qog'ozni chiziq bo'yicha pichoq bilan qirqish.** Qog'ozni pichoq bilan qirqish uchun taglik taxta bo'lishi kerak. Belgilangan chiziq ustiga cheti chiqqan metall chizg'ich, falslineyka qo'yilib chap qo'l bilan qattiq bosiladi. Pichoq o'ng qo'lida bo'lib, ko'rsatkich barmoq pichoqnning o'tmas tomoni ustida, katta va o'rta barmoq esa pichoq yuzini ushlab turadi. Pichoqni o'zi tomonga egib, pichoq bilan taglik taxta o'rtasida 35-45 radiusli burchak hosil bo'lishi lozim, uning damini chizg'ichga tegizib, faqat bir tomonga, pastga qarab yurgiziladi. Pichoqning uchi o'tkir bo'lishi kerak, bo'lmasa u qog'ozni yirtib yuboradi. Kesayotganda pichoqni qattiq bosmaslik kerak, aks holda u chetga chiqib ketishi mumkin. Qog'ozni bu usulda qirqishda uning o'ng tomonini pastga qilib qo'yiladi. Qog'ozni taxta ustida takror-takror qirqish oqibatida turli chiziqlar qolmasligi uchun uning ustiga karton yoki bir necha qavat qog'oz solinadi. Karton ham xuddi shu usulda kesiladi, biroq u qalin bo'lganligi va pichoqni bir marta o'tkazganda qirqib bo'lmasligi tufayli pichoqni ayni bir chiziqning o'zidan, faqat yuqorida pastga tomon takror-takror yurgiziladi. Kartondan doira qirqib olishda kruglorezdan foydalilaniladi. Kruglorezda radiusni belgilab, uning bir uchidagi teshikka bigiz o'rnatiladi. Bu bigiz kartonni teshib taxtaga o'tkaziladi. Kruglorezning ikkinchi uchiga pichoqning uchi o'rnatiladi va shu orqali kartondan doira qirqladi. Kartonni bukish uchun unga chiziq bo'yicha pichoq yoki o'tmas predmet bilan o'yiq chiziq hosil qilinadi. Ana shundan so'ng kartonni o'yiqning qarama-qarshi tomoniga qo'l bilan buklanadi.

**Qog'ozni qaychi bilan qirqish.** Qaychi o'ng qo'lida ushlanadi. Ish vaqtida qaychini harakatsiz ushlab, qirqilayotgan qog'ozni, undagi kesish chizig'i aniq ko'rinishi uchun aylantirib turiladi.

**Andoza bilan ishlash.** Andozani materialni tejash maqsadlarida qog'ozning chetiga qo'yib, chap qo'l bilan bosib turiladi, o'ng qo'l dagi qalam bilan andozaning chetidan chiziladi.

**Qog'ozni yopishtirish.** Stolning ustiga gazetani yozib, uning ustiga kerakli o'lchamda qirqib olingan rangli yoki istalgan qog'oz qo'yiladi va mo'yqalam yordamida o'rtasidan chetiga avval chap, so'ngra o'ng tomonga qarab sirach, yelim surtiladi. Sirach yoki yelim surtilgan qog'ozni yopishtiriladigan predmetning ustiga qo'yib, uning ustiga g'ijimlanishlar bo'lmasligi uchun toza latta bilan bosib tekislanadi. Yassi narsalar taxtakach ostida quritiladi.

Hajmli predmetlar qog'oz shimmashligi uchun ham ichki, ham tashqi tomonidan yelimlanadi.

**Biriktirish usuli.** Predmetlar montaji va ularga yakuniy pardoz berish har bir ishning nihoyalovchi bosqichi hisoblanadi. Predmetlarni yig'ish va ularga pardoz berish usullari qilingan ish va uning xarakteriga, tayyorlangan predmetning o'ziga bog'liq tarzda amalga oshiriladi. Chunki predmetning turli detallari har xil usullarda, ya'ni maxsus klapanlar, poloskalar yordamida yopishtirilishi, hoshiyalash yordamida birlashtirilishi, gazlama yopishtirilishi, ip bilan tikilishi, sim, kanop va shu kabilar bilan jipslashtirilishi mumkin.

Qog'ozdan yasalgan detallarni yelimlash yassi hajmli ishlarni bajarishda qo'llaniladi. Qog'ozni kartonga yelimlash: muqovalash ishlari, hajmli narsalarni pardozlash, quticha va g'iloflarni yopishtirishda detallarni gazmol poloskalarini yordamida birlashtirish, kimyoviylashtirish, muqovalash ishlarida, muqovaning ikki bo'lagini gazmol bilan biriktirishda ip bilan tikish va ip bilan biriktirish zarur.

«Fonus xayol» teatri va qo'g'irchoq teatrining harakatlanuvchi qo'g'irchoqlarini tayyorlashda, daftar sahifalarini, karnaval kostyumlarini tikishda va boshqa bir qator ishlarda foydalaniladi. Detallarni sim bilan oshiq-moshiq tarzida biriktirishda, «onus xayol» teatrining harakatlanuvchi detallarini, qo'g'irchoq teatrining shakkulari va boshqa narsalarni yashashda foydalaniladi. Bunday ishda ingichkaroq, igna yoki mixga oson o'raladigan simdan foydalaniladi. Bir-biriga biriktiriladigan karton yoki qalin qog'oz oldindan bigiz bilan teshib, tayyorlab qo'yiladi. Qog'oz va kartondan yasalgan detallarni turli xil qilib biriktirishda qutichalar, konvertlar, turli konstruksiyadagi papkalar yashashda foydalaniladi.

Yakuniy bosqich predmetni pardozlash ishi estetik ko'rinishda bo'lishi kerak. Bu detallarni turlicha qilib har xil bo'yoqlar bilan bo'yash, applikatsiyalar bajarish, tabiiy, turli materiallar bilan bezash, gazlama qoplash va boshqa usullarda bezashdan iborat.

## QOG'oz VA KARTON BILAN ISHLASH

Qog'oz va karton rangi shakli, o'lchami, tekis yoki g'adir-budurligiga qarab maqsadli malakalarni o'stirib borish kerak. O'yinchoqlar turli esdaliklar, ko'ylik uchun bezaklar tayyorlash,

unda rang va shakllarni uyg'unlashtirish haqidagi tushunchalar kengaytirib boriladi. Qog'oz va karton bilan ishlaganda andoza, qaychi, yelimdan to'g'ri foydalanish, malakalarni mustahkamlash kerak.

Qog'ozni qo'l bilan yirtish, turli shakllar yasashni o'rgatish lozim. Zar qog'ozdan har xil munchoqlar, stol teatri uchun personajlar, o'rdakcha, xo'roz, cheburashka, qo'g'irchoqlarning ko'ylagini gul va naqsh bezaklar bilan bezash, kompozitsiya tuzish, mebellar, qutichalar yasash o'rgatiladi.

**Qog'oz** – bu biz har birimiz kunda to'qnashib turadigan, eng kerakli va qiziqarli materiallardan biridir. Biz kunda kitob va gazetalarni o'qiymiz, ko'chalarda yorqin plakatlar, konsertlarda, ko'rgazmalarda afishalarni uchratishimiz mumkin. Agar diqqat bilan atrofga nazar tashlasak, qog'ozning har xil buyumlar yasash uchun ham ishlatilganini ko'ramiz.

Qog'oz bilan ishlash uchun qaychi bilan yelim kerak, xolos. Qog'oz berilgan shaklni saqlab turish, o'ynichoqlar yasash uchungina emas, boshqa kundalik hayotimizda kerak bo'ladigan buyumlar yasash imkonini beradi. Biz bolaligimizda qog'ozni kashf etganimiz, uning hayratlanarli xususiyatlardan zavqlanganmiz. Mohir qo'llarda oddiy daftar varag'i gulga, likopchaga, suvda suzadigan qayiqchaga aylanadi. Oxirgi paytlarda qog'oz o'zining dekorativ xususiyatlari bilan mutaxassislarining diqqatini jalb qilmoqda.

Uning rangi, turli xususiyatlari har xil dekorativ ishlarda katta ahamiyatga ega, ayniqsa, mozaikada. Pedagoglarning hisoblashicha, qog'oz qanchalik xilma-xil va rang-barang bo'lsa, shunchalik u bilan ishlash qiziqarliqdır.

## QOG'oz TURLARI

**Papirus qog'izi.** Papirus qog'izi archa o'ynichoqlarini bezashda gul va boshqa dekorativ buyumlar tayyorlashda ishlatiladi.

**Foto qog'oz.** Foto qog'oz nurga sezuvchan qog'oz, u fotografiyalarda ishlatiladigan qog'oz tayyorlashda negiz bo'lib xizmat qiladi.

Ba'zi albomlarda, yondaftarlarda, papkalarda foto qog'oz rasm qog'ozining rolini o'ynaydi. Nur tushirilgan qog'ozni mayda ko'rgazmalar yasash uchun ishlatish mumkin.

**Gazeta qog'ovi.** Bu qog'oz qisqa vaqt foydalaniladigan ko'rgazmalar uchun moslangan. U oqlanmagan sellyuloza (25%) va yog'och massasi (75%) dan tayyorlanadi, og'irligi — 15 gr.

**Kitob va jurnal qog'ozlari.** Bosmoxona qog'ovi va jurnallar nashr etish uchun ishlataladi.

**Kartografiya qog'ovi.** Bu qog'oz kartalar tushirish uchun mo'ljallangan sellyuloza va yog'och tolasidan ishlaniadi. U uch turda ishlab chiqariladi: geografiya, gidrografiya va bosmaxona kartalari uchun.

**Muqovalar uchun qog'oz** kitob, jurnal, papkalarga muqovalar tayyorlash uchun ishlataladi, shuningdek, jadvallar, qutichalar va aplikatsiya ishlari uchun ham yaroqlidir.

**Albom qog'ovi.** Albom qog'ovi deb, zich, qalin muqovalar uchun uncha og'ir bo'limgan (45 dan 80 gr gacha) qog'oz tushuniladi.

**Rasm-chizmachilik qog'ovi.** Jadvallar, kartochkalar, loto, suratlar, geometrik shakllar va boshqa hajmli hamda tekis buyumlar uchun, karnaval niqoblari, turli mакетлар yasash uchun yaroqli.

**Kalka qog'ovi.** Bu shaffof rang bilan ishlov berilgan va og'irligi 40—50 gr bo'lgan qog'oz.

**Millimetrali qog'oz.** Og'irligi 70, 80, 90, 120 va 130 gr. sariq, yashil va havo rang qog'ozdir.

**Qog'oz va kartonni qayta ishlash jarayonida trafaret, shablon va muhr tayyorlash texnikasi.** Maktabgacha ta'lim muassasasida har bir o'tkaziladigan mashg'ulotlarda bolalarни mustaqil ishlashga, qo'l muskullarini rivojlantirishga o'rgatib borish zarur. Tarbiyachilar har bir o'tkaziladigan mashg'ulotiga ijodiy yondashgan va o'z mahoratini ishga solgan holda yangilik yarata olishlari lozim. Bolalar bog'chasingning ilk yosh guruhidan boshlab to tayyorlov guruhibigacha ish jarayonlari oddiydan murakkabga qarab boradi. Buning uchun o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ayniqsa tasviriy faoliyat, rasm, aplikatsiya, loy ishlarini yaratishda uctaxonada amaliy ish fanining ahamiyati kattadir.

Bolalar bog'chada trafaret, shablon asosida chiziladigan buyumlarni, shakllarni chizishga, qirqish, yelimlashga, yasashga o'rgatiladi.

Trafaret yasash uchun kerak bo'ladigan ish qurollari:

1. Rangli suratlar;
2. Kalka qog'ovi;
3. Qora qalam;

4. Qaychi, pichoqcha;
5. PVA yelimi;
6. Dermantin;
7. Karton qog'oz;
8. Kleyonkadan foydalanish mumkin;

Trafaret — qalin qog'oz, yupqa karton, tunuka, plastmassadan tayyorlanadigan yig'indisi turli murakkablikdagi naqshni yoki biror yozuv matnini tarkib toptiradigan tirkishlar qilingan plastinkadir. Trafaretdan ko'p karra takrorlanuvchi rasmlar, harflar, yozuvlarni olishda foydalaniadi. Trafaretlar qurilishda, devorlarni bezashda, tayyor mahsulotlar turlarini markalashda keng qo'llaniladi. Maktab amaliyotida trafaretlar qalin rasm qog'o-zidan tayyorlanib unga rasm, naqsh, harflar aniq chiziqlar bilan tushiriladi. Har bir detal yonidagi qismlar bilan ko'proq birlashi-shi lozim. Rasm tushirilgan qog'ozga olif moy yoki moy laki singdiriladi. Lak yoki olif moyi qurigach, qog'ozning ustini artib, rasmni o'yib olishga kirishiladi.

Trafaretni bir necha qavat keraksiz qog'oz solingan taxta ustiga qo'yib, qalamtaroshning uchi bilan olib tashlanishi lozim bo'lган qismlari qirqiladi. Qalamtaroshni qiyalatib ushslash lozim. Mayda detallarni qirqishda chizmalarni tozalashda ishlatalidigan nayzasimon qirish perolaridan ham foydalanish qulaydir. Trafaretlar xilma-xil: bir rangli qismlarni va ko'p bo'yoqli tasvirlarni berishga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Ko'p bo'yoqli tasvirlarda rasm ranglar soniga ko'ra qismlarga ajratiladi. Har bir rangda alohida trafaret tayyorlanadi. Ko'p rangli rasmni bajarishda trafaretlar qo'llanilish tartibiga muvosiq raqamlanadi. Bundan tashqari ularda rasmning ma'lum qismlarini tekshirib turish maqsadida teshiklar qilinadi, bu teshiklar bo'yalmaydi.

Qo'shaloq trafaretlar uzlusiz rasmlarni olish uchun xizmat qiladi, birinchi trafaretda rasmning bir qismi, ikkinchisida esa rasmning birinchisi bilan ulanishini ta'minlovchi qismlari bajariladi.

**Teskari trafaret** — bu trafaretlar yordamida fon, rasm bo'yaladi, ishlov berilayotgan material rangi saqlanadi.

Trafaret orqali mo'yqalamda bo'yoq beriladi. Bunda maxsus mo'yqalmlardan foydalansa bo'ladi. Mo'yqalam bilan beriladigan bo'yoq quyuqroq bo'lishi kerak, aks holda, u trafaret tagiga oqib tushishi mumkin. Ko'p rangli rasmlarni bajarishda bo'yoqlar belgilangan izchillikda tartib bilan beriladi.

Trafaret shablon tayyorlash uchun tasvir chizib olinadi va pichoqda ozgina kesib, so'ngra qaychini uzmasdan qirqishga harakat qilinadi. Agar uzib-uzib qirqilsa, tasvir noto'g'ri chiqishi mumkin. Trafaret shablon 2 xil usulda bo'ladi:

1. Oddiy trafaret shablon.
2. Murakkab trafaret shablon.


Oddiy trafaret shablon, deb bir qismidan iborat bo'lgan tasvirga aytildi.

Murakkab trafaret shablon, deb uch-to'rt qismidan iborat bo'lgan shaklga aytildi. Har bir bajarilayotgan ishga e'tibor, mehr, did, farosat talab etiladi.


Suyuq shaffof rang anilin bo'yоqlarni purkash yoki shampun bilan surtish asosida berilgani ma'qul. Tampon yasash uchun bir siqim paxtani dokaga solib, mahkam qilib bog'lanadi. Trafaretni qog'ozning ustiga qo'yib, uning ustiga bo'yоqqa botirilgan tampon bosiladi. Natijada qog'oz ham, trafaret ham bo'yaladi. Trafaret olinganda qog'ozda qirqilgan shaklning bo'yalgan izi qoladi. Gul solish ishi shu usulda davom etadi. Tarhli trafaret bilan ishlaganda quruq rang kukuni yoki ko'mir kukuni tampon qilib o'raladi va uni rasm chiziqlari ustiga bosib-bosib olinadi, buning natijasida qog'ozga tushirilayotgan naqshning zaif tarhi hosil bo'ladi, zarur bo'lsa uning atrofini qalam bilan chizib chiqqan ma'qul.

**Shablon** – butkul qabul qilingan namunadir. Keramika sanoatida lagan, talinka, chashkalarni tayyorlashda doira shablon qo'llaniladi. Doira va qaytarma shablondan simmetrik shakldagi modellarni yasashda foydalaniladi.

Oddiy, murakkab trafaret va shablon namunalari:



Kartoshka, po'kak va o'chirg'ichdan yasalgan muhrdan foydalanim chizilgan rasmlar.



Qaytarma shablon yordamida model quyidagicha shakllanitiriladi: taxtaga o'yilgan shablon o'yig'iga yaxshi ishlangan loy qo'yiladi, qo'yilgan loyning o'lchami bo'lajak modeldan bir oz kattaroq bo'lishi kerak. Shablonni 180 gradusga aylantirib modelning birinchi yarmi hosil qilinadi. Aylana shablon tik o'q bilan birlashadi, o'q taxta o'yig'idagi loyga o'rnatiladi. Shablon modeli o'q atrofida aylantirib yasaladi.

**Muhr. Shtamp.** Ishlab chiqarishda bosim kuchi bilan detal yasaydigan asbob muhr deyiladi. Muhr shtampning bir turidir. U qalin karton yoki rezinadan tayyorlanadi. Turli shakllar o'yib ishlangan karton yoki rezina yog'och plactinkaga yopishtiriladi. Agarda harflar o'yib tushiriladigan bo'lsa, unda harflarning ko'zgudagi aksi tushirilishi kerak. Xom kartoshkaga o'yib ishlangan muhr va shtamplar uzoq muddat chidamaydi. Muhr va shtamplar uchun oddiy bo'yoqlardan ham foydalansa bo'ladi. Bo'yoq paxtaga yoki bir necha qavat taxlangan bintga singdiriladi – bu bo'yoq berish yostiqchasi xizmatini o'taydi.

**Trafaret, shtampni tayyorlash usuli.** Bosib tasvir tushirishning eng oddiy usuli kartoshka shtampi bilan bosishdir. Bu usulda

murakkab bo'limgan naqsh kompozitsiyalarining yozuvlarini tushirish mumkin.


Shtamp tayyorlash uchun yirikroq kartoshka tanlanadi. Kartoshkani ikkiga bo'lib, qalam bilan oddiy tarhli rasm tushiriladi va uchli pichoq yordamida kartoshka rasm tarhi bo'yicha 0,5 sm chuqurlikda o'yiladi. So'ngra kartoshkaning yon tomonlari o'yilgan konturgacha ohista qirqiladi va keraksiz qism olib tashlanadi, natijada bo'rtib chiqqan joyga bo'yoq surib, muayyan narsa qog'ozga tushiriladi.



Trafaret tayyorlash uchun kerakli shakl namunadan nusxa qog'oz yordamida qalin qog'ozga tushiriladi yoki qo'l bilan chiziladi. Tushirilgan shaklning detallar uchi kichik qaychi yoki qalamtarosh bilan qirqib olinadi. Trafaret tayyor bo'lganda ikkala tasvirni saqlash lozim, chunki undan keyinchalik to'g'ri va teskari iz olish mumkin.


Grafit kukuni yordamida trafaretdan shaklni qog'ozga tushirish uchun 3–4 dan 6 mm gacha bo'lgan yumshoq qalam qalin qog'ozning ma'lum qismiga quyuq qilib suriladi. Shundan so'ng qalam surilgan joy paxta bilan artiladi, natijada grafit kukun paxtaga o'tadi. Bu paxta toza qog'ozga qo'yilgan trafaret ustidan ohista yurgiziladi. Natijada qog'ozda trafaretdagi shaklning izi qoladi. Bu to'g'ri tasvirdir. Buning teskarisi ham bo'lishi mumkin. Buning uchun trafaretni tayyorlash vaqtida qirqib olingan qismlar qog'ozning ustiga qo'yilib, chap qo'l bilan bosib turiladi, o'ng qo'l bilan esa grafit kukunli tampon o'rtasidan chetiga qarab suriladi. Natijada atrofi qora bo'lgan oq tasvirga ega bo'linadi.


**Trafaretda turli rangni bosish.** Bu holda ranglarning qancha bo'lishi nazarda tutilgan bo'lsa, shuncha miqdorda bir hil varaqlar olinadi. Hamma qog'oz orasiga nusxa – qog'oz qo'yib chiqiladi. Eng ustidagisiga asl rasmni qo'yib qora qalam bilan chiziladi. Natijada ayni bir rasmning bir xildagi nusxalariga ega bo'linadi. Har bir qog'ozga qaysi rang berilishini yozib, rasmning shu rang beriladigan qismi qirqib olinadi. So'ngra trafaretni navbatil bilan qog'ozning ustiga qo'yib unga tegishli bo'yoq beriladi. Trafaretni qo'yishdan oldin berilgan bo'yoqning quriganligiga ishonch hosil qilinishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining katta va tayyorlov guruhlarida ko'ngilochar soatlarini mazmunli o'tkazish uchun shablon yordamida ertak qahramonlari tayyorlanadi. Quyidagi rasmlarda ertak qahramonlarining shablon namunalari berilgan:




















## QOG'ozNI BO'YASH

**Qog'oz va karton buyumlarga sayqal berish.** Sayqal berish operatsiyalarining maqsadi buyumni bezash yoki biror materialga taqlid qilish uchun uning tashqi ko'rinishini o'zgartirishdir. Buyumga sayqal berishning maqsadi uni nam, chang ta'siridan saqlash ham bo'lishi mumkin. Ko'pincha sayqal berish buyum sathini muhofaza qilish, uni bezatish, tashqi ko'rinishini boshqa materialga o'xshatish vazifalarini birvarakayiga hal qiladi.

**Qog'oz va kartonga sayqal berish uchun asbob va materiallar.** Sayqal berish ishlarida qo'llaniladigan asosiy asboblar bo'yoqlar uchun mo'yqalamlar to'plami, lak, mum, yelim va sayqal beruvchi idishlardir. Buyumlarga mum yoki parafin singdirishda metall idishvannachalardan foydalaniлади. Materialarni gruntlash, shpaklyovka, bo'yovchi, ustki qoplamani hosil qiluvchi pylonka materiallari, sathni bezash va imutatsiya materiallari, tabiiy material, bo'yalgan qog'oz, qipiқ, metall kukunlarga ajratish mumkin.

**Gruntovka va shpaklyovka qilish.** Qog'ozdan yasalgan narsalarni gruntovka qilishda duradgorlik yelimi, olif moyi yoki suyultirilgan moy bo'yoqlardan foydalaniлади. Yelimli grunt tez quriydi, anchagina pishiқ pylonka hosil qiladi. Bu grunt bo'yoqni yaxshi oladi. Qog'oz buyumlar agarda ular moy bo'yoq bilan bo'yadigan bo'lsa, gruntovka qilinadi, chunki gruntovkasiz moy bo'yoq qog'oz sathda bir tekisda yotmaydi. Nam ta'sirida bo'luvchi buyumlarni gruntovka qilishda oliy navli oliy moydan sof miqdorda moybo'yoq qo'shib foydalaniлади. Agarda qog'oz yoki karton yaxshi yelimlanmagan bo'lsa, ularni bir necha marta gruntlashga to'g'ri keladi, har bir takroriy qatlama oldingisi to'liq qurigandan keyin beriladi. Papye-mashyedan qilingan narsalar grunt sifatida yelim, moy, emulsiya, levkos gruntuidan foydalaniб, bir necha marta gruntovka qilinadi. Shpaklyovka qilish buyum sathidagi notejisliklar, chuqurchalarni maxsus yog'langan shpaklyovka bilan to'ldirishdir. Shpaklyovka va gruntovka natijasida predmetlarning bo'yadigan sathi silliq yanada pishiқ va mustahkam bo'ladi. Sayqal berishda xilmal-xil badiiy va dekorativ bo'yoqlar: moy, akvarel, appilin, yelim, emal, guash, rangli va qora tush, spirtli, nitrosellyuloza lakkalaridan foydalaniлади. Mum, parafindan jilosiz ishlov berishda, shuningdek, qog'ozni namga bardoshli qilishda foydalaniлади. Eritgichlar sifatida skipidar, esir moyi, benzin, kerosin, vino spirti, atseton va maxsus chiqariladigan sanoat erituvchilaridan foydalaniлади. Agarda buyum

sathiga yaltiroq fon beriladigan bo'lsa, bo'yoqning erituvchisi sifatida lak, olif moyi yoki akvarel bo'lsa skipidar ishlatiladi. Olif moyi pishirilgan zig'ir yoki kanop yog'i bo'lib, unga pishirish jarayonida tayyor olif moyining ko'rinishini tezlashtiruvchi katalizatorlar qo'shiladi. Shuning uchun katalizatorlar quritich yoki sikkativlar degan nomni olgan. Emal bo'yoqlar quriganda mustahkam yaltiroq qatlam berishi kerak. Pastasimon konsistensiyadagi yelimli bo'yoq guash deyiladi. Guash bir tekisdagi shaffof bo'limgan sof tondagi qatlam bilan qog'ozni yaxshi bo'yaydi. Nitrobo'yoqlar tez yonuvchandir, shuning uchun ulardan foydalanimaydi. Sanoat ishlab chiqaradigan moy bo'yoqlar assortimentga juda boydir. Qog'oz va kartonni laklashda mebel (№ 4–4 a), kanifol (№ 7) laklaridan foydalangan yaxshi. Moyli lakning bronza kukuniga aralashtirishga mo'ljallangan maxsus navi bronza tinkturasi deyiladi.

Qog'ozni bo'yashda quyidagi bo'yoq va moslamalardan foydalaniladi:

**Akvarel bo'yoqlar** suvda eritiladi, tyubiklardagi akvarel bo'yoqlardan foydalanish juda qulay.

**Anilin bo'yoqlar** bilan gazlama, qog'oz, karton yaxshi bo'yaladi. Bu bo'yoq kukun holda sotilib, issiq suvda oson eriydi.

**Moybo'yoqlarning** tayyor aralashtirilganini olish lozim. Quyuq pastasimonidan foydalanish mumkin, ular olif moyi bilan suyultiriladi.

**Quyuq bo'yoqlarning** eng yaxshilari toza, ochiq ranglari badiiy bo'yoqlar deyilib, tyubiklarda sotiladi. Bo'yoq tanlashda faqat ularning rangigagina emas, balki xususiyatlariga ham e'tibor berish kerak.

**Qizil bo'yoqlardan** temirli surikni, belilaning ruxlisini, sariq rangdan, ruxli kronning, yashilini, xrom oksidini, ko'kish ultarmarinni olish mumkin.

**Moy bo'yoqlar** sekin quriydi, ularning qurishini tezlatish uchun 100 g bo'yoqqa 2 g atrofida maxsus sikkatif eritmasi quyiladi. Agarda bo'yalgan sath haddan tashqari yaltiroq bo'lmasligi talab qilinsa, bo'yoqqa ozgina skipidar aralashtiriladi. Moy bo'yoqlar og'zi zich yopiladigan tunuka bankalarda saqlanadi. Moy bo'yoq qurib qolmasligi uchun uning ustiga olif moyi yoki suv quyib turiladi. Yelimli bo'yoq yoki guashda karton yaxshi bo'yaladi, biroq bu bo'yoqlar quyosh nurida tez ayniyidi.

Oddiy yozuv qog'ozini bo'yash oson. Qog'ozni bo'yash uchun tog'orachada anilin bo'yog'i kerakli rangda eritiladi, bunda bo'yoq

quriganda rangi ochiqroq bo'lishini hisobga olish kerak. Tayyorlangan bo'yoqqa qog'ozni bir chetidan ushlab turib botirib olinadi, so'ngra uni qisqichlar yordamida quritish uchun osib qo'yiladi, u bir oz qurigach, chap tomonidan iliq dazmol bosiladi.

Qog'ozni bo'yashning ikkinchi usulida qog'ozga suyuqlashtirilib bo'yoq aralashtirilgan sirach suriladi. Sirach yuqorida aytib o'tilgan retsept bo'yicha tayyorlanib, unga suvda eritilgan guash (akovarel, anilin) bo'yo'i qo'shilib yaxshilab aralashtiriladi va uni qog'ozning ustiga mo'yqalam bilan suriladi. Qog'oz gazeta qoplangan taxtaga qopqoqli mix bilan mustahkamlangan bo'lib, uni avval o'tasidan bir chetiga, so'ngra ikkinchi chetiga qarab bo'yaladi. Rangli sirach qoplangan qog'ozga turli rasmlarni tushirish mumkin. Bo'yalgan qog'oz qurigach, unga ochiq spirt laki beriladi yoki mumlangan sukno bilan sayqal beriladi.

Qog'ozni sachratib bo'yash ham mumkin. Buning uchun akvarel bo'yoq suyultiriladi va unga tish cho'tkasini botirib olinadi. Qog'ozni ustida chap qo'lda eski taroq yoki mayda metall to'rni ushlab turib, uning ustidan bo'yoqqa botirlgan tish cho'tkasi yurgiziladi. Natijada qog'ozning ustini bo'yoq mayda xol tarzida qoplaydi. Bo'yashni turlicha amalga oshirish mumkin, ya'ni avval bir rangni sachratish mumkin. Qog'ozning ustiga siluet qo'yib, bo'yoq sachratilsa siluet olinganda qog'oz ustida oppoq rasm qoladi, agarda trafaret qo'yilsa oq qog'ozda rangli rasm paydo bo'ladi. Bo'yashning bu usulida pulverizatordan foydalanish mumkin.

**Moy bo'yoq bilan bo'yash.** Moy bo'yoq bilan bo'yash bir tonli va marmarsimon bo'lishi mumkin. Har ikkala holatda ham bo'yoq bir xil tayyorlanadi. Moy bo'yoq kerosin va qaymoq darajasida suyultirilib bo'yash amalga oshiriladigan idishdag'i suvga quyiladi. Bir tonli bo'yashda bir hil rangdagi bo'yoqdan foydalaniladi. Suv ustiga quyilgan bo'yoq tayoqcha bilan ohista aralashtiriladi, bunda bo'yoq suv ustida yupqa rangli qatlam hosil qilishi kerak. Qog'oz ana shu qatlam ustiga ohista qo'yib olinadi. Qog'oz quritilgach, dazmollanib, so'ngra unga rangsiz spirtli lak surtiladi. Agar qog'oz marmarsimon rangga bo'yaladigan bo'lsa, idishdag'i suvga bir necha xil bo'yoq solinib, ohista aralashtiriladi.

Shaffof rangdagi qog'ozni tayyorlash uchun oddiy yozuv qog'ozining har ikkala tomonini kerosin (o'simlik moyi yoki boshqa yog'lar)ga botirib, undagi ortiqcha yog'lar quruq tampon bilan artib olinadi. Qog'oz moyni ko'p shimib olmasligi uchun unga

gazeta yoki o'rashga mo'ljallangan qog'oz o'rtasiga qo'yib uning ustidan iliq dazmol yuritiladi. Bunday qog'oz qo'l mehnati darslari-da kalkaning o'rnnini bemalol bosa oladi.

Murakkab o'yinchoqlarni yasashda qog'ozga tez yonishdan saqlovchi modda singdiriladi.

Suvga chidamli qog'ozni eritilgan issiq mum yoki mumning parafin bilan aralashmasini singdirish orqali olinadi. Suv tegirmonining parraklari, qayiqchalarga xuddi shunday ishlov beriladi.

«Tilla» va «kumush» qog'ozlarni tayyorlash uchun alyuminli va tillarang bronza kukunlaridan foydalaniladi. Erituvchi modda odatda kukun bilan birga solinadi. Metall kukunlarini rangsiz spirit lakida ham aralashtirish mumkin. Agarda qog'oz ustini rasm bilan bo'yash kerak bo'lsa, metall kukuni kraxmal yelimda eritilib, qog'ozni bo'yagandek bo'yaladi. Biroq bu bo'yoq unchalik pishiq chiqmaydi.

Qog'ozni bo'yashda, bo'yalayotgan qog'oz tagiga gazetani bir necha qavat qilib solish kerak. Ular qopqoqli mix bilan stolga mahkamlab qo'yiladi. Bo'yalgan qog'ozga mum yoki lak bilan sayqal beriladi.

Qog'ozlarni bo'yash quyidagicha bajariladi:

1. Rangli qalam bilan bir yoqlama bo'yaladi (pastdan yuqoriga, o'ngga, chapga, qiyalatib);
2. Rangli bo'yoq ham shunday bo'yaladi (chapdan o'ngga, yuqoridan pastga);
3. Qog'ozni tayyorlangan bo'yoqqa botirib olish bilan bo'yash;
4. Taroq va tish cho'tkasi bilan sachratib bo'yash;
5. Paxta qog'oz porolon tamponlar bilan urib-urib bo'yash.

Moyli bo'yoqdan foydalanib bo'yalgan qog'oz suvga chidamli va juda chiroyli ko'rinishda bo'lib chiqadi. Shuning uchun uni marmar usulida bo'yalgan qog'oz deyiladi. Bu quyidagicha bajariladi: moyli bo'yoq kerosin yoki benzin bilan aralashtiriladi. Bo'yoq suvga aralashmasdan suv ustida qatlam hosil bo'ladi. Qog'ozni shu suvga botirib sekin-asta ko'tariladi. Qatlamdagi bo'yoq qog'ozga yopishib qoladi. Qog'oz quirigach, yangi marmar toshga o'xshab qoladi. Agar rangini turlichha qilmoqchi bo'lsak, bir nechta rang bir yo'la solinadi.


Qog'ozni bo'yashda sabzavot-mevalarni, ya'ni qizil sabzi, sariq sabzi, lavlagi, o'sma, turp, pomidor, mandarin suvlarini siqish orqali bo'yoq tayyorlashimiz mumkin. Ularni qirg'ichdan yoki

maydalab to'g'rash orqali siqib olinadi. Hosil bo'lgan ranglarni alohida og'zi berkitiladigan idishlarda saqlash mumkin.

**Klestr yordamida bo'yash.** Klestr quyidagicha tayyorlanadi:

Qozonchaga bir osh qoshiq un solib unga yarim piyola suv solinadi va qoshiqda yaxshilab atalaymiz. So'ngra yana ozgina suv qo'shiladi, keyin gazni past olovda yoqib, qozonchani kavlab turamiz. 3–4 daqiqada tayyor bo'ladi. So'ngra sovutilgach, oq list olamiz, bitta qoshiq lavlagini qog'ozga quyamiz va uni paxtada edirib chiqamiz va unga taroq va boshqa narsalar bilan bezak beramiz.

**Marmar bo'yash.** Bunday bo'yashda bizga kerak bo'ladigan ish qurollari: bir qoshiq benzin yoki kerosin, unga yarim piyola suv solib, unga yana moy bo'yoqdan solib aralashtiriladi. Bajarish usuli: maxsus idishga suv solamiz, unga bir qoshiqda benzin solamiz, unga moy bo'yoqdan bitta tomchi tomizamiz va uni cho'pda aralashtiramiz. Ungacha qog'ozni to'rt buklab qirqib aralashmag'a botirib bir tomonini bo'yaymiz. Qatlamdag'i bo'yoq qog'ozga yopishib qoladi. Qog'oz qurigach, rangi marmar toshga o'xshab qoladi. Agar rangini turlicha qilmoqchi bo'lsak, bir necha rang bir yo'la solinadi. 1,5–2 kunda quriydi.



**Qog'oz va karton buyumlarini hoshiyalash.** Kartondan yasalgan narsalar alohida sinchkovlik hamda carishtalikni talab qiladi. Tartib va did bilan qilingan planshet va paspartular qo'llanmalarga chiroyli ko'rinish beribgina qolmay, balki ularidan foydalanish muddatini

uzaytirishga ham yordam beradi. Avval qog'ozda bajarilgan, so'ngra kartonga yopishtirilgan har qanday sxema uzoqroq chidaydi, undan foydalanish ham qulay bo'ladi.

Milkular hoshiyalangan, metall halqalar biriktirilgan oddiy planshetni tayyorlash uchun planshetga yopishtiriladigan sxema yoki kartadan bir oz kattaroq o'lchamdag'i karton kerak bo'ladi. Shundan keyin materialdan eni milk enidan ikki marta kattaroq kesma uzunasiga qirqib olinadi. Ikkita poloskaning uchlari burchak qilib qirqiladi, yelim surtib avval, uchlari burchak qilinmagan poloskalar, karton varag'i perimetrlari bo'ylab hoshiya qilib yopishtiriladi. Agarda planshetga qog'oz yopishtiriladigan bo'lsa, milk 5–7 mm uzunlikda qog'oz tagiga kirishi kerak. U taxtakachlab qo'yiladi.

Orqa devoriga halqali tasma yelimanadi. Ba'zan planshetga ko'p miqdorda ma'lumot nomasi materiallarini joylashtirishga to'g'ri keladi. Ana shunday hollar uchun yig'iladigan planshet tayyorlash mumkin. Buning uchun illyustratsiyalar o'lchami bukilishlar soniga qarab planshet qismlarining o'lchami aniqlanadi. Kartondan detallar qirqiladi. Sharnir va hoshiya uchun gazlama kesmalaridan foydalaniлади, ularning eni kartonning qalinligi va hoshiya kengligiga ko'ra aniqlanadi. Sharnirlar uchun gazlama ikki razmerda qirqiladi. Tutashish joylari sonini kamaytirish uchun ularning ba'zilarining planshetini uzunligiga teng qilib qirqiladi. Hoshiyaga mo'ljallangan gazlama kesmasining uzunligi planshet perimetriga teng. Stolga planshet asosining karton qismlarini bir-biridan kartonning ikkilangan qalinligi teng oraliqda qo'yilib, avval qisqa (ko'ndalang), so'ngra uzun poloskalar bilan biriktiriladi. Planshetning orqa tomonini yuqoriga qilib aylantirib, uni yana gazlama kesmalarini bilan mustahkamlanadi, tekislanadi. Shundan keyin milkular hoshiyalanib, gazlamaga osishga mo'ljallangan halqalar biriktiriladi. Planshetning teskari tomoni, har bir detalning ikkala tomoniga rangli yoki oq qog'oz yopishtiriladi. Old tomondan tayyorlab qo'yilgan chizma va instruksion karta yoki boshqa materialli ko'rgazma qog'ozlar yelimanadi. Ko'rgazma shirmalari ham shu usulda tayyorlanadi. Kartondan shirmaning bir necha (5–8) bir xil o'lchamdag'i to'g'ri burchakli tabaqalari qirqiladi. Liderin gazlamadan har bir tabaqaga bittadan kesma qirqiladi. Kesmaning uzunligi tabaqaning balandligiga teng, eni taxminan 25–30 mm bo'ladi. Bu kesmalar bilan tabaqalar shirmaga birlashtiriladi. Kesmalarga yelim surtib, ikki qo'shni bo'lgan tabaqa oralig'ida

kartonning ikkilangan qalnligiga teng bo'lgan oraliq qoldirib(aks holda shirmani yig'ib bo'lmaydi), yelimlanadi. Shirmaning qolgan tabaqalari ham mana shunday biriktiriladi, uning uzun tabaqalari ikkita kesma bilan yelimlanadi. Buning uchun kesmani uzunasiga buklab, uchlari burchak qilib qirqladi. Shirmaning tabaqalariga ikkala tomondan oq yoki rangli qog'oz yopishtiriladi. Elimlanadigan qog'oz shunday qo'yildiki, tabaqalarning chetlarida tor yelimlanmagan hoshiyalar qolishi kerak. Buning uchun tabaqalarga yelimlanadigan qog'oz o'lchamiga ko'ra tabaqalar o'lchamidan 5–6 mm kichikroq bo'llishi kerak. Shirma ikki taxta orasiga qo'yib quritiladi.

Fotosuratlar, reproduksiyalar, rasmlar va shu kabilarni jihozlashda oyna qo'yilagan paspartulardan foydalaniladi. Oyna tagiga qo'yiladigan karton va ramka uchun qog'oz bir xil o'lchamda qirqladi. Paspartuning hoshiyasi liderin granitol, dermantin, qalin gazlamadan qilinib, «BF – 2» yelimi bilan oyna va tagiga qo'yiladigan kartonning orqa tomoniga yelimlanadi.

Oyna ostida hoshiyalash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: qalin karton olinadi, uning o'lchamiga oyna tagiga qo'yiladigan ish o'lchamiga bog'liq. Kartonda ikkita teshik qilinib, chiziqcha o'tkaziladi va ochib qo'yish uchun halqa tugiladi. So'ngra karton o'lchamidan 5 mm kichikreq qalin qog'oz olinadi. Qog'ozga rasm, panno ko'rgazma materiali yelimlanib, kartonga qo'yiladi va uning usti karton o'lchamiga muvosiq bo'lgan oyna bilan berkitiladi. Kolinkor (gazlama) kesmasiga «BF – 2», silinodekstron yoki duradgorlik yelimi surtiladi. Tayyorlangan oyna panno va kartonning stol chekkasiga qo'yib, chetiga (5–6 mm) yelim surtiladi va oynaga yopishtiriladi. Kolinkor ustidan barmoq yoki maxsus tekislagichni ohista bosib yurgiziladi. Oynaning qarama-qarshi tomoniga ham kolinkor xuddi shunday yopishtiriladi, kolinkorning qolgan qismi orqa tomonagini kartonga yelimlanadi. Oynaning uchinchi va to'rtinchini chetlarini hoshiyalashdan oldin kesmalarning uchi burchak qilib qirqladi, so'ngra avvalgilaridek yopishtiriladi. Agarda eksponat bo'rtib chiqqan bo'lsa, karton hamda oyna o'rtasiga eksponat qalnligida teng karton kesmalar qo'yiladi, keyin kesmalar bilan yelimlanadi. Kesmalar oraga qo'yiladigan karton qalnligidan kengroq bo'ladi. Kolleksiyalarni bezashning eng oddiy usuli sellofan bilan bezak berishdir. Eksponat iplar bilan qog'oz taglikka tiqiladi, uning tagiga esa shu o'lchamdagini karton qo'yiladi. Eksponat ustiga kartonning o'lchamidan uzunasiga ham, eniga ham 20–30 mm

kattaroq bo'lgan sellofan qo'yiladi. Sellofanning chetlarini bükib kartonga yelimlanadi.

Agar eksponat bo'rtib chiqqan bo'lsa, kartonni bir oz egish va sellofan egilganlik shaklini olguncha tortib turish kerak. Bukilish bo'rtib chiqqan eksponatdan ko'proq bo'ladi.

**Qirqilmagan oynani hoshiyalash.** Oyna parchalarining shakli har xil. Uchburchak shaklini olamiz. Uni hoshiyalash uchun uchta teng o'lchamdag'i karton bo'lagi olinadi. 2-kartonda oyna shakliga muvofiq tuynuk, 3-kartonda esa uchburchak shaklidagi tuynuk qirqlidi. 1-karton ustiga 2-karton qo'yiladi, so'ngra tuynukka eksponatni joylashtirib, uning ustiga oyna qoplanadi va nihoyat 3-karton qo'yilib, odatdagidek hoshiyalanadi.


**Yassi buyumlarni hoshiyalash.** Qog'oz va karton orqali bajariladigan rasmli ko'rgazmalarini hoshiyalash. Maktabgacha ta'lim muassasalarida guruh xonalarini, musiqa, sport xonalarini jihozlash uchun hoshiyalash orqali tayyorlangan ko'rgazmalar bilan bezatish mumkin. Har bir yasalgan ish chiroqli, talabga javob beruvchi, insonni o'ziga jalb qiluvchi bo'lishi lozim. Yasalgan har bir ishni hoshiyalash, uni o'z o'rnidagi ishlata olishga harakat qilish tarbiyachi oldida turgan asosiy vazifadir.

Hoshiya tayyorlash uchun kerakli ish qurollari: rangli qog'oz, baxmal qog'oz yoki zar qog'oz, «PVA» yelimi, leykoplastir, oyna izolentalari, karton qog'oz kerak bo'ladi. Hoshiyalashning 3 turi mavjud. Bular:

1. To'rburchaksimon hoshiyalash.
2. Yaxlit hoshiyalash.
3. Uchburchaksimon hoshiyalash.

Hoshiyalashda ish quyidagicha bajariladi. Buning uchun I sm qalinlikdagi kesma ya'ni tasmacha qirqib olinadi. Yana ikki buklab yoniga, so'ngra tepa-pastki qismiga yopishtiriladi. Bunday hoshiyalash to'rburchaksimon hoshiyalashdir. Uchburchaksimon hoshiyalashda uchta tomoniga tasmachalar yopishtiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi katta stendlarni yaxlit hoshiyalashda katta hajmli karton ustini qog'oz bilan to'liq o'raladi. Qog'ozning hajmi I sm ortiqcha bo'lishi kerak, so'ngra ilgak yasaladi. Ilgak bilan kanopli, qalin to'qish ipidan, sun'iy ipdan foydalanish mumkin. Hoshiyalashda biz faqat osish uchun emas, balki tirgovuchli ushlagichlardan foydalanishimiz ham mumkin.



**Qog'oz va kartondan tayyorlangan materiallarni ta'mirlash.** Maktabgacha ta'lim muassasalarida qog'oz va kartondan yasalgan qo'llanma, kitob, ko'rgazma niqoblar, tarqatma materiallar oddiy usulda ta'mirlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini adabiyotlardan keng foydalanadilar. Bu adabiyotlardan foydalanish jarayonida yillar davomida kitob, qo'llanmalar yaroqsiz holatga kelishi mumkin. Albatta, bolajonlarimizning eng sevimli kitoblarini ko'z qorachig' iday avaylab-asrash tarbiyachilar va ustozlar oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Yaroqsiz holga kelgan qo'llanmalar, kitob, ko'rgazma, tarqatma materiallarini oddiy usulda ta'mirlash mumkin.

Ta'mirlash uchun kerak bo'ladijan jihozlar: karton qog'oz, doka, «PVA» yelimi, qaychi, bigiz va 10-raqamli oq ip, vatman yoki oq qalin qog'ozlar.

Ta'mirlashni bajarish: barcha yirtilgan, yaroqsiz holga kelgan kitoblar oldindan ajratib olinadi. So'ngra ularning qaysi tomoni yaroqsiz ekanligi aniqlanadi. Agar kitobning ichidagi bo'lagi muqovadan ajralib ketgan bo'lsa, unga dokani ikki qavat qilib 1,5–2 sm oralig'ida tasmacha shaklida qirqilgandan keyin uni kitob muqovasiga «PVA» yelimi bilan biriktirib muqovaga yopishtiriladi. Ichki varaqning o'ng tomon usti va chap tomon tag qismiga oq qalin albom varag'i tasmacha qilib, kesib yopishtiriladi va kitobni og'ir narsa tagiga bostirib qo'yiladi. 2–3 soatdan so'ng kitobdan foydalanish mumkin bo'ladi.

**Hoshiyalashni o'rgatish bo'yicha uslubiy maslahatlar.** Ta'alabalarga karton chetiga flyuzerin kesmalarini, qog'ozni kartonga yelimlashning asosiy bosqichlaridan birini mustaqil bajarishni o'rgatish lozim. Qog'ozning chetlari avval bir, keyin ikkinchi yo'nalishda namylanadi. Qog'oz bo'kadi, bir cheti egri-bugri bo'lib qoladi, ikkinchi uchi dumaloq bo'lib o'raladi. Qog'oz tez bo'k-maydi, qanchalik qalin bo'lsa, shunchalik sekin bo'kadi.

Agar yelim surtilgan qog'oz darhol kartonga yopishtirilsa, qog'oz bo'kishda davom etib, u egri-bugri, notekis bo'lib quriydi. Kartonga qog'oz yopishtirishdagi birinchi qoida qog'ozga yelimni surtib, unga yelimni shimishi uchun ozgina kutish, ana shundan keyin uni kartonning ustiga qo'yish va o'rtaidan chetlari tomon ohista silab yopishtirish kerak. Shunda qog'oz tekislanib, tagidagi havo chiqib ketadi. Qog'oz yopishtirganda karton buralib ketmasligi uchun qog'ozni kartonning har ikkala tomoniga yopishtirish kerak hamda taxtakachlab quritish lozim. Berilgan o'lchamlar bo'yicha chizg'ich va burchak bilan dastlabki ishlarni bajarishda avval to'g'ri burchaklar chiziladi (karton, kartonga yopishtirish uchun qog'oz, hoshiyalash uchun kесmalar). Bunday ish uchun chizma-o'lchov asboblari, qaychi, yelim, mo'yqalam, taglik uchun qog'oz, ikkita fanera yoki qalin qog'ozdan qilingan planshet shpagat, taxtakachni aylantirish uchun tayoqchalar kerak bo'ladi.

Materiallar: karton, qog'oz, gazlama (yopishtirish va hoshiya uchun) quritilgan barglar, gullar yoki rangli qog'ozdan shablon bo'yicha qirqilgan gullar.

Buyumlar namunalari ko'rib chiqilib, o'lchamlar, kerakli materiallar, aniqlangan ish tartibi tuziladi va quyidagi holatda ish boshlanadi:

- ish karton kvadratlarni tayyorlashdan boshlanadi;
- kartonni hoshiyalash uchun qog'oz yoki gazlamani hisoblab tayyorlanadi, uning o'lchamlari, karton kvadrat tomonlarining uzunligi, eni aniqlanishi kerak;
- kartonga yopishtirish uchun rangli qog'ozni chizib tayyorlanadi. Uning o'lchami karton o'lchamidan 5–6 mm kichikroq bo'lishi kerakligini unutmaslik kerak;

- kartonni hoshiyalash;
- qog'ozni yopishtirish;
- barg, gul va shu kabilar tasviri yelimланади;
- taxtakach tagiga qo'yiladi.


Ish ko'pchilik bo'lib bajarilishi mumkin.

## QOG'oz VA BOSHQA MATERIALLARDAN ESDALIK SOVG'ALARINI TAYYORLASH

Bolalar qo'li bilan yasaladigan har qanday o'yinchoq esdalik sovg'asiga aylanishi mumkin. Buning uchun kerakli materiallar tayyorlasa bo'ladi. Masalan: qog'ozdan tabriknomha, taklifnorma, gilamcha kabi narsalarni, gazlamadan kashta tikish, savatcha tayyorlash, igna tutgich tikish, charmdan xaltachalar yasash, ko'zoynak uchun g'ilof tikish, bo'sh qutilardan chiroyli sandiqchalar yasash mumkin. Bunda qo'l ostimizda barcha ish qurollari bo'lishi lozim. Yasalgan o'yinchoq sovg'alarni chiroyli qilib bezatish talab etiladi.

**Zar qog'ozdan to'qilgan savatchani yasash.** Savatchani yasash uchun kerakli ish qurollari: zar qog'ozlar, konfet qog'ozlari, chizg'ich, qaychi, flomaster, karton qog'oz, igna, yupqa ipga o'xshash sim.

**Bajarish usuli.** 1-bosqichda 1 metr yaltiroq qog'oz olib, uni enidan bo'yiga qarab 10 sm oralig'ida qirqib olinadi, so'ngra undan eni 3 sm li bo'laklar qirqib olinadi.



2-bosqich. Qirqib olingan eni 3 sm li zar qog'ozning ikki cheti buklab olinadi, orasiga uzunligi 10 sm, eni 1 sm karton qog'oz qo'yib zar qog'oz bilan o'rab olinadi.

3-bosqich. Buklab olingan karton va zar qog'ozning ikki tomoni 4 marotaba o'rtaqa qarab teng miqdorda buklanishi lozim.



Shunday tasmacha hosil bo'ladi:



4-bosqich. Shunday tasmachalardan 50–100 ta, hattoki yasaladigan buyumingizga qarab 500 tagacha yasab olinadi.


5-bosqich. 1-bo'lak tasmacha gorizontal holatda 2-si unga vertikal holatda kiydiriladi u quyidagi ko'rinishga ega bo'lad:




Shu tariqa 4–5 qator to'qib olingach, savatcha hosil qilish uchun yumshoq qizil simni ninaga o'tkazib, tasmachalarni bir-biriga ulab chiqiladi va cheti ham bir-biriga kirgizib ulanadi.


6-bosqich. Tayyor namunani taqdim etsak bo'ladi.

7-bosqich. Savatchaning tag qismini karton qog'oz bilan dumaloq yoki to'rtburchak shaklda kesib, ich tomoniga zar qog'oz yopishtiriladi, chetlari bigiz yordamida teshib olinadi va yumshoq sim orqali tikib chiqib ulanadi.



8-bosqich. Savatchaning bandi, ya'ni to'qilgan tasmacha o'rnatiladi.





**Qog'ozdan archa o'yinchoqlarini yasash.** Talabalar Yangi yil bayrami haqidagi ko'pgina ertaklar, multfilmlar, she'rlar, hikoyalarni yaxshi bilishadi. Bu bayramda archani chiroyli bezash va Qorbobo, Qorqiz mehmon bo'lib kelishi bolalarni quvontiradi. Archani chiroyli bezatishda bolalarning o'zлari archa bezaklari va o'yinchoqlarini yasay bilishlari kerak. Qog'ozdan qor parchalari, girlyandalar, osma o'yinchoqlar, yelimsiz archa o'yinchoqlari, chiroqlar yasaladi.


Bu o'yinchoqlarni yasash uchun quyidagi: rangli qog'oz, yelim qaychi, har xil pechenye, konfetlarning zar qog'ozlari, turli xil gul qog'ozlar, kalka ishlatiladi. Qor parchalarni yasash uchun zar yoki oq qog'ozdan kvadrat hosil qilib olamiz va uni 6–8 qirrali qilib buklab chiqamiz.

Hosil bo'lgan uchburchak shaklga naqsh elementini chizib, qirqib chiqiladi. So'ngra qog'ozni ochib, tekis holatga keltiriladi. Qor parchasi tayyor bo'ldi. Zanjirlarni tayyorlash uchun 5–6 xil rangli qog'ozdan ingichka tasmalar qirqiladi. Qalinligi 2 sm, uzunligi esa 8 sm qilib olinadi va ular ketma-ket bir-birining orasidan o'tkazib yelimlanadi. Zanjirning ikkinchi ko'rinishi yelimsiz bajariladi.

Bunda qog'oz hajmi kattaroq olinadi va undan har xil shakllar qirqiladi. Bir-biriga kiygizib chiqiladi. Osma o'yinchoqlar yasash

uchun har xil chiroqli o'yinchoqlar tanlanadi va ularning shakli qog'ozga tushiriladi. Shakllar qirqib olinadi va yelimlashdan oldin ular orasidan ip yoki sim o'tkaziladi, shu tariqa chiroq va girlyandalar yasaladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida archa o'yinchoqlari va bezaklarini tayyorlashda rangli qog'oz, zar qog'ozlar, tashlandiq xomashyo ya'ni tuxum po'choqlaridan foydalanish mumkin. Quyida rangli qog'ozdan archa bezaklari, qor parchalarini yasash usullari va namunalar berilgan.



Tuxum po'chog'idan archa o'yinchoqlarini yasash uchun ichi bo'shatilgan tuxum po'chog'i, bigiz, sim, rangli qog'ozlar, zar qog'ozlar, rangsiz lak kerak bo'ladi.

Bajarish usuli: tuxumni asta-sekinlik bilan bigiz yordamida ikki tarafidan teshib, bir teshigidan puflab, ichidagi suyuqlik chiqarib olinadi. Keyin tozalab yuvib quritiladi. So'ngra unga rangli qog'ozdan yoki akvarel bo'yog'ida ishlov beriladi. Yasab bo'lgandan so'ng teshik tomoniga tayyor archa simchalari o'rnatiladi va PF № 283 lak yordamida lakanadi. O'yinchoqlar osib quritiladi. Quyida tuxum po'chog'idan yasalgan o'yinchoqlardan namunalar berilgan.



---

## **APPLIKATSIYA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА. APPLIKATSIYADA QIRQISHNING HAR XIL USULLARINI BAJARISH**

Applikatsiya xalq amaliy san'atida keng o'rin tutadi. Applikatsiya so'zining ma'nosи, qirqib olib yopishtirish demakdir. Bu usulda qog'oz, mato, charm, somon, quritilgan o'simliklar, urug'lar, tashlandiq narsalar, simlar, iplardan foydalanib har xil ishlarni bajarish mumkin.

Applikatsiya – badiiy asarlar yaratishning eng sodda va oson usulidir, bunda tasvirning asosi saqlanadi. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, sovg'alar, devoriy gazetalar, stendlar, ko'rgazmalar va kostyumlarni tayyorlashgina emas, balki kartina, panno, naqshlar va shu kabilarni yaratishda ham keng foydalanish mumkin. Applikatsiya bundan 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlarda paydo bo'lgan. Applikatsiya bilan kiyimbosh, turarjoyer bezatilgan. Bu ishda ular teri-mo'yna, namatdan foydalanishgan. Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yoqtular applikatsiya ishida po'stloqdan foydalanishgan, bo'yalgan po'stloqdan qilingan applikatsiyalar bilan ular o'tovlarini bezashgan. Xanti-mansi, evenk va boshqa shimol xalqlari applikatsiyada teri, sukno, mo'yna ishlatishgan. Qozoq, qalmoq, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro'zg'or predmetlarini bezashda foydalanishgan. Gazlamadan applikatsiya materiali sifatida ancha keyinroq foydalanila boshlandi. Gazlama parchalarini fon xizmatini o'tovchi materialga tikib naqsh yaratilgan. Gazlamadan yasalgan applikatsiya bilan kiyim-bosh, uy-ro'zg'or predmetlari bezatilgan.

Hozirgi kunda applikatsiya har bir xalq san'atida juda keng tarqalgandir. Applikatsiyaning eng yosh turi flaristikadir. 1960-yilda dunyoda birinchi flaris rassomlar jamiyatni tashkil etildi. Applikatsiya bilan shug'ullanish bolalar dunyoqarashini uyg'un rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Applikatsiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik,

diqqat va tasavvurni faollashtiradi. irodani tarbiyalaydi, qo'l mehnati, shaklni his qilish, chamlash va rangni sezish qobiliyatini o'stiradi. Rangli qog'oz yoki boshqa materialdan kompozitsiyalar ustidagi ish badiy didni avj oldiradi. Applikatsiya ishida asosiy material qog'ozdir, dazmollangan va kraxmallangan gazlama bo'laklaridan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda somon, quritilgan o'simlik, urug', danak va shu kabilar ham asqotadi. Qog'oz ishlab chiqarish sanoati qog'ozning rangi va xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi 250 navini ishlab chiqaradi. Tolalarning ko'ndalang yo'nalishi bo'yicha qirqligan qog'oz yopishtirilganda izlar qoldiradi, uzunasiga qirqliganda bir tekis yaxshi yotadi. Ishlaganda qog'ozning bu xususiyatini e'tibordan qochirmaslik kerak.

Kleyster surilganda qog'oz uni shimishini, qog'oz tolalarining ko'ndalangiga uzunligidan ko'proq kengayishini ham unutmaslik kerak. Agarda qog'oz kleyster surilgan zahotiyoy qelimlansa, davom etayotgan shimish va kengayish jarayonida qog'ozda g'ijimlar, izlar paydo bo'ladi. Shuning uchun kleysterda surilgan qog'oz bir oz vaqt yopishtirilmay turishi kerak. Qog'ozning yaltiraydigan marmar, bosma gul tushirilgan, baxmal, kumush-bronza rasm solish va chizmachilik navlari applikatsiya uchun yaroqlidir.




Applikatsiya qilish usuli bilan guruh xonalari, mehmonxona, oshxonalar, bolalar ayyvonchalari bezatiladi. Bo'lalar bog'chasida kichik guruhdan boshlab applikatsiya mashhg'ulotlari olib boriladi. Kichik guruxdan tayyor qirqligan shakl beriladi. O'rta guruhdan, boshlab bolalarga qaychi beriladi va ishlash mustaqil olib boriladi. Applikatsiyada qog'oz asosiy rolni bajaradi. Applikatsiya ishini bajarishda har xil yelim ishlatilavermaydi. Yelimni uy sharoitida arzon va oson usulda tayyorlash mumkin. Bu yelim kleyst deb ataladi. U kraxmaldan quyidagicha tayyorlanadi: bir choy qoshiq kraxmal 5 choy qoshiq sovuq suvda aralashtirilib olinadi, so'ng yarim stakan suv solib past olovda qaynaguncha kovlab turiladi, qaynashga yaqin olovdan olinadi va sovitiladi, so'ngra ishlatiladi. Applikatsiya ishini bajarish uchun tayyorgarlik ko'rish lozim. Bu quyidagicha bajariladi: syujet tanlash; xomaki chizma; rangli qog'ozlarni tayyorlash; fon tanlash.


Applikatsiya ishining ish qurollari: qaychi, yelim, kalka, pichoqcha, chizg'ich, o'chirg'ich, qora qalam, mo'yqalam, kopirovka, flomasterlardan iborat. Applikatsiya ishlari oddiydan tortib mazmunli, kantli, dekorativ, qo'lida yirtish orqali mozaika usulida

tabiat materiallaridan (barg, urug', danak, piyoz po'sti, shisha siniqlari tashlandiq simlar va iplar) ham bajariladi. Applikatsiya qilishda oddiy va murakkab qirqish usulidan foydaniladi. **Oddiy qirqish usuli** bilan yaxlit shakl hosil qilinadi va qirqilgan shakl quyidagicha teng va tekis qirqiladi:





Qog'ozni 5–6 qavat qilib buklab turib qirqishga **murakkab** **qirqish** usuli deyiladi. Bu usulda qirqishda 1 ta shakl 5–6 martaga ko'payib chiqadi. Quyida bir necha murakkab qirqish usullarini keltiramiz:






Quyidagi rasmlarda bir necha buklab qirqish usuli ko'rsatilgan:




Applikatsiya qilishda asosiy e'tibor uning umumiyligi kompozitsiyasiga qaratilishi kerak. Yaxshi o'ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish — applikatsiya muvaffaqiyatining garovidir. Eng oddiy applikatsiya bu geometrik shakllardan qilinadigan naqshli applikatsiyadir. Avval naqshning xomaki nusxasi tuziladi, so'ngra kerakli detallar (geometrik shakllar) o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detallar tayyorlanib ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl kvadratni olib, uning bir tekis almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko'ramiz. Agarda kvadrat boshqa elementlar, masalan, uchburchak bilan to'ldirilsa, variant yanada ko'payadi. Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o'qini o'tkazish va naqsh elementlarini shunga ko'ra joylashtirish lozim. Agarda geometrik shakllar kvadrat yoki aylanaga simmetrik joylashtirilsa, qiziqarli dekorativ naqsh hosil bo'ladi.


**Dekorativ applikatsiya** — bu naqsh gullardan iborat bo'ladi u alohida-alohida tasvirlardan (barg, shox, qo'ziqorin, qush, mashina, odam, uy va shu kabilar) tarkib topuvchi predmetli hodisa, harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo'lishi mumkin.





Quyida o'zbek, qozoq, tojik xalqlarining naqsh namunalari berilgan:



Quyidagi rasmlarda kantli dekorativ applikatsiya ishi berilgan:





**Geometrik shaklli applikatsiyalar.** Bajarilish texnologiyasiga ko'ra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikatsiyalardir. Geometrik shakllar talabalarning kvadrat, to'g'ri burchak, uchburchak, aylana qog'oz bo'lagi va o'lchov asboblari haqidagi mavjud bilimlarini mustahkamlaydi. Ular badiiy didini o'stiradi, doira, kvadratda naqshlar tuzish bo'yicha olingan bilimlarini chuqurlashtiradi. O'quvchilar ayrim predmetlarni detalma-detall tahlil qilib, geometrik shakllarni to'g'ri idrok etishni o'rGANADILAR. Masalan, archa bir-biriga kiygizilgan uchburchakka o'xshaydi yoki yuk mashinasi turli o'lchamdagи to'g'ri burchakkardan, g'ildiragi aylanadan tashkil topganligini idrok etadilar. Bolalarda «Ko'p-kam», «Uzunasiga», «Ko'ndalangiga», «Ikki qismga qirqish», «Teng qismlarga» kabi tushunchalar mustahkamlanadi. Bolalar ranglar uyg'unligini to'g'ri tanlashni o'rGANADILAR. Ularda estetik did tarbiyalanadi.

Geometrik shaklli applikatsiyalarni ham naqshli, predmetli, syujetli applikatsiyalarga ajratish mumkin.



**Doira, kvadrat va ovaldan naqshlar yasash.** Naqsh detallari: turli o'lchamdagи kvadrat, uchburchaklar tayyorlanadi. Kvadratda naqsh diagonal bo'yicha tuziladi, bunda shakllarni simmetrik joylashtirish qulay.

**Geometrik shakllardan predmetli applikatsiya.** Bolalarning predmetlarni fazoviy idrok etishi rivojlanishi kerak. Bizni o'rburgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.


Ko'p rangli applikatsiyalarni qirqish anchagina murakkab ish bo'lib, bu tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdag'i applikatsiyani bajarishda fonni tanlash muhimdir. Fon ifodaladanigan predmet xuddi bo'rtib turgandek, yorqin ko'rindi. Hammasi o'yangan kompozitsiyaga bog'liq. Fonda joylashadigan detallar rangi ham shunday tanlanlanadi. Bunda detallarning tabiiy joylashishi va ular o'lchamlarining uyg'unligiga e'tibor berishi kerak. Bu ishlarni bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallarning tarhlari oldindan belgilamay qirqiladi; ayrim detallar esa belgilangan natura-qoralamalar bo'yicha qirqiladi.

Applikatsiyalarning ifodaliligi va jonliligiga erishishning usullari ko'p. Ayrim detallarning tag qismida kesiklar qilinib yelimlashda boshqa qog'oz qo'yiladi.

**Mazmunli applikatsiya.** Bu applikatsiya kompozitsiyaga ko'ra oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Murakkab mazmunli applikatsiya ertaklar, hikoyalar va shu kabilarga illyustrasiya sifatida yasaladi. Agarda syujet oddiy bo'lsa, tasvirlarni oldindan belgilamay qirqish mumkin. Bu applikatsiyada ma'lum bir mazmunni ifodalasa bo'ladi. Bu badiiy asar uchun ilyustrasiya bo'lishi mumkin. Applikatsiyada manzara va narsalarning hajmini, rangini, soya va yorug'lik tushayotgan tomonini munosib rang berib ko'rsatish mumkin.



Quyida turli fasllar ko'rinishi ishlangan mazmunli applikatsiya ishi berilgan:





**Badiiy applikatsiya.** Bu aplikatsiyada mazmunli ishlarni yaratish faqat mehnatni emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Applikatsiyaga qaratilgan kompozitsiya va elementlar miqdoriga qarab qog'oz tanlanadi. Kompozitsiya ustida ishla-ganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallар, ularning o'lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi.

Applikatsiyada mozaika usulidan foydalanib predmetli, mazmunli, dekorativ applikatsiya ishlarini bajarish mumkin. Mozaikani qaychida yoki qo'lida qirqish usulidan foydalanib bajariladi. Yondagi rasmda «Tovuq» ko'rinishini qo'lida qirqish usuli orqali mazmunli mozaika ishi bajarilgan:

### GAZLAMA VA QOG'ODZAN GULLAR YASASH TEXNOLOGIYASI

Har bir bayramda sovg'a sifatida barcha ayollarga gul sovg'a qilinadi. Ayol kishi gullarning xushbo'yligi, yoqimli ranglari, hidlarini sevadilar. Gullar tabiiy va sun'iy gullarga ajratiladi.

**Tabiiy gullar** kishidan mehnatni, parvarishni talab qiladi.

**Sun'iy gullarni** esa mato va yumshoq eguluvchan simlardan, plastmassalardan yasash mumkin. Gazlamadan gullar yasash uchun kerakli jihozlar asosan quyidagilar: qaychi, rangli iplar, rangli atlas, chit, shoyi matolar, har xil hajmli lentalar, gullarni bezash uchun yaltiroq pistonchalar, munchoqlar, tugmachalar, igna-ip, dazmol, kraxmal, yumshoq simlar.

Qog'ozdan yasaladigan gullar uchun kerakli jihozlar: qaychi, qog'oz turlari (konfet, gafrili qog'oz, zar qog'oz, rangli qog'oz, yumshoq falga qog'ozi, g'ijim krep qog'oz), PVA yelimi, sim, karton, qora qalam.

**Bajarish usuli.** Gazlama orqali bajariladigan gullarni yasashda atlas mato oldindan kraxmallab olinadi. Bir litr suvgaga bir qoshiq kraxmal aralashtiriladi, unga matoni solib qaynatiladi. So'ngra mato suvi selgib quritiladi va dazmollanadi. Matoni 4, 6, 9, 12 marta buklash orqali xohlagan gulning andozasini karton qog'ozdan tayyorlab bichiladi. Bichilgan gul parchalari bir-biriga biriktirilib simga o'raladi. Ustidan lentachalar o'raladi. Unga munchoqlar bilan bezak berish mumkin.

**Qog'ozdan gul yasashni bajarish usuli.** Qog'ozni ham 4, 6, 9, 12, 16 buklash orqali gul shakkllari qirqib olinadi. Moychechak, gulsafsa, atirgul, xrizantema gullari ko'rinishini tasvirlash mumkin. Ular kesib olingach, yumshoq simga o'raladi va sim bilan mustah-kamlanadi, barglari ham alohida qirqilib, PVA yelimi bilan yopish-tiriladi. Bajarishda ehtiyotkorlik, sabr, did-farosat talab qilinadi.

Gullarni qog'ozni buklash orqali ham bajarish mumkin.

### **Gazlama va qog'ozdan gul yasash mashg'uloti namunalari. «Nastarin» gulini yasash**

**Mashg'ulotning vazifasi:** bolalarga qog'ozni bir necha bor buklab qirqish asosida gul barglarini qirqish va uni novdaga yelimlab, chiroyli gullagan nastarin gulini yasashni o'rgatish.

**Mashg'ulotga tayyorgarlik.** Bolalar bilan hovli yoki ko'chadagi nastarin daraxtini gullagan vaqtida kuzatish. Nastarin gulining tuzilishi, rangiga, novdada joylashishiga bolalarning e'tiborlarini jalb qilish.

**Mashg'ulotni jihozlash.** Bolalarga yetarli miqdorda novdachalar, binafsha rangdagi g'ijim qog'oz, PVA yelimi, yelimlash uchun mo'yqalam berish.

#### **Mashg'ulotning borishi:**

Tarbiyachi. Bolajonlar, mana o'l kamizga go'zal bahor fasli kirib keldi. Bahor faslida tabiatda juda katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Daraxtlar kurtak chiqarib, barg yoza boshlaydi. Bahor faslida o'l kamiz ko'm-ko'k maysalarga va gullarga burkanadi. Bolalar, mana bu gulning nomi nima va uni qayerda ko'rgansiz? To'g'ri, mening qo'limdagagi gulning nomi nastarin guli. Bu gul har

yili ilk bahorda gullaydi. Uning gullariga qarang, oq va to'q binafsha rangli bo'ladi. Barglari esa yashil rangda. Bu haqda hatto shoirlar she'r ham bitganlar, eshitib ko'ring:

*Bog'imda nastarin bor,  
Gullaydi har ilk bahor.  
Nastarin gul mayda  
Bunday gul bordir qayda?*

She'r yoqdimi, bolalar? Bugun sizlar bilan nastarin gulini yasashni o'rganamiz. Buning uchun stol ustidagi ashyolardan foydalanamiz. Binafsha rangdagi g'ijim qog'ozdan kvadrat shakllar kesib olamiz, so'ng uni ikkiga va to'rtga buklab, kichik kvadratcha shaklini hosil qilamiz. Kvadratning bir uchini ushlab, ochiq uchlarini qaychi bilan doira ko'rinishida qirqib olamiz. Buklangan qog'ozni ochib, o'tasiga barmog'imizni qo'yib, gul barglarining chetini qirqamiz, keyin orqasiga mo'yqalamda ozgina yelim surtib, novdaga yopishtiramiz.

Gullarni yelimalsh jarayonida tarbiyachi bolalarning e'tiborini nastarin guliga qaratmog'i lozim. Bunda ularga ishni ozoda, tartib bilan, qaychi va novdadan ehtiyojkorlik bilan foydalanib, bajarish o'rgatiladi. Mashg'ulot davomida bolalarning ishlari baholanib, rag'batlantirilib boriladi. Har bir stolga bolalarning o'zlari yasagan guldonlar qo'yiladi va tayyor bo'lgan gullar unga solib qo'yiladi.

### **Mashg'ulotni yakunlash:**

– Bolalar, qaranglar, siz yasagan gullar qanday chiroyli, xonamizni bezatyapti.

Bolalar o'zlari yasagan nastarin gullarni ko'rib, qilgan ishlaridan zavq olishga yo'naltiriladi.

## «Atirgul» gulini yasash

**Mashg'ulot vazifalari:** bolalarga to'rtburchak shaklidagi qog'ozni ikki buklash, oval shaklida qirqish, gul yaprog'ini qirqib olish, ishni ozodalik bilan bajarish, boshlagan ishni oxiriga yetkazish o'rgatiladi.

**Mashg'ulotga tayyorgarlik.** Bolalar bilan tabiat qo'yinda atirgulning o'sishini kuzatish, uning turlari haqida so'zlab berish. Atirgulning tuzilishiga bolalar diqqatini jalb qilish.

**Mashg'ulotni jihozlash:** mashg'ulot uchun bolalarga yetadigan miqdorda g'ijim qog'oz, yelim, qaychi, sim, ozgina paxta beriladi.

## Mashg'ulotning borishi

**Tarbiyachi.** Bolalar, sizlar bilan bugungi mashg'ulotimizda kuzatgan atirgullarni yasashni o'rganamiz. Kerakli ashyolar oldingizga qo'yilgan. Sizga atirgulni qanday yasash kerakligini tushuntirib beraman. Diqqat bilan qarab turing, keyin birgalikda yasaymiz. G'ijim qog'ozdan 6 ta to'rtburchak shakl qirqib olinadi. Uni ikkiga buklab, yuqori qismining burchaklari aylana holda qirqib olinadi. Shu tariqa to'rtburchak shakl oval shakliga keltiriladi. Har bir qog'ozning dumaloq tomonini qalamga o'rav, ochib yuboramiz.

Natijada qog'ozning chetlari qayrilib qoladi. Har bir qog'ozni qalamga o'rav, chetini qayirib chiqamiz. So'ng, o'rtasidan (bunda qayrilgan tomon yuqorida bo'ladi) barmoqlarimiz bilan chap va o'ng tomonga sindirib, tortsak, g'ijim qog'oz tekislanadi va atirgulning gultojibargi hosil bo'ladi. Qolganlariga ham xuddi shunday ishlov beriladi. Navbatdagi ishda qo'limizga ueunligi 25–30 sm bo'lgan yo'g'on simni olamiz. Sim uchiga sariq rangdagi g'ijim qog'oz yoki sariq bo'yoqqa botirilgan paxtani o'rnatamiz. Uning atrofiga cheti qayrilgan va pastki qismi bir tutam qilib yig'ilgan gul yaproqlarini birin-ketin joylashtirib, uni ip bilan mahkamlab qo'yamiz. Yashil rangdagi qog'ozdan eni 1 sm li kesmalar qirqib, gulning gul osti yaprog'ini o'rnatgandan so'ng, simga yashil rangdagi qog'ozni o'rav chiqamiz. Gul osti yaprog'i bir necha marotaba buklangan yashil rangdagi qog'ozdan qirqib olinadi. Atirgul bargi ham alohida tayyorlanadi. Gul bandiga sim o'ralayotganida gul bargi bandiga qo'shib, o'rav yuboriladi. Gul bargi ikki buklangan qog'ozdan qirqib tayyorlanadi. Barg chetlari kungurali bo'ladi, har bir gul bargini tabiiy bargga o'xshatib, orasiga ingichka sim qo'shib yelimlab, tayyorlab olamiz.

Bolalarga gulning yasalishini tushuntirib bo'lгandan so'ng, tushunchalari savollar yordamida aniqlab olinadi. So'ngra, ularga atirgulni mustaqil ravishda yasashlari tavsiya etiladi. Bolalar gulni yasab bo'lганлардан со'нг, барча ишлар биргаликда таҳліл qилинади ва яхши иш баярган болалар рагбатлантiriladi.

## «Gullagan shaftolining novdasi»ni yasash

**Mashg'ulot vazifalari:** bolalarda qog'ozni bir necha marotaba buklab qirqish asosida gul barglarini hosil qilish, gul barglarini

novdaga yelimlab, chiroyli gullagan shaftoli novdasini yasash mala-kalarini o'stirish.

**Mashg'ulotga tayyorgarlik.** Bolalar bilan hovli yoki ko'chadagi gullagan shaftoli daraxtini kuzatish. Gullarning tuzilishiga, rangiga, novdada joylashishiga bolalarning e'tiborlarini jaib qilish.

**Mashg'ulotning borishi:**

**Tarbiyachi.** Bolajonlar, mana, o'lkamizda bahor fasli. Bahorda tabiatda juda katta o'zgarishlar ro'y beradi. Shoirlarimiz ayt-ganidek:

*Keldi bahor, gul bahor,  
Erib bitdi, oppoq qor.  
Uchib keldi, qushlarjon,  
Daraxtlar taqdi marjon.*

Ha, «daraxtlar taqdi marjon». Shoirlarimiz, daraxt kurtaklarini marjonga o'xshatishyapti, bir oz vaqt o'tgandan so'ng, daraxtimiz chiroyli bo'lib gullaydi. Keling. bugungi mashg'ulotda, xuddi shunday gullagan daraxtlarning novdasini biz ham tayyorlashni o'rganamiz. Biz sizlar bilan gullagan shaftoli novdasini yasaymiz. Kerakli ashyolar oldingizdag'i stolga qo'yilgan. Novdani oldimizga qo'yib, pushti rangdagi g'ijim qog'ozdan kvadrat shaklini qirqib olamiz. Uni ikkiga, so'ng to'rtga buklaymiz, natijada kichik kvadratchalar hosil bo'ladi. Bukanlangan kvadratchaning bir uchini ushlab turib, ochiq uchlarini qaychi bilan yarim doira tarzida qirqib olamiz, bukanlangan qog'ozni ochamiz. O'rtafiga barmog'imizni qo'yib tursak, gul bargining cheti qayrilib qoladi. Chuqur joyining orqasiga ozgina yelim surtiladi. So'ngra novdaga yelimlanadi.

Gullarni yelimalashdan oldin tarbiyachi bolalarga shaftoli guli novdada qanday joylashganligini eslatib, tabiiy holiga o'xshatib, ketma-ket yelimalash kerakligi uqtiradi. Gul yaprog'ini qirqa olmagan bolalarga yakka holda yordam ko'rsatadi. Mashg'ulot davomida bolalarning yaxshi ishlari rag'batlantirilib boriladi.

Tayyor novdalarni solib qo'yish uchun har bir stolga bolalarning o'zlarini yasagan guldonlar qo'yib chiqiladi. Bolalar gullagan novdani guldonlarga solib qo'yadilar.

**Tarbiyachi.** Bolalar, qarang, siz yasagan gullab turgan shaftoli novdachalaringiz xonamizni yana ham chiroyli qilib yubordi.

Bolalar o'z ishlari natijasidan zavqlanishga o'rgatib boriladi. Shu tariqa mashg'ulot yakunlanadi.

---

## **QOG‘OZDAN BUKLASH YO‘LI BILAN O‘YINCHOQ YASASH. («ORIGAMI» USULI)**

«Origami» so‘zining kelib chiqishi yapon tiliga mansub bo‘lib, ikki ibora «ori» — buklangan va «gami» — qog‘oz degan ma’nolarni anglatadi. Origami deyilganda odatda to‘rtburchakli qog‘ozlarni buklab turli buyum va o‘yinchoqlarni yasash tushuniladi.

Origami san’at sifatida ilk marotaba IX–XII asrlarda Yaponiyada paydo bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bu san’at Yevropa mamlakatlariiga ham tarqalib, rivoj topa boshladи. Har qanday buyumlarni yasashning izchil tizimiga ega chizma suratlar sifatida tasvirlash urfga kirdi.

Zero, rasmlarga qarab qog‘oz buklamlaridan turli buyum o‘yinchoqlar yasash 4–5 yoshli bolalardan tortib maktabning boshlang‘ich sinfi o‘quvchilarining ham tasavvur doirasini kengaytirishi, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishi shubhasizdir. Bugungi kunga kelib, origami alohida amaliy san’at turi sifatida butun dunyoda keng ommalashgan.

### **«To‘tiqush» ni origami usulida yasash**

1. Kvadrat shaklida qog‘oz olamiz.
2. Diogonaliga buklaymiz.
3. Buklangan joydan burma hosil qilamiz.
4. Burma bo‘ylab ikki uchi birlashtiriladi.
5. Buklangan qog‘ozning har bir uchi orqaga qaytariladi.
6. Qaytarilganda avvalgi diagonalidan oshib ketmasligi kerak.
7. Bosh barmoq orasiga kirgizib ko‘rsatkich barmoq bilan buklanadi va uning bosh qismi tayyorlanadi.

Qushchaning umumiy shakli tayyor bo‘ldi, shu shakldan o‘zingiz xohlagan qushchangizni yasashingiz mumkin. Shakldagi bo‘yalgan joylar qirqilsa, to‘tiqush dumi, tumshug‘idan qaychida ozgina chimdib, ichki tomonga mayda burmachalar hosil qilinib, ko‘zi chizib qo‘yiladi. To‘tiqush tayyor.

## «Do'ppi»ni origami usulida yasash








Kvadrat shaklidagi katta-kichikligi ixtiyoriy qog'ozni olib, diagonal bo'yicha uning markazini aniqlaymiz. So'ngra teng ikkiga buklaymiz, qolgan burchagining biri olinib, markaz tomoni bo'yicha buklanadi, orqa tomoni ham xuddi shunday buklanadi. Buklangan qismini ichki tomonga qarata buklab, boshqa burchagini 1 sm qayirib olinadi, pastki qog'ozning burchaklarini qayirib, buklab chiqiladi va chetidagi burchakka kirgizib qo'yiladi. Orqa tomoni ham xuddi shunday bajariladi. Mana, do'ppimiz tayyor, endi uni bezatishimiz kerak. Ingichka mo'yqalamni olib, oq rangga botiramiz, do'ppining to'rt tomoniga garmdori shakli chiziladi. Do'ppilarning gulidagi garmdori shaklining tasvirlanishi bolalar chidamli, qo'rmas, matonatli, sabrli bo'lishi kabi ma'nolarni anglatadi.

Qizlarimiz do'ppilarini turli ranglardan foydalananib, har xil gullar bilan bezatib chiqadilar. Bu esa qizlarning doimo guldek ochilib, chiroyli bo'lib yurishlarini ifodalaydi hamda bir yo'la ularning boshlarini ostob issig'idan asraydi. Buvijonlarimizning aytishlaricha, bosh kiyimni juda ehtirot qilish kerak. Eskirganda ham tashlab yubormay, undan yana ro'zg'orda yordamchi buyum sifatida foydalinish mumkin.

Qizlarimizning do'ppilariga gulni mana bunday chizamiz: gul o'rtasiga sariq rangli nuqta qo'yib, atrosiga qizil rangda gul yaproqlarini qo'yamiz.

Agar uyingizda do'ppingiz bo'lsa, unga qarab gulni chizsangiz ham bo'ladi. Har xil rangdan foydalananayotganda mo'yqalamni yaxshilab yuvib, salsetkada artib olishni unutmang. Quyida «Origami», ya'ni qog'ozni buklash orqali do'ppi, baliq, to'tiqush, jirafa yasashni bosqichma-bosqich ko'rsatib o'tamiz. Marhamat, o'z ustingizda bir oz ishlab bosh qotirib ko'ring.

## Do'ppi



---

## PAPYE-MASHYE USULI

Papye-mashye «ivigan», «g'ijimlangan» qog'oz demakdir. Bunday qog'ozdan kleyster bilan loy va plastilindan yasalgan tayyor model bo'yicha shakl yelimlanadi. Papye-mashyedan tayyorlangan o'yinchoqlar, har xil mayda-chuyda narsalar yasashning osonligi bilan ajralib turadi. Papye-mashye bilan ishslash jarayoni talabalarda mehnat malakalarining shakllanishiga, turli asbob va materiallar bilan ishslash ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. Papye-mashye bilan ishlaganda qalamtarosh, qarmoq ipi, yelim pishirish uchun idish, tayyor mahsulotni bo'yash uchun bo'yoq, mo'y-qalamlar kerak bo'ladi. Ish qog'ozni tayyorlashdan boshlanadi. Buning uchun gazeta va o'rash qog'ozlari zarur. Qog'oz namylanadi, biroq ivib ketmasligi kerak. Bir idishda gazeta, ikkinchi idishda o'rash qog'ozini turadi. Undan keyin yasaladigan shakl tayyorlanadi. Piyola faner ustiga to'nkarib qo'yiladi. Unga yupqa qatlama yog' (vazelin, o'simlik yog'i) surtiladi.

Birinchi ish piyola ustiga faqat suvlangan qog'ozni yopish-tirishdan boshlanadi. Shundan keyin namlangan kesma qog'ozlarga kleyster surtiladi, uni birin-ketin piyolaga yopishtirib, bittadan oralatib, bir-biriga ko'ndalang, bir kesma ikkinchiga yetadigan qilib qo'yib chiqiladi. Poloskalarning eni 1–2 sm, uzunligi esa piyolaning ikkala tomoniga yetib, faner ustiga tushib turadigan bo'lishi kerak. Bunday qog'ozlar ikki qatlama qilinib, ochiq joylarni qoldirmay yelimlanadi.

Shundan keyin yana ikki-uch qatlama yopishtiriladi, biroq endi poloskalar emas, balki qog'oz parchalari yopishtiriladi. Qog'oz albatta qo'lda yirtilishi kerak, shunday qilinsa, bir me'yordagi yelimlangan tekis qatlama hosil bo'ladi. Shunday qilib, piyola ustiga bir necha qatlama (5–6–8) qavat qog'oz parchalari buyumning kattaligiga ko'ra yopishtiriladi. Qog'oz shaklni piyoladan ikki kundan keyin olish kerak. Agarda shakl piyoladan chiqmasa, uni bir oz quritish, pichoq bilan qirqib olish kerak. Chetlarini ohista

to‘g‘rilab, qirqilgan joy yelimlanadi va bir-ikki kun davomida quritiladi. Yaxshilab quritilgan papye-mashye shaklning sathi silliq qilib, jilvir qog‘oz bilan tozalanadi. Shundan so‘ng yasalgan buyumga emulsiya bo‘yog‘iga «PVA» yelimi qo‘sib mo‘yqalam yordamida silliqlab jilo beriladi. Emulsiyalangan shakl quritiladi va jilvir qog‘oz bilan tozalanadi. Shundan so‘ng u bo‘yaladi va bezak beriladi.

Papye-mashyening qog‘oz massasidan bajariladigan boshqa usuli ham bor. Papye-mashye uchun massa eski qog‘ozga yopishtiruvchi va to‘ldiruvchi moddalar qo‘sib tayyorlanadi. Tayyorlash usuli oddiy. Qog‘ozni mayda qilib burdalab, bir sutka ivitib qo‘yiladi. So‘ngra uni kiselsimon bir xil massa hosil bo‘lgunga qadar qaynatiladi. Sovigan massa kichik-kichik bo‘laklarga bo‘linib qo‘lda siqiladi, quritiladi. Tamoman qurigan massa mayda qirg‘ichdan o‘tkaziladi. Shundan so‘ng qog‘oz massaga yelimli suv quyib, narsalar yasashga yaroqli xamir holatiga kelguncha aralashtiriladi. Bunday massadan karnavallar niqoblari, o‘quv qo‘llanmalari tayyorlanadi. Papye-mashyeden massa tayyorlash rettseptlari serob, qog‘oz massasi va suyuq duradgorlik yelimini turli to‘ldirgichlar: bo‘r, loy, yog‘och qipiqlari, zig‘ir moyi bilan qo‘sib tayyorlash mumkin. Tayyorlangan xamir dan turli xil narsalar yasaladi. Xamir 1–1,5 mm qalinlikda yoyilib, kerakli mahsulot ustiga yopishtiriladi, so‘ngra quritib gruntlanadi.

Grunt tayyor mahsulotga yupqa qilib surtiladi. U qurigach, uning sathi jilvir bilan sayqallanadi, shundan keyingina moy yoki yelimli bo‘yoq bilan bo‘yab, mahsulotni chiroqli ko‘rinishga kelishi uchun harakat qilish kerak.

Papye-mashye juda qo‘l keladigan ashyo ko‘pgina mamlakatlarida keng foydalananadi. Papye-mashye texnikasi yordamida vazalar, patnislar, qutilar tayyorlanadi. Bu mahsulot oliy darajada mustahkam va uzoq vaqt xizmat qiladi.

Papye-mashyeden mahsulot tayyorlash – juda uzoq vaqt davom etadigan jarayon, biron-bir o‘ynichoqlarni tayyorlash uchun sizning bir kuningiz ketadi. Avval osma kosacha qanday kattalikda bo‘lishini aniqlab va sharsimon shaklga ega bo‘lgan buyumni (koptok) toping. Ish jarayonida koptok dumalab ketaverishi kerak emas, uni yopish-qoq lenta bilan mahkamlash kerak. Tayyorlab qo‘yilgan qog‘ozni uchburchaklarga kesib olish lozim. Gazeta qog‘ozini bir idishga solib qo‘yamiz, papirus qog‘ozini esa boshqa idishga solamiz. Qog‘ozning ikki xilini ishlatish tavsiya etiladi. Chunki bunda yopishtirilgan qavatlarini farqlay olish mumkin bo‘lsin. Birinchi

qavatiga faqatgina suv ishlatiladi. Bu juda muhimdir, bo'lmasa, tayyor kosacha koptokka qattiq yopishib qolishi mumkin. Qolgan qog'oz qavatlariga yaxshilab yelim surtiladi. Qanchalik ko'p qavat bo'lsa, shuncha yaxshi bo'ladi. Keyin tayyor mahsulot quritiladi.

## **PAPYE-MASHYE USULIDA O'YINCHOQLAR YASASH**

Papye-mashye so'zi fransuz rassomining ism va familiyasidir. Rassom birinchi bo'lib xamir va qog'ozni aralashtirib plastilinga o'xhash massa hosil qilgan, bu massani qo'lda g'ijimlash orqali tayyorlanadi. Tayyorlash usuli quyidagicha: I qavat o'rov qog'ozni yoki gazetaga oldindan tayyorlangan suyuq xamirni surib chiqamiz va xamir surilgan qog'ozni qo'limizda g'ijimlab maydalab bir xil massa bo'lguncha ezc'ilaymiz. Tayyor bo'lgan massani bo'laklarga bo'lib xohlagan o'yinchoqni yasashimiz mumkin.

O'yinchoq yasash davomida barcha haykaltaroshlik usullaridan foydalanishimiz mumkin bo'ladi. G'ijimlash usuli orqali ko'pincha archa bezaklari yasaladi. Bunda yasalayotgan o'yinchoq ichiga simdan ilgak joylashtiriladi. Yasalgan o'yinchoq qurigandan so'ng qum qogoz bilan ishqalanib, silliqlanadi. So'ngra oq guash yoki tish pastasi bilan bo'yab olinadi.

Qurigandan so'ng akvarel bo'yoq bilan bo'yaladi va ustidan lak beriladi. Bu usul orqali sabzavotlar, mevalar, hayvon, parrandalar, qushlar, gullar va boshqa narsalarni yasash mumkin.

### **Papye-mashye usulida «lagan» yasash**

Hozir papye-mashye usulida lagan yasashni ko'rib chiqamiz. Suvni yaxshi shimadigan ikki xil rangdagi yupqa qog'ozni olib, uni mayda bo'lakchalarga bo'lamiz va yelim, suv tayyorlab olamiz. Lagan sirtiga vazelin yoki moy surtiladi. Oq yupqa qog'oz bo'laklarini suvg'a botirib lagan ustiga tekis qilib suv bilan yopishtiramiz. Navbatdagi qog'oz qavati esa, boshqa oq rangdagi qog'oz bo'laklaridan yelimlanadi. Bu o'z navbatida qog'oz qavatlarini yangilishib ketishdan saqlaydi. Bu holat 6–7 marotaba takrorlanadi, oxirgi qavatni yopishtirish oq rangdagi qog'oz bilan tugatilishi kerak. So'ng 3–4 kun yasalgan buyum yaxshilab quritilgandan keyin sirtidagi qog'oz qolip ajratib olinadi. Qolipning ichki qismini tekislab, unga xohlagan nusxani, masalan, g'o'za guli va boshqalarni chizamiz.

## **Qog'oz bo'laklaridan sabzavot va mevalar, tarvuz-qovunlar yasash**

Tarvuz yasash uchun oddiy havo pufagini olamiz-da, uni puflab, dumaloq shakl hosil qilamiz. Havo pufagining sirtiga suvda namlangan qog'oz bo'laklarini bir tekis joylashtirib chiqamiz. Ustidan «PVA» yelimini surtib suv shimanligan qog'oz bo'laklarini yelimlaymiz. Qog'oz bo'laklari ikki xil qog'ozdan yirtib tayyorlanadi. Navbatma-navbat u yoki bu rangdagi qog'oz yelimlanadi. Avvalo bir qavat suv shimanligan qavatidan oq qog'oz va shu tariqa qavatma-qavat yelimlanadi. Ustki qavati tekis bo'lishi uchun bo'r maydalaniib yelim bilan aralashtiriladi-da, surtilib chiziladi: qurigandan so'ng kerakli bo'yoqqa bo'yaladi. Masalan: tarvuzni yashil rangga, qovunni esa sariq rangga va h.k.

### **Tayyorlash texnologiyasi. Kerakli ashylar:**

1. Emulsiya bo'yogi.
2. Sof tuproqdan tayyorlangan loy.
3. Gazeta bo'laklari.
4. Suv, un (kleyster tayyorlash uchun).
5. Oq qog'oz.
6. Qora duxoba, ozgina oq chit, har xil matolar.
7. «PVA» va «Moment» yelimplari.
8. Bo'yi 40 sm, eni 2 sm yog'och.
9. Temirli pivo idishi, mix.
10. Mochalka (gubka).
11. Guash, bo'yoq, mo'yqalam.
12. Qarmoq ipi, mayda qum qog'oz.



Avval qo'g'irchoqning boshini yasaymiz. Buning uchun bizga loy kerak bo'ladi. Loydan yasalgan kallani bosh tarafidan pastga qaratib qulogqlarining o'rtasidan qarmog' ipi bilan bo'lib olamiz. Shunda kallaning yuz qismi va orqa qismi paydo bo'ladi. Silliq faner ustiga yuz tarafini qo'yamiz. Alohida idishda alebastrni suv bilan aralashtirib tayyorlab olamiz. Loydan yasalgan yuz qismiga ozgina yog' surtamiz va tayyorlangan alebastrni quyib qolipni tayyorlaymiz va ochiq havoda quritamiz. Loyning orqa tarafini ham shu yo'l bilan tayyorlab olamiz. Alebastr qotgandan so'ng ichidagi loyni olib tashlaymiz va qolip ichiga papye-mashye qilib bir necha qavat qog'oz yopishtiramiz. Qog'ozni qolip ichiga yelimallashda oq qog'ozdan bir necha bo'lak yelimalaymiz, chunki bosh qismning usti oq rangda bo'lishi, keyin esa unga tana rangi berilishini hisobga olish kerak. Oldin suv va undan kleyster tayyorlab olamiz. Qolipimiz ichiga 4 qoplam suv bilan qog'oz bo'laklarini, so'ng kleyster bilan gazeta bo'laklarini yopishtiramiz. Kleyster orqali 6 qoplam hosil qilamiz va ochiq havoga bir kunga qo'yib qo'yamiz. Orqa tarafini ham shunday qilamiz. Endi qurigan qolipdag'i niqobni olib ustidagi keraksiz qog'ozlar yirtib tashlanadi. Niqobning chetiga «Moment» yelimdan surtib, orqa va oldi qismi yopishtiriladi. Qurigandan so'ng bir-biriga yopishtirilgan joyiga lenta qilib kesib olingan chitni «PVA» yelimi bilan yopishtiriladi. Kallaning hamma joyini oq qog'oz va kleyster bilan 2 qatlam papye-mashye qilinadi. Hosil bo'lgan kalla qurigandan so'ng dahanning pastki tarafidan qaychi yoki bigiz orqali teshiladi va oldindan tayyorlangan yog'ochni (40 sm) tiqib, kallaning tepe qismidan qoqib mahkamlanadi va ustidan yana bir marta qog'oz bilan papye-mashye qilinadi. Tayyor bo'lgan kallani bo'yash uchun idishga bo'yoq tayyorlaymiz. Idishga suv, ohak, «PVA» yelimi solib, yaxshilab aralashtiriladi va qizil, sariq guashdan solinadi. Bo'yoqni odam tanasining rangiga o'xshatishga harakat qilamiz. Kalla mayda qum qog'oz orqali silliqlanadi va tayyorlangan bo'yoq bilan bosh qism gubkada bo'yaladi. Bir xil qilib bo'yashga harakat qilinadi. Bo'yoq ikki-uch marta beriladi. Bo'yoq qurigandan so'ng guash orqali qo'g'irchoqning ko'zi, qoshi va boshqa yuz qismi chiziladi. So'ng qora duxoba yoki qora matodan soch tayyorlaymiz va kallaning bosh qismiga yelimalaymiz. Shunday qilib, qo'g'irchoq'imizing kallasi tayyor bo'ladi.

Qolgan qismini tayyorlash uchun andoza orqali qo'g'irchoq tanasini oq chitdan kesib, tikib olamiz. Tanasidagi ko'krak qismiga

gubkadan yarim doira shaklida kesiladi va tikiladi. Yeng qismiga qo'lini tayyor andoza orqali kesib, tikib olinadi va yeng qismiga mahkamlanadi. Tayyor andozadan ko'ylaklar tikib, kiygiziladi. Bosh qismiga tayyorlangan bo'yoq bilan qo'l, oyoq va bo'yin qismlari bo'yaladi. Qotgandan so'ng «PVA» yelimi bilan yog'ochga yopish-tirib qotiriladi.

**Osma kosacha yasash.** Kerakli jihozlar:

- gazeta;
- papirus qog'ozi;
- qaychi;
- qog'oz uchun ishlatiladigan idish;
- bitta taqsimcha;;
- uchta chashka;
- pufak;
- arqon.

**Buyumni tayyorlash usul.** Kerakli o'lchovdag'i sharsimon buyumni toping. Koptokcha ish vaqtida dumalamasligi uchun mahkamlab qo'ying. Tayyorlab qo'yan qog'ozingizdan uchbur-chaklar qirqib chiqing. Papirus qog'ozini bir idishga, gazeta qog'ozini boshqasiga soling. Birinchi qavati faqat suvdan foydalaniadi, aks holda tayyor buyum koptokka yopishmaydi, qolgan qavatlarda qog'oz yelimga botiriladi. Qavatlar qanchalik ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.

### **Qo'g'irchoq tasvirini yasash**

Materiallar, gazeta, papirus qog'ozi, yelim, qaychi, birlashtirish uchun karton qog'ozi, bitta taqsimcha, ikkita idish, rangli qog'oz, mato bo'yoqlari, yelim, lak, plastilin.

Ishning borishi: plastilinni yumshatib, yuz shaklini yasashni boshlang. Yuz belgilari kattalashtirib yasaladi, chunki qavat-qavat qog'oz ostida bu belgililar kichiklashadi. Model tayyor bo'lgandan keyin qog'ozdan 7,5 sm uzunligidagi to'rburchak oling. Undan bo'ynini hosil qilamiz.

Qog'ozdan ingichka, uzun poloska yirtib, birinchi qavatini suv bilan qoplang. Boshchani plastilin bo'lagi bilan o'rnatiting. Boshni avval suvg'a botirilgan gazeta bo'laklari bilan qoplang, keyingi qavatini papirus qog'ozi bilan yelimga ho'llab yopishtiring, boshni ikkiga bo'lamiz. Plastilinni olib tashlab, bo'lagini buklang, yuzini, tanasini rangli bo'yoqlar bilan bo'yang va quriting. Sochlarni

qog'oz yoki matodan yasab uni ham yopishtiramiz, uzunligi 10 sm li g'ovak kartonni bo'yning ichiga yopishtirib dahanidan 2 sm uzoqligida kiritib tiklang. Keyin mashinada aylantirib tикиб чиқинг. Bo'ynini va tagini ochiq qoldiramiz. Qo'lqopning o'ngini o'girib, teshigi atrofiga yoqani tikib chiqamiz, boshini bo'yniga mustahkam qilib yopishtiramiz. Shu tarzda boshqa personajlarni ham yasash mumkin. Quyidagi rasmida papye-mashye usulida yasalgan o'yinchoqlardan namunalar berilgan:



---


## IJODIY O'YINLAR UCHUN QO'LLANMA YASASH



Ijodiy o'yinlar uchun ishlataladigan qo'llanmalarning ahamiyati katta bo'lib, bayramlarda, sayrlarda, ko'ngil ochish soatlarida keng foydalaniлади. Bu qo'llanmalar bolalarning yoshiga mos va mustahkam, ranglari o'z ornida bo'yalgan va laklangan bo'lishi lozim. Qo'llanmalar asosan kartondan va keraksiz ikkilamchi xomashyodan tayyorlanadi.



Masalan: «Do'kon» o'yini uchun tuz, un, shakar, guruch, oq po'kak (penoplastdan), choy, gugurt,sovun, atir, dezodorant, har xil shirinlik idishlari va boshqalar kerak bo'ladi.

Yo'lovchi va transport o'yinida barcha qo'llanmalar qalin kartondan yasaladi (bular svetofor, mashina ruli, yo'l belgilari, mashinalar surati va boshqalar).

Bundan tashqari ijodiy o'yinlarni tashkil etishda bolalar ertak asosidagi rollarni bajarishga, ularning niqoblarini qo'l mehnati bilan o'zлari yasashga harakat qilishlari lozim. Quyida turli xil niqoblar namunalari keltirilgan:









### HARAKATLI O'YINCHOQ TAYYORLASH

Ishni boshlashdan oldin tayyorlanadigan predmetning qoralamasi tanlanadi va uning detallari qanday geometrik shakllarda bo'lishi yoki bitta o'lcham bilan ifodalash mumkinligi aniqlanadi. So'ngra instruksion karta tuziladi. Agarda ishni bolalar bajarsalar reja ham tuziladi. Bu:



1. Buyum namunasi yoki uning rasmini tahlil qilish.
2. Predmet qanday qismlarga ega? Umumiy o'lchamini chizish mumkinmi?
3. Butun predmet va uning qismlari shakli (kublar, piramidalar, silindrлar), o'lchamlarining o'zaro nisbatini aniqlash.
4. Detallarni yaratish usullarini ko'rib chiqish.
5. Asl ko'rinishini chizish.
6. Detallarni biriktirish.
7. Buyumni bezash.

## HARAKATLI O'YINCHOQLARNI BIRIKTIRISH USULLARI



**Quvnoq raqqoslar.** Raqqoslar kartondan tayyorlanadi. Oyoq-qo'llari alohida qirqladi. Ba'zan oyoq va qo'llar harakat ko'proq bo'lishi uchun ikki qismdan iborat bo'ladi, tanani bosh bilan birga qirqib olinadi. So'ngra unga oyoq va qo'l o'rnatiladi, figura orqasidan ingichka, biroq pishiq sim bilan bog'lanadi. Bu bilan raqqos ushlab turiladi. Raqqoslar shodligi uchun maxsus sahna – orqa devorida ingichka yotiqli teshikli estrada kerak. Sahna kartondan tayyorlanib, stolcha mix tugma bilan mustahkamlanadi. Yon tomonlariga keng shitlar qo'yildi. Shitlar orqasiga shakllar qo'yilib, teshik orqali sim o'tkaziladi va raqqosni sahnadagi raqs harakati bilan boshqariladi.


Harakatlanuvchi figuralar ham shu prinsipda tayyorlanadi, faqat orqa tomonda qo'l va oyoqlar juftlab, o'zaro yondosh tarzda tik ip bilan birlashtirilgan, uni pastga tortilganda qo'l va oyoqlar yuqoriga harakatlanadi va oyoqlar oldingi holatiga qaytadi. Ayrim detallar o'zaro, qo'l va oyoqlar tanaga ikki xil usulda tayyorlanuvchi sharnirlar bilan biriktiriladi. Sharnirlar simdan tayyorlanadi. Bir detalni ikkinchisi bilan ko'rsatilgan joyda biriktirib, bigiz bilan ingichka sim va nina sig'adigan teshik teshiladi. Ninaga avval figuraning bir tomonidan, so'ngra ikkinchi tomonidan sim o'raladi. natijada prujina hosil bo'ladi (simni ko'p o'ramaslik kerak). Prujina ikki tomondan siqladi, bunday sharnirdagi detallar yaxshi harakat qiladi. Prujina ustiga qog'oz yopishtiriladi. Sharnirlarni yo'g'on ip va gugurt cho'pi yordamida ham qilish mumkin, biroq uzoq chidamay uzilib ketadi, shuning uchun ularni ma'lum vaqt dan keyin almashtirish kerak bo'ladi. Yassi klapan biriktirish bilan qiziqarli o'yinchoqlar yasash mumkin.




**Harakatli «Ayiqcha» o'yinchog'ining qismlarini biriktirish sxemasi.**




Quyida sizga harakatlanadigan o'yinchoqlarning yasalish yo'lini ko'rsatuvchi namunalarni beramiz. Bunday o'yinchoqlarni yana qanday usulda bajarish mumkinligi haqida o'ylab ko'ring.







**Otkritkalar, maketlar.** Bir varaq albom qog'ozini olib ikkiga buklaymiz. Syujetni tanlab razvyortka applikatsiya bilan bezaladi, rangli qalamlar bilan bo'yaladi. So'ngra qalin qog'ozdan kerakli shakllar qirqiladi. Bu rasmlarni istalgan kitob yoki jurnaldan kalkaga va undan qora qog'oz orqali karton yoki qalin qog'ozga tushirish mumkin. Shakllarmi eski otkritkalar, jurnallar va boshqa joylardan qirqib olish mumkin. Figura syujetida nazarda tutilgan joyga yopishtiriladi, shundan so'ng figuraning orqasiga ip yoki qog'oz kesmasi yelimlanadi, uning ikkinchi uchi o'lchamning orqa devoriga yopishtiriladi. Yopishtirilgan qog'oz yoki ipning uzunligi shunday bo'lishi kerakki, buklangan qog'oz ochilganda u figurani ko'tarsin.



Bosma rasmlardan yoki ustalik bilan tanlangan alohida rasmlardan maketlar tayyorlash qiziqarli ishdir. Mazmunni o'ylab bir varaq olinadi, uni ikkiga buklab, so'ng ochiladi. Uning oxiriga yirikroq rasm yoki fon xizmatini o'tovchi rasm yopishtiriladi. Pastdan polosa buklanib, undan burchak qirqiladi. Endi fanni shunday yelimlash kerakki, burchak asos varaqlar bukiladigan joyiga to'g'ri kelsin. Taxlash oson bo'lishi uchun to'g'ri chiziq bo'ylab emas, bir oz burchak qilib yelimlanadi.

Shundan so'ng manzara yoki biror harakatni ifodalovchi detal-larni qatorma-qator yopishtirish mumkin, biroq asosning old chetiga yaqinlashgan sari yopishtiriladigan shakllar balandligi kamayib borishi kerakligini unutmaslik kerak.

---

---

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA QO'G'IRCHOQ TEATRI VA JIHOZLARINI YASASH**

Ma'lumki, mamlakatimizda teatrning deyarli hamma turlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Teatr bu yunoncha *tiyation* so'zidan olingan bo'lib, tomoshaxona degan ma'noni bildiradi. Jajji kichkintoylarimizning sevimli teatri, bu qo'g'irchoq teatridir. Bu teatr orqali bolalar o'zlariga yaqin va tanish bo'lgan o'yinchoqlarni, ayiqcha, quyoncha, kuchukcha va boshqa qahramonlarni jonli ravishda ko'radilar. Teatr bolalarga xursandchilik va quvonch baxsh etish bilan birga katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida katta spektakllarni qo'yish mumkin emas. Kichik sahnali, kichik ertak asosida o'zlarining o'yinchoqlari yordamida qo'yishlari mumkin. Bu kichik ko'rinishlarning har biri ham bolalarda katta taassurot uyg'otadi va bayram ertaklariga ko'tarinki ruh baxsh etadi. Har qanday badiiy asar qo'g'irchoq teatri orqali ko'rsatilsa, bolalar uchun yanada tushunarli bo'ladi. Qo'g'irchoq qo'lqop teatrini aytib bu teatrlarga murojaat qilishimiz lozim. Chunki bunday ertaklar olami bolalarning sevimli tomoshasi hisoblanadi.

Qo'g'irchoq teatri uchun eng kerakli bo'lgan shirmani tayyorlab olish kerak. Shirmaning balandligi 50 sm, uzunligi 80 sm reyka yordamida tayyorlanadi. Reykaga mix qoqilib, orqa tomoniga ikki tomoni ochiladigan qilib, parda tikiladi va o'rnatiladi. Qo'g'irchoqlarni papye-mashye usulida tayyorlash mumkin. Ertak qahramonlari tayyor bo'lgach, matnni yozib, sahnalashtirishga tayyorgarlik ko'rildi. Bular ertak ishtirokchilari, personajlar, ertak matni, boshlovchi, ertakchi bobo yoki momolar bo'ladi.

### **QO'G'IRCHOQ TEATRI TURLARI**

O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri o'zining uzoq tarixiga ega. Bizda «qo'g'irchoq o'yin» deb yuritiluvchi bu san'atning, xususan, qo'lga kiyib o'ynatiladigan va soyasi tushiriladigan turlari o'tmishta

keng tarqalgan. Chodiri, sahnasining tuzilishi, qo‘g‘irchoqlarining yasalishi va o‘ynatilishi spektakllarning mavzusi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari ko‘ra ushbu teatr turlari bir-biridan xiyla farq qilsada, uch jihatni ularni yaqinlashtirib turgan. Har bir tur tomoshalarda musiqa muhim rol o‘ynagan. Bu bir. Ikkinchidan, ularda korfarmon nomidagi usta va tajribali qo‘g‘irchoqboz, ya’ni guruh boshlig‘i tomoshabinlarga ko‘ringan holda qo‘g‘irchoq qahramonlar bilan savol-javob qilib, gapini izohlab, shu yo‘l bilan tomoshani boshqargan. Uchinchidan, osti, usti yoki ortidagi qo‘g‘irchoqboz tiliga safl degan moslama puflagich qo‘yib, qo‘g‘irchoqlarga mos chiyildoq, o’tkir tovush hosil qilgan.

«Chodir jamol»da ijtimoiy va maishiy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar satira va humor vositalari bilan aks ettirilgan. Voqealar markazida Kachal polvon obrazni turgan. Kachal polvon mehnatkash xalq vakilidir. U jasur va bahodir. U hatto dev, shayton va ajdardan qo‘rqmaydi. Shunisi qiziqki, Kachal polvonning tashqi qiyofasi ham, harakteri ham Osiyo va Yevropadagi shu tipdagি qahramonlarga o‘xshab ketadi. «Chodir jamol» teatridda har safar bir juft qo‘g‘irchoq chiqib bir ko‘rinishli mitti pyesa hosil qilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, 40 ta qo‘g‘irchoq ishtirokida o‘yinlar namoyish qilingan. Demak, yigirmata sahna bo‘lgan, deb taxmin qilish mumkin.

Samarqandda Quli bobo Novvotov ijrosida yozib olingan «Kachal polvon sarguzashtlari» komediyasida uch sahna mavjud. Sahnalardan birida Kachal polvonning boshqa bir ayol deb o‘z xotiniga ro‘para bo‘lishi ko‘rsatiladi. Ikkinci sahnada Kachal polvon Korfarmonga ovchi kuchuk sovg‘a qilib olib kelganini aytadi. Voqe davomida o‘sha it polvonni qopadi, korfarmon zo‘r-bazo‘r uni ajratib oladi.

Uchinchchi sahnada esa sudxo‘r boy bilan Kachal polvon to‘qnashuvi ko‘rsatiladi. Sudxo‘r qarzini talab qiladi. Bechora Kachal polvonning o‘n baravar ko‘paygan qarzini to‘lashga imkoniyati yo‘q. Ikki o‘rtada rosa jang bo‘ladi. Bizga yetib kelgan sahnalardan birida eski zamonda bozor nazoratchisi bo‘lgan raisning ikkiyuzlamachiligi, poraxo‘rligi fosh qilinadi. Juldur kiytingan poyaki bozorda keng zardo‘z to‘n kiyib, katta salsa o‘rab, tasbeh ushlab olgan raisga chilimini tutadi. Rais avval: «Shariat bunga yo‘l bermaydi», deb olmaydi, keyin u yon-bu yonga olazarak bo‘lib chilimni oladi-da, rosa tortadi va poyakiga qaytib berib indamay ketaveradi. Poyaki uni to‘xtatib, haq talab qilganida, raisning

jahli chiqadi va uni jazolashga shaylanadi, poyaki bechora pora cho'zib kaltakdan qutulib qoladi.

Bulardan tashqari, «Ajdarhoning hoji kampirni yutishi», «Oyim xola bilan uning kuchugi Qoravoy», «Ikki masxaraboz», «Maymun o'yini», «Toshboz», «Tergovchi» kabi sahnalar ham ko'rsatilgan. «Chodir jamol» tomoshalari Kachal polvon sarguzashtlari qissasini bayon qilgani, har epizodning tugal bir voqeadan tashkil topishi o'ziga xos kompozitsiyani yuzaga keltirgan bo'lib, u yangi epizodlar kiritish yoki sharoitga qarab bir an'anaviy epizod o'rniqa boshqasini ko'rsatishga keng yo'l ochgan. «Chodir xayol» teatri «Chodir jamol», ga nisbatan ancha murakkab va mukammaldir. Bu teatr tomoshalari, odatda, kechqurunlari ko'rsatilgani, shu'la va shovqindan foydalanilgani tufayli qora pardalar ichidagi qo'g'irchoqlarning iplari ko'rinxmay, xuddi qo'g'irchoqlarning o'zлari harakat qilayotganday tabiiy chiqqan. Har bir mohir qo'g'irchoqboz ayni vaqtida 8–10 qo'g'irchoqni harakatga keltira olgan.

«Qo'l qo'g'irchoq» teatrida bir tomoshada ko'pi bilan o'nta qo'g'irchoq ishtirok etgan bo'lsa, «Chodir xayol»da bir yo'la ellikdan ortiq qo'g'irchoq o'ynagan. «Chodir xayol» qo'g'irchoqlari kattaroq qilib yasalgan, qo'l-oyoglari bo'lgan. Bizga ma'lum qo'g'irchoqlar orasida Ernazar maymunchi, Toshpo'lat dorboz, Orif jarchi, Oysha xotin olmaboz, Xitoy tabib, Yo'ldosh yasovul, Saydulla yuzboshi, farrosh, otashxo'r, toshboz, to'pchi, yallachi kabi personajlar, laylak, maymun, eshak, ajdar kabi maxluqlar va hayvonlar qiyofasi uchraydi.

Bizgacha «Chodir xayol»ning «Sarkardalar» degan bir pyesasi etib kelgan. Unda tomoshani yasovul boshlab beradi. U farroshga joylarni tozalashni, o'rindiqlarni joy-joyiga qo'yib, sarkardalar, podsholarni kutib olishni buyuradi. Birin-ketin Marg'ilonning qo'rboshisi va qozisi, Samarcand begi, Urganch podshosi Abdurahmonxon, Xitoy konsuli, Urgut begi, Toshkent begi kirib kelib, o'zlarini tanishtiradi. Sarkardalar joylashib olgach, katta tantana boshlanadi. Navbat bilan otashxo'r og'zidan olov chiqaradi. Maymunboz maymun o'ynatadi, olmaboz bilan toshboz ham hunarini ko'rsatadi. Tomosha to'plarning gumburlashi bilan tugaydi. Shunday qilib, o'zbek qo'g'irchoq teatri ijtimoiy fosh etuvchi va humoristik xarakterga ega bo'lib, muhim mafkuraviy va estetik ahamiyat kasb etgan. Qo'g'irchoqbozlar mohir san'atkori bo'lganliklaridan ular yaratgan teatrning g'oyaviy badiiy darajasi

ham yuqori bo'lgan. Teatrning har ikki turida ham tomoshalarni asosan ikki kishi – qo'g'irchoqboz va korfarmon boshqargan. Qo'g'irchoqboz chodir ichida yoki parda orqasida safil yordamida qo'g'irchoqlar tilida gapirgan, ularni harakatga keltirgan. Qo'g'irchoqbozlar ayni vaqtida musiqadan yaxshi xabardor bo'l-ganlar. Musiqa ham badiiy bezak, ham ko'proq qahramonlar holatini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilgan.

Qo'g'irchoq o'yini xalq og'zaki ijodiga asoslangan ajoyib-g'aroyib san'at. Uning yozma matni bo'l-magan. U uzoq yillar kuzatish, mashq qilish, yodlash, malaka hosil qilish orqali muayyan syujetlar, vosita va uslublar bilan ustozdan shogirdga o'tib kelavergan. Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi G'ishti qishlog'ida o'z iste'dodi bilan mehnatkashlarni xushnud qilib kelgan Xolmurod boboning (1897–1967) ham ota-bobosi qo'g'irchoqboz o'tgan. Uning otasi Siddiq kalon (1858 – 1940), bobosi Abdukarim (1800–1870) lar qo'g'irchoq teatrining yirik namoyandalari hisoblangan. Shu davrda yuqorida nomlari zikr etilgan qo'g'irchoq, san'at sohiblaridan tashqari Zarif misgar Qori hoji, Sharof Chala, Sadriddin eshon, Rajab meshkob (Buxoro), Jo'ra Qayroq, Hamro mehtar, Aziz bobo (G'ijdivon), Novot lug'takboz, Mahmud mehtar, Hamro bobo (Samarqand), Tursunboy Abdujabborov (Toshkent) kabi o'nlab usta qo'g'irchoqbozlar o'tganlar. Ular jamiyatdag'i yomonlik va illatlarni, zo'ravonlik, tekintomoq amaldorlarni qattiq tanqid qilganlar hamda mehnatkash halqqa kulgi, zavq bag'ishlaganlar. Kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, bu sanatkornarning maqsadi qancha ulug' va sa'natni qancha mazmundor va yuksak bo'lmasin, tengsizlik, zulm hukm surgan jamiyatda qo'g'irchoqbozlar eng past tabaqa hisoblangan, tahqirlangan, xo'rangan, ruhoniylar qo'g'irchoq teatrini «shayton o'yini», narigi dunyoda qo'g'irchoqlar jon talab qiladi, «qo'g'irchoqboz shakkok va diyonatsiz» degan gaplarni xalq orasida targ'ib qilib kelganlar. XV asrda Xuroson va Movarounnahrda boshqa san'atkorlar qatori qo'g'irchoq teatri ham taraqqiy etdi. Bu davrda «Chodir jamol», «Chodir xayol» va «Fonus xayol» deb ataluvchi hamda qo'g'irchoq yasash va uni o'ynatishda, shuningdek, tomosha mazmuniga ko'ra bir-biridan keskin farqlanib turuvchi uch tur keng tarqalgan. Qo'g'irchoqlar qo'liga kiyib o'ynatiladigan «Chodir jamol»da hayotiy voqealar, iplar vositasida boshqariladigan «Chodir xayol»da mifologiya, soyasi tushiriladigan «Fonus xayol»da qahramonlik eposi aks ettirilgan. Ayniqsa, XIX asr o'rtalarida qo'g'irchoq o'yin

satirasining tig'i o'tkirlashdi. Qo'g'irchoqbozlar faollashib, hukmonr tabaqlarga nisbatan o'z munosabatlarini va baholarini dadil hamda oshkora ifoda qildilar. Satira tig'iga yirik amaldorlar, sudxo'rilar, o'g'rilar sharmandai sharmisor bo'ldilar.

### «Fonus xayol» teatri

«Fonus xayol» teatri qadimdan mavjud bo'lib, ayniqsa u XI asrda Yava va Xitoy davlatlarida keng tarqalgan. Xitoydagи «Fonus xayol» teatrida qo'g'irchoqlar qo'tos, eshak, qo'ylarning terisidan qilingan. Ular har xil rangga bo'yalgan. Masalan, qo'g'irchoqning yuzi oq bo'lsa, u ayyor, qizil bo'lsa-dono, qora bo'lsa — saxiy degan ma'nolarni anglatgan. Agarda qo'g'irchoqning qo'lida qamchi bo'lsa-u otda, eshkak bo'lsa-qayiqda ketayotganini bildirgan.

Qo'g'irchoqlar yog'langan qog'oz yoki matodan qilingan ekranga zich tekkizib yurgiziladi. Ko'rsatuv vaqtida musiqa chalib turiladi. Voqeа tarixiy yoki ertak asosida bo'lishi mumkin. Xitoya hozirgi kunda ham bunday teatr mavjud bo'lib, u «Impuri» deb ataladi. Bunday teatr Yavada ham bor bo'lib, uning nomi «Vayan-puro»dir. Uning syujeti asosida qadimgi afsonalar yotadi. Qo'g'irchoqlar asosan hayvonlar terisidan tayyorlanib, tayoqchalarga mahkamlab qo'yiladi. Ular badiiy so'z ustasining hikoyasi yoki qo'shiq jo'rligida harakat qilishadi.

Bunday teatr Turkiyada ham keng tarqalgan bo'lib, ular «Qaraiz», deb ataladi. Tomoshalar odatda qahvaxonalarda ko'rsatiladi. Qo'g'irchoqlar yaxshi oshlangan teridan yasalib, asosan qizil va ko'k rangga bo'yaladi. «Fonus xayol» teatri Turkiyadan avval Italiyaga, so'ngra Angliya, Fransiya, Germaniyaga tarqalgan. XVIII asrning ikkinchi yarmi «Fonus xayol» teatrining Yevropada eng gullagan davri bo'ldi.

1775- yilda Londonda tashkil etilgan Ambruz teatri butun Uevropada gastrolda bo'lgan. Rassom Anri River rahbarlik qilgan «Shapuor» («Qora mushuk») teatri Parij va chet el mamlakatlari o'rtaida katta muvaffaqiyat qozongan.

Hozirgi kunda «Fonus xayol» teatri asbob-uskunalarining oddiyligi va ko'rsatishning osonligi tufayli borgan sari keng tarqalmoqda. Bunday teatr bolalarni estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. «Fonus xayol» teatrida ish hammaga topiladi, birining ishi ikkinchisining ish natijasiga bog'liq bo'ladi. Demak,

«Fonus xayol» teatri bolalar nutqini rivojlantirishda, ularning lug'at fondlarini boyitishda roli bebahodir.

«Fonus xayol» teatrining jahozi oddiy. Ingichka plyonkalar yordamida maxsus shirma-ekran yasaladi. U ayni bir vaqtda figura va dekoratsiyalar solinadigan chamadon rolini ham o'yndaydi.

Agarda ekranning hajmi 50x60 sm bo'lsa, har qanday chiroq yorug'lik manbai xizmatini o'tay oladi. Bunday teatrda qog'ozdan yasalgan dekoratsiyalar bevosita ekranga o'rnatiladi, shakllar ekranga taqab ushlanadi, ularning silueti shakllarning katta-kichikligi bilan bir xil bo'ladi.

«Fonus xayol» teatrini katta ekrandan ko'rsatish qiziqarli bo'la-di. Shakllar, dekoratsiyalar o'zgarmaydi, ammo ularning soyasi kattalashadi. Katta ekran uchun oddiy chiroqlar yaramaydi, ularning yonadigan simlari yarim doira shaklida bo'lib, proyeksiya vaqtida shakllar ekranda kattalashsa-da tarqoq, ikkilangan soya beradi. Bu o'rinda proyeksiyon chiroq, filmoskop chirog'idan foydalaniadi. Filmoskopni ekranga yoni bilan qo'yib, reflektorli orqa kojux ochib qo'yiladi. Ekranni har qanday yupqa materiallardan tayyorlash mumkin. Ekranni ikki xona o'rtasidagi eshik kesakisiga 80-90 sm balandlikda o'rnatiladi. Poldan ekrangancha bo'lgan joy qora material bilan berkitiladi. Xonalarning birida artistlar, ikkinchisida tomoshabinlar bo'ladi. Ekran orqasiga faner yoki qalin kartondan qirqilgan 25x40 sm o'lchamdag'i ramka qo'yiladi. Ramkaga dekoratsiyalar o'rnatiladi. Shakllar ramka ichida harakat qiladi. Bir bo'lak karton parda xizmatini o'taydi. Ekran va ramka orasidagi oraliq 120-130 sm, ramkadan yorug'lik manbaigacha 30-40 sm bo'ladi. Yorug'lik manbaini rangli narsa bilan to'sib va uni asta-sekin ochib, ekranda kechqurunni, tun va tongni yaratish mumkin.

Dekoratsiyalar kartondan yasaladi. Ularni qo'lda chizish, nusxa qog'oz yoki kalkadan o'tkazish yoxud andoza asosida qirqish mumkin. Dekoratsiyalarga tabiiy ko'rinish berish mumkin: agarda uy derazasiga qizil qog'oz yopishtirilsa, ekranda u yorug'roq ko'rindi yoki cho'pdan qilingan daraxt tanasiga kartondan shoxlar va ularga yupqa qog'ozdan barglar yopishtirilsa, ular hilpiraydi, ekranda esa barglar go'yo shamolda qimirlayotgandek ko'rindi. Agarda shartli tarzda dengizni ifodalovchi kun rangini asta harakatlantirib, uning ustidan kema yurgizilsa, ekranda to'lqinlar osha suzib ketayotgan kemani ko'rish mumkin bo'ladi. Teatr personajlari kartondan tayyorlanib, qora rangga bo'yaladi, ularni harakat qiladigan qilish ham mumkin. Personajlarni qo'lda chizish, nusxa

qog'oz yoki kalkadan o'tkazish mumkin. Agarda o'tkazilishi kerak bo'lgan rasm katta yoki kichik bo'lsa, rasmlarni kataklar bo'yicha ko'chirish usulidan foydalaniladi. Qo'g'irchoqlarda ko'z, og'iz teshiklari qilinadi, ulardan o'tgan yorug'lik figurani jonlantiradi. Figuraning bir yoki bir necha qismini harakatlanadigan qilish mumkin. Agarda figuraning biror qismi yupqaroq qog'ozdan qilinsa, unga jonlilik tusini berish mumkin bo'ladi (masalan, ilonning og'zidagi yupqa papirus qog'ozidan qilingan qizil til va shu kabilar). Qo'g'irchoqlar yasashda fantaziya cheklanmagandir. Shakllar ekran bo'ylab harakat qiladi, shuning uchun ularning old tomondan ko'rinishini yasash kerak, qimirlamay o'tiradigan yoki turadigan shakllar yon tomondan yasaladi. Shakllar cho'pga mustahkamlanadi, ularning uzunligi pastki to'siq bilan baravar, ya'ni 6–8 sm bo'ladi. Pastki to'siq qo'g'irchoqni o'ynatayotgan ijrochining qo'lini to'sib turadi. Tomosha vaqtida bir o'quvchi matnni o'qiydi, boshqasi shakllarni boshqaradi.

Ertak syujetini gapirib berish, personajlar nutqini berish bolalar nutqini erkin bayon qilishiga, tasavvurining kengayishiga yordam beradi. Xuddi shu maqsad uchun guruhda flanelegraf ham bo'lishi kerak. Vaqt, fazodagi sahna harakati bilan bog'liq bo'lgan teatr faoliyati joy va jihozlarning shunga muvosiq tashkil qilinishini talab qiladi.

Dekoratsiya elementlarini joylashtirish va personajlar figurasini harakatlantirish mumkin bo'lgan har qanday gorizontal tekislik stol teatri uchun sahna maydoni bo'la oladi. Ko'pincha bu stolning ustki qoplamasidir. Undan foydalanimda sahna harakati uchun sathni bir oz cheklashni unutmaslik kerak, aks holda, u yoyiq, noaniq bo'lib qoladi. Maxsus sahna ham tayyorlash mumkin. Uning atrofida bolalar bemalol harakat qilib, shakllarni yurgizadilar. Bu tekislikka rang berish, unda bo'ladigan harakatlarga muvosiq keladigan konstruksiya qilish va shu orqali bolalardagi arxitektura kompozitsiyasini his qilish sezgisini, dekorativ bezash qobiliyatlarini o'stirishi mumkin.

Teatr-o'yin faoliyatini jihozlashda chodirlar, shirmalar asosiy o'rinni egallaydi. Ularning mo'ljallanishi teatrlashgan harakatning harakteri va turiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Och yarim shaffof mato qoplangan soya teatr («Fonus xayol») chodirlari keng tarqalgan, unga maxsus yorug'lik tushirilganda personajlar figurasining tarhi aniq ko'rindi. «Fonus xayol» teatr shirmsining (chodir) ekrani figura va dekoratsiyalar bilan mos nisbatda bo'lishi

kerak. Shirma ijrochilar, bolalar yoki kattalarga ham, tomoshabinlarga ham qulay bo'ladigan qilib o'rnatiladi.

«Fonus xayol» teatri shakllarini, spektakllar uchun dekoratsiyalarni tarbiyachi bolalar bilan hamkorlikda tayyorlashi mumkin. Soya teatrning ekran yassiligidagi ochib berilayotgan harakati yassi chiziq-tarhli tasvirda beriladi. Qo'g'irchoq teatriga mo'ljallangan shirmaga ega bo'lgan chodir boshqacha jihozlanadi. U odatda tomoshabinlarning ko'zini charchatmaslik, e'tiborini asosiy voqealardan chetga tortmaslik maqsadida vazmin tusdagi bir tomonli mato bilan qoplanadi. Chodirning «qator» deb ataladigan old tomoni dekoratsiyalarni va personajlar ish ko'radigan boshqa teatr atributlarini o'rnatishni nazarda tutishi kerak. Bunday chodir soya teatri chodiri singari ijrochilar bo'yicha muvosiq bo'lishi kerak. Chodirning ich tomonidan tomosha ko'rsatish vaqtida qo'g'irchoqlarni bolalarga qulay bo'lishini nazarda turib joylashtirish maqsadga muvosiqdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida qo'g'irchoq teatrini tashkil qilish muayyan qo'g'irchoqlar dasturida tavsiya qilingan ertak personajlari, shuningdek, bolalarga ko'proq yoqadigan ayrim personajlarning mayjud bo'lishini taqozo qiladi. Teatr spektakllarining dekoratsiyalari hamda boshqa atributlari kattalar yoki bolalar tomonidan tayyorlanishi mumkin. Bunday holda bolalarning harakati sintetik xarakter kasb etib, tarbiyachi uchun bolalarning turli mustaqil ijodiy faoliyatlarini birlashtirish imkoniyati tug'iladi. Teatr tomoshalarini bezashda turli hajmli geometrik shakllarni turli kattalikdagi kublar, gullar, oval yoki dumaloq shakllarni birlashtirishda katta imkoniyatlar mavjud.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarning teatr faoliyatları uchun joyni tashkil qilish va bezash, bolalarda bu faoliyatga nisbatan doimiy qiziqishini saqlash, ularning teatr-o'yinda ishtiroy etishlariga rag'bat berish uchun mas'uldir.

Aytib o'tilgan chodirlardan tashqari rollarni bolalarning o'zlarini ijro etadigan o'yinlarni jihozlashda foydalanish mumkin bo'lganlari ham mavjud. Bu ikki tabaqali, turg'un, mustahkam o'mashadigan chodirlardir. Ularning konstruksiyasi oddiy, osongina yig'ishtiriladi, shuning uchun saqlash, qayta jihozlashda qulayliklarga ega. Ularni ijro etiladigan sahna maydonchasiga o'rnatish lozim. Afsuski, bunday chodirlar bolalar bog'chalarida kam qo'llaniladi, ularning o'rniiga an'anaviy uychalar, o'rindiqchalar, buta yoki daraxtchalarni uchratish mumkin.

Holatlarni harakatlar yordamida qayta ko'rsatish usuli juda samaralidir. Bunda gap improvizatsiya haqida, hammadan ko'proq esda qolgan sahnalarni qayta berish to'g'risida boradi. Improvizatsiya – bolalar idrokining emotsionalligi va samimiyligini, sahnada ko'rilgan narsalarni ham fikran, ham harakatlar yordamida takrorlash imkonini beradi.

Bolalar ongiga milliy urf-odatlarimizni, an'analarimizni singdirishda, ularga shu aziz Vatan barchamizni ekanligini uqtirish, har tomonlama ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda, qo'g'irchoq teatrining ahamiyati kattadir. Chunki teatrda tomoshabinlar tomoshalarni faqat ko'rib, tinglabgina qolmay, balki unda mustaqil ishtirok etadi. Bolalar qo'g'irchoq teatrini ko'rganlardan so'ng, qahramonlarning harakati, axloqi, adobini birgalikda muhokama qiladi, bu bola qalbida ezgulikka, xayrli ishlar qilishga, odamlarga yaxshilik qilishga intilish tuyg'usini tarbiyalaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ko'ngil ochish soatlarida quyidagi teatr turlaridan foydalaniлади:


1. Soya teatri.
2. Stol teatri.
3. Barmoq teatri.
4. Paxmoq teatri.
5. Qo'g'irchoq qo'lqop teatri.

**Soya teatri** – qo'g'irchoq teatrining o'ziga hos turlaridan hisoblanadi. Unda qo'g'irchoqlar emas, balki shakllardan iborat o'yinchoqlar o'ynaydi. Tomosha qiluvchilar sahna ro'parasida o'tirib, ekranda yorug'lik orqali harakatlanayotgan soyalar: odamlar, hayvonlar va qushlar soyasini ko'rishi mumkin. Soya teatri uchun odam va hayvon soyalarini bolalarning o'zлari chizib, qirqa oladilar. Bolalarga shakllar boshlari, dumlarini qimirlatadigan qilishni o'rgatish kerak, buning uchun tarbiyachi yordamida detallarni simlar bilan biriktirib, spiral holatda aylantirib qo'yiladi. Harakatlanuvchi qismlar qattiq simdan tayyorlanadi. Bunday o'yinchoqlarni shablon yordamida yoki o'zлari o'ylab, soya chizadilar. Bolalar detallarni qirqib olganlardan so'ng figuraga ko'zini qilish kerakligi taklif etiladi. Tarbiyachi ko'z o'mnini o'tkir asbob bilan teshib beradi, bolalar qalam yoki mo'yqalam tayoqchasi bilan teshikchani kengaytiradi va yaltiroq qog'oz bilan ko'zini yelimlaydi. Bolalar yelimga qora bo'yoq aralashtirib ko'zini chizib qo'yishlari mumkin.

Teatrni ko'rsatishlari uchun tarbiyachi ekranni yupqa matodan yoki kalka qog'ozidan 2x1,5 metrli ramkaga sirib tayyorlaydi.


Buning uchun 100 voltli lampa kerak. Chiroq quti ichiga joylashtiriladi, ichi qora rangga bo'yaladi. Tarang qilib sirilgan matoga qog'ozdan dekoratsiya jihozini applikatsiya qilib qo'yish mumkin. Bolalar o'zлari tayyorlagan figuralarni ekranda ko'rib, shodliklari beqiyos bo'ladi, ularning kichik shakllari mo'jiza kabi ko'rindi. Soya teatrini bolalarga kattalar qo'yib beradilar.

Avvalo karton yoki faner orqali ekran yasalib, ekran yupqa oq doka surp bilan tortib mahkamlanadi. So'ngra har bir guruh yoshiga mos ravishda ertakni tanlab, uning qahramonlarini kartonga tushirib, juda ehtiyyotkorlik bilan qirqiladi. Keyin u qora guash bilan bo'yaladi va qirqiladi. So'ngra yorug'lik tushirilib, sahnalash-tirilgan ertak namoyish qilinadi.




**Stol teatri.** Stol teatrining bir necha turi mavjud: birida pyesa oddiy sahnada – pardasiz shirmada, boshqasi qutichaga o'xshash sahnada (karton teatr), uchinchisi, yassi teatrda namoyish qilinadi. Cahna ikki bo'lak kartondan qilinadi. Bu teatrlardagi «artistlar» qo'l bilan, tagliklar, sim va magnit orqali turlichcha harakat qiladi. Shakllarning tuzilishi ham turlichadir. Ish ertak yoki masal tanlashdan boshlanadi, so'ngra unga mos personajlar tayyorlanadi. Jonivorlar shakllarini bolalar badiiy kitoblardan kalkaga ko'chirishlari mumkin. Kalkadagi rasm nusxa qog'oz yordamida ikkita oq qog'ozga tushiriladi. Bu rasmlar rangli qalam bilan bo'yab, bittasini kartonga yopishtiriladi va kartonni shu rasm tarhi bo'yab qirqiladi. Kartonning ikkinchi tomoniga ikkinchi rasm yopishtiriladi,



shu bilan figura tayyor hisoblanadi. Shundan so'ng yarimta g'altak va cho'p orqali balandligi 9–10 sm bo'lgan taglik tayyorlanadi. Cho'pning uchiga figura o'rnatiladi, g'altak yiqilib tushmasligi uchun uning tagiga doira qilib qirqligan karton yopishtiriladi.



Sahna-shirma figuraning tagligi ko'rmasligi uchun butunlikda qilinadi. Shirmani bo'yash yoki unga rangli qog'oz yopishtirish kerak. Shirmadan 20–22 sm oraliq dekoratsiya o'rnatiladi. Agarda o'rmon, dala, daryo, tog'larni tasvirlash lozim bo'lsa, muvofiq keluvchi suratni topib, unga oq ramka qilish, rasmni kartonga yopishtirish kerak. Dekoratsiyani yarim doira shaklida egish ham mumkin. Sahna-shirma stol ustiga qo'yiladi, uning orqasida esa figuralarni yurgazadigan va ular uchun gapiradigan o'quvchilar turadi. Agarda pyesa davomida dekoratsiya o'zgarib turishi kerak bo'lsa, kitob sifatlari qilib birlashtirilgan kartonga yopishtirilishi lozim. Uning har bir sahifasida bitta dekoratsiya bo'ladi.



Agar quyonni yasash kerak bo'lsa, avval butun figurani, so'ngra uning oldingi oyog'ini bir oz uzunroq yasab qirqib olinadi. Bu old oyoqqa sim o'tkaziladi. U mana shu sim vositasida boshqariladi. Tayyorlab qo'yilgan old oyoqqa teshik qilinib ip o'tkaziladi, ipning bir uchi oyoqqa bir parcha qog'oz bilan tutashtiriladi va ipning ikkinchi uchi figuradan o'tkazilib tarangroq qilib tortiladi va figuraning ich tomoniga yopishtirib qo'yiladi. Quyida ertak asosida stol teatri qahramonlari namunalari berilgan:





**Karton teatrning jihozlari.** Karton teatrida kartondan yasalgan yassi va hajimli qo'g'irchoq figuralar ishtirok etadi. Bir tomonlama shakllar ip, sim va shu kabilar yordamida faqat bir tomonga harakat qiladi. Karton teatrida yuqorida turib ip, sim bilan boshqariladigan shakllar ham qatnashadi, ular engil harakat qiladilar, burila oladilar. Sahna uch bo'lak karton yoki fanerdan yasaladi. Sahnaning asosiy qismlari: orqa devor, pol va oldi peshtoqli devordir. Devorlarga ikki tomondan karton polosalar yopishtiriladi, bu polosalarga dekoratsiyalar osiladi.

Dekoratsiyalarni ularning o'zlaridan kattaroq kartonga yopish-tirish kerak, chunki ularda osgichlar qirqiladi. Pardaning rasmi ham o'zidan kattaroq kartonga yopishtiriladi, bu uni ko'tarish va tushirishga qulaydir. Ko'pgina spektakllar uchun harakatlanuvchi dekoratsiyalar kerak bo'ladi. Bunday dekoratsiya shakllarning tez harakat qilayotganligini bildirish uchun qo'llaniladi. Harakat-lanuvchi dekoratsiya 3–4 metrli qog'oz lentadan ishlanib, orqa devorga qilingan teshikdan o'tkaziladi va kerak vaqtida tortib, harakatga keltiriladi. Aytaylik, figura chap tomonga harakat qildirilmoxchi bo'lsa, dekoratsiya o'ng tomonga tortilib tez harakat

qilayotgandek tasavvur hosil qilinadi. Sahna boshqacha qurilishi ham mumkin, bunday holda uning old qismi trilyajga o'xshaydi. Unda peshtoq-sahna oynasi qirqiladi. Bunday holda oyna orqasida undan 2–3 sm oraliqda ingichka dumaloq cho'p o'rnatiladi. Cho'pni o'rnatishdan oldin unga 10 tacha sim aylanalar kirkizilib, ularga suriladigan parda o'rnatiladi. Pardani burma qilish uchun kengroq bo'lishi kerak. Punktir bilan agarda ijrochilarning qo'lini yashirishning hojati bo'lmasa, olib tashlanishi oson 9–10 smli bo'lgan taxtacha ko'rsatilgan. Sahna bunday qurilganda dekoratsiyalar ko'p qavatli parda ko'rinishiga ega bo'ladi yoki karton doiraga joylashadi.


Bu doira ingichka mixda aylanib, dekoratsiyani tezda almashtrish, ba'zi hollarda harakatlanuvchi dekoratsiyani ko'rsatish imkonini beradi. Dekoratsiyalarning tez almashishi uchun ularni kanselyariya nakolkasiga o'xshash vertushkaga o'rnatiladi. Bu doira taxtaga o'rnatilgan bir bo'lak yo'g'on simdir. Doira yoki vertushka orqasiga doka yoki tyul tortilgan uch ost ramkadan iborat parda joylanadi.

Doka ko'k yoki och ko'k rangga bo'yaladi. Bunday to'siqdan ijrochilar sahnani bemalol ko'rib tura oladilar va shakllarni ishonch bilan boshqara oladilar. Sahnani yoritish katta ahamiyatga egadir. Ularni shunday joylashtirish kerakki, ular sahnani yoritsinu nuri tomoshabinlarga tushmasin.

Musiqa barcha teatr postanovkalarining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, spektakl musiqali kirishdan boshlanadi. Musiqali tanaffus vaqtida dekoratsiya almashadi. Tovush va yorug'lik effekti bilan birikkan musiqqa «Fonus xayol» teatrida ham, stol teatrda ham mukammal badiiy tasvirni yaratish imkonini beradi. Bu teatrlarda ovozga taqlid qilish, xo'rozning qichqirishi, mushukning miyovlashi, ayiqning o'kirishi hamda shovqin effektlari – yog'ayotgan yomg'ir ovozi, parovozning pishillashi va shu kabilardan foydalaniladi.

**Barmoq teatri.** Yoz oyida bolalarning o'z qo'llari bilan yasagan o'yinchoqlaridan o'yinchoq teatrlari, stol va barmoq teatrlari tashkil qilganda foydalanish mumkin. Bunda bolalar nafaqat oddiy tomoshabin bo'lib qolmasdan, ular mehnat qiluvchi, ijodkorga aylanib, o'zlaridan kichik ukalariga teatr ko'rsatish bilan ularni xursand qiladilar.

Barmoq teatri qahramonlarini qog'ozdan yasash mumkin. Bu kichik konus va silindr shaklidagi barmoqqa kiyish uchun yasalgan.



Qog'ozdan odam, hayvonlarning kichik shaklida barmoqqa tasvirini tayyorlab, uni barmoqqa qog'ozdan uzuk shaklida yasalgan qog'oz halqaga yelmlanadi va barmoqqa kiyib olinadi. Teatr qahramonlarini kichik qutichalardan ham yasash mumkin. Qutichalarning tag tomonidan barmoqni kirgizish uchun joy tayyorlab, qutichaga xohlagan qiyofa berish mumkin. Qutichaning qulay tomonidan barmoq sig'adigan kichik teshikcha qilib qo'yiladi, masalan: gugurt qutisidan, kublardan, dumaloq shakldagi qutichalardan va boshqalardan.

Barmoq teatri uchun turli xil gazlamalardan foydalanish ancha keng tarqalgan. Bunda gazlamaning sitilib ketmaydigan xili tanlanadi va uni teskari tomonidan tikib, so'ngiga o'ngiga ag'dariladi, qolgan joyi tikib chiqiladi. Bolalarga andozaning teskari tomonidan tikishni, ko'z, qosh, burun, og'iz kabilarni tikish yoki yopishtirish kerakligini aytib, ularni bajarishga undash mumkin. Bolalar mustaqil soch, jiyak, lenta va to'rдан bezaklarni o'zları tikadilar. Porolondan ham barmoq teatri qahramonlarini yasash mumkin. Porolondan turli qahramonlarning bosh qismini tayyorlab, barmoqqa kiygazish joyini qilib, qahramonlarni bezatishda matolardan ham foydalanish mumkin. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari ishtirokida barmoqqa kiyish uchun qahramonni barmoqqa

mos qilib bichib, usti tomonidan «halqa» choki bilan, ba'zan esa to'g'ri chok bilan ichki tomonidan tikib, o'ngi tomoniga o'giriladi. Detallarni bolalar o'zлari tugmacha, jun iplar yordamida jihozlaydilar.

Barmoq teatrini qog'oz quyqasidan ham yasash mumkin. Bunda qog'ozdan silindr yasab, barmoqqa mos qilib qog'oz quyqani silindrga kirkiziladi, co'ng xohlagan shaklni yasash mumkin. Qu'rigandan keyin bosh qismlar bo'yaladi. Ularga ba'zi detallarni qog'ozdan qirqib, yelimlab qo'ysa ham bo'ladi. Masalan: qulqlarni, ko'zlarni tugmachadan, matolardan, turli iplardan sochlarni qilish mumkin. Bunday o'yinchoqlarni katta mакtabgacha yoshdagи bolalar mustaqil bajaradilar. Kartonga chizib qirqilgan shakllardan: qizcha qushcha, hayvonlar boshining orqa tomoniga kichik karton kog'oz qoldig'idan barmoq sig'gulik qilib yopishtirib qo'yish mumkin.

Barmoq teatri boshqa teatrlar kabitdir, lekin uning farqi shundaki, har bir ertak qahramoni bolalarning barmoqlariga mos kichik yoki ertak ko'rsatuvchining barmog'iga to'g'ri keladigan qilib tayyorlanadi.

**Dikir-dikir o'yinchoqlar.** Dikir-dikir o'yinchoqlarni yasash uchun kichik kartonga odam va hayvonlar tasvirini chizish kerak, ularning oyoqlari esa chizilmaydi. Chizilgan tasvirni qirqib olamiz. Shakllarni kaftimizning orqa tomoniga rezina bilan mustahkamlab, ko'rsatgich yoki o'rta barmoqqa atir shisha qop-qog'ini kiyib, rezina bilan mustahkamlab, stolda shakllarni yurgazamiz. Ularni choptirish, o'yinga tushirish mumkin. Katta, tayyorlov guruh bolalari bunday o'yinchoqlarni mustaqil yasay olishadi.

**Qo'lqop qo'g'irchoqlar** (barmoqsiz qo'lqop). Eski qo'lqopcha, qo'lqop qo'g'irchoqlarni yasash uchun ashyo bo'la oladi. Bunday o'yinchoqlarni ham bolalarning o'zлari yashchlari mumkin. Qo'lqop qo'g'irchoqning bosh qismi, katta barmoq esa, burun bo'lib xizmat qiladi. Qo'lqopni to'liq hayvonga nylantirib olish ham mumkin, bunda katta barmoq dum vazifasini o'taydi. Qo'lqop qo'g'irchoq tanasi bo'lishi, unga bosh va boshqa detallarni biriktirish ham mumkin. Qo'lqop topilmasa, unda to'qilgan eski buyum yoki matodan foydalanamiz. Bunda bichishda barmoq o'rnini bichish shart emas, turli detallar unga tikib qo'yiladi.

**Qo'lqop qo'g'irchoqlar** (barmoqli qo'lqop). Qahramonlarni eski qo'lqoplardan tayyorlasa bo'ladi. Agar eski qo'lqop topilmasa,

uni tikish mumkin. Bolalarga tavciya etiladigan qo'lqopning andozasi (besh barmoqlimas, to'rt barmoqli) bo'lishi mumkin. Detallarni bolalar bichib, halqa choki bilan tikadilar. Bosh qismini chizib yoki tikib, belgilangan joyga birlashtirib qo'yish mumkin. Qo'g'irchoqning asl nusxasini eski qo'lqopdan tiksа bo'ladi. Ortiqcha detalini punktir chizig'i bilan belgilab, olib tashlanadi va xohlagan ertak qahramonlariga ega bo'lish mumkin. Qo'lqopga paypoqdan ozgina ulib qo'yilsa, qo'lga kiyib, tugmachadan ko'zlarini qilib qo'yilsa, qo'l barmoq harakati bilan gapirayotgan xarakat holatini ko'rsatish mumkin. Bolalar bunday qahramonlarni o'zлari yasay oladilar, ayniqa ikki eski qo'lqopdan yasalgan o'yinchoq: kuchukcha, mushukcha, quyoncha, bo'ri, tulkichalarni tayyorlash qiyin emas. Qo'lqopning ko'rsatgich va katta barmog'i dum bo'ladi, uning ortiqcha qismlari tikib tashlanadi. Qahramonlarning ayrim detallarini jihozlashda tugmachalar, dur donachalarini ishlatish mumkin. Bunday o'yinchoqlardan bolalar sahnalashtirish faoliyatida foydalananadilar.

**Paxmoq teatri. Paxmoq teatrining tuzilishi va jihozlari.** Ma'lumki, bolalarning dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishda turli o'yinlar va teatrlashtirilgan tadbirlarning ahamiyati kattadir. Bunda stol ustida o'ynaladigan qo'g'irchoq o'yinchoqlar teatridan keng foydalanildi.

Paxmoq teatrining o'ziga hos tomoni shundaki, kichkintoylar, asosan, ertak qahramonlarining aynan o'zini ko'radir. Personajlar paxmoq ekranga yopishtiriladi. Ecran tayyorlash uchun balandligi 40, uzunligi 60 sm li qalin karton yoki faner ustiga paxmoq gazlamasi yaxshilab yopishtiriladi. Bolalar uchun mo'ljallangan paxmoq teatri ertak ishtirokchilari, personajlar, dekoratsiyalar, ertak matni, boshlovchi ertakchi bobo yoki momolardan iborat bo'ladi.



Paxmoq teatri uchun personajlar quyidagicha tayyorlanadi – personajlar karton qog'ozdan qirqib olinadi va rangli bo'yoqda, guashda bo'yaladi. Tayyor bo'lgan personajlar ertak matni bilan birga papkaga solib qo'yiladi.


**Quticha qo'g'irchoq.** Qo'g'irchoqning bosh qismi uchun turlituman qutichalarni moslashtirish mumkin (qaymoqdan, sutdan bo'shagan kubik, silindr shaklidagi idishlar). Asosiysi unga bolaning qo'li sig'ishi kerak. Bolani o'zi xohlayotgan mavzuga mos qutichalarni to'plab qo'yishga o'rgatish kerak, detallarini esa, turli ashyolardan qirqish va yelimlash mumkin. Buning uchun bolalarga jihozlash uslubini ko'rsatish kerak. Bolalar bilan shunday




o'yinchoqlar rasmlarini ko'rib chiqish yasashning ikki varianti mavjud: figuraning butun yoki bosh qismini aks ettirish.


Bunda bolalar qo'lga matodan yubka kiyib, mustaqil tika oladilar. Qo'l barmoqlari quticha ichiga berkitilgan. Bunday qo'g'irchoqlardan gapiruvchi qo'g'irchoq qilish mumkin. Bolalarga og'zini qilish uchun tuynukcha qirqishga yordam berish kerak. Qutichaning ichidan tuynuk oldini ko'rsatkich barmoq bilan qimirlatsa, go'yoki qo'g'irchoq gapirayotganday tuyuladi.

**Sakrovchi o'yinchoq.** Bunday teatr qahramonlarini yasash uchun dumaloq rezina kerak bo'ladi. Qog'oz bo'laklaridan quyuq massa hosil qilish, rezina esa shu quyuq massa ichida qolishi kerak. Bu quyqadan har-xil qahramonlarning bosh qismini yasash mumkin. O'yinchoqni yasashda qog'oz, turli mato, porolon, sim, kleyonka kerak bo'ladi. Bolalar hayotini muhofaza qilish maqsadida elektr simlar, to'g'nag'ich, skrepka, spitsa va hokazo shikastlantiruvchi asboblardan ehtiyoj bo'lish kerak. Quyida barmoq teatridan namunalarini berilgan:












**Quyidagi rasmlarda qo'lqop teatri uchun  
namunalar keltirilgan**











Quyida qo‘g‘irchoq teatri uchun andozalar  
namunalari berilgan







170



101







---

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TABIIY VA TASHLANDIQ MATERIALLARDAN O'YINCHOQLAR YASASH. O'SIMLIK BARGLARI VA URUG'LARIDAN APPLIKATSIYA

**O'simliklarni quritib olish.** O'simliklarni to'plash va quritib olishda gazeta, gerbariy papkasi, qaychi, paxta bo'lishi kerak. O'simliklarning gullari, barglari, poyasi va shu kabilarni to'plash maqsadida ekskursiyaga chiqilganda bir juft gazeta, qaychi bo'lishi shart. Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tartib bilan joyланади. Gullarni qo'l bilan sindirib olib bo'lmaydi, aks holda, poyasi zararlanishi mumkin. Quritib olishga mo'ljallangan o'simliklar har qanday namlik (yomg'ir yoki shudring)dan xoli bo'lishi kerak, aks holda, o'simlik quritilganda unda dog'larning izi qoladi. Quritilayotgan o'simliklarda tabiiy rangni asrab qolishning eng muhim sharti ularni shamol o'tib turadigan joyda, yelvizakda, quyosh nurida tez quritib olishdir. O'simliklarni quritish 3 sutkadan ortiq davom etmasligi kerak. Turli o'simliklarni to'plashning o'z muddatlari bo'ladi.

Tabiiy materiallarni to'plash, avvalo, insonning oldiga qo'ygan maqsadga bog'liq bo'ladi. Masalan: barglarni, gullarni, urug'larni to'plab, keyin ulardan nimani va qanday ishni bajarishni aniqlab olish lozim.

**Barglarni gerbariy ramkalarida quritish.** Gerbariy ramkalarida quritilgan o'simliklarning ko'pchiligi o'zining tabiiy rangini saqlab qoladi. Bunda o'simlik yumshoq qog'oz va gazeta orasiga solib qo'yiladi. Har bir qog'oz va o'simlik orasiga yana bir necha qavat gazeta qo'yiladi, chunki quritilayotgan o'simliklar o'zidan namlik chiqaradi. Shundan so'ng ikkita to'rsimon ramka o'rtasiga qo'yilib ochiq havoda quritiladi.

**Taxtakachda bostirib quritish.** Orasiga o'simlik solingan qog'ozlar gerbariy papkasi o'rniغا ikkita faner listlari o'rtasiga joyланаб, og'ir narsa bilan bostirib qo'yiladi. Og'irlilik taxtakachda qancha o'simlik joylashtirilishiga bog'liq. Mayda nozik o'simliklar kam og'irlikni, quritish uchun kamroq vaqt ni talab qiladi. 2-3 soatdan keyin ustiga qo'yilgan qog'ozlar almashtiriladi. Nam


bo'lgan qog'oz olib tashlanib, yangisi qo'yiladi. Quritish shu usulda davom ettiriladi.

Quritishning yana bir usuli dazmoldan foydalanishdir. Issiq dazmolda barglar, moyalar, maysalar, gullar quritiladi. Masalan: qavat-qavat gazeta yoki yumshoq qog'oz orasiga o'simlik qo'yib, ustidan dazmol yurgiziladi. So'ngra ust qavatidagi gazetani olib, shamollatiladi va quruq joyga qo'yiladi. So'ngra gazetani yopib yana dazmollanadi. O'simlik 2-3 daqiqada quriydi va o'zining rangini yo'qotmaydi. Agar quritilayotgan narsa ko'tarilganda o'z tanasini yaxshi ushlab tursa, u yaxshi quritilgan hisoblanadi. Agarda u sinib, maydalanim ketsa, bilingki, siz uni ortiqcha quritib yuborgan hisoblanasiz. Barglardan ijodiy ishlar bajarishda quyidagi namunalarni tavsiya qilamiz. Marhamat, o'zingiz ham bajarib ko'ring.
















## SOMONDAN APPLIKATSIYA



**Poxol** (somon). Poxol-somondan sanoatda to'qish va dekoratsiya, applikatsiya ishlarida (qutichalar, panellar, qalamdonlar) va shu kabilarga bezak berishda foydalaniлади. Bu maqsadda bug'doy, javdar, arpa somonlari ishlatiladi. Agarda bu o'simliklarning poyasi yaxshilab qaralsa, poyaning o'zaro bo'g'imir bilan birikkanligini, eng yuqoridagi qismi ingichkaroq, uzunroqligini ko'rish mumkin. Poyani ana shu bo'g'imirlardan qirqib olib qismlarga ajratiladi. Qirqilgan poya qismlari ko'rinishi va uzunligiga ko'ra navlarga ajratiladi: eng uzuni birinchi nav, kaltarog'i ikkinchi, eng qisqasi uchinchi nav bo'ladi.

Applikatsiya va bezash ishlarida ishlatishdan oldin somon bog'lami tog'oraga solinib, ustidan qaynoq suv quyiladi va u tog'orada bir sutka saqlanadi. So'ng uni tog'oradan olib, suvi silqitib tushiriladi va har birini uzunasiga o'rtasidan bo'linadi. Qirqqanda pastdan yuqoriga qarab qirqiladi. So'ngra somonning qirqilgan tomonini pastga qaratib qo'yib, iliq-qilib dazmollanadi. Dazmolning qiziganlik va dazmollah vaqtiga ko'ra somonni turli rangga kiritish mumkin. Masalan, och-sariq, sariq, och jigar rang, jigarrang. Dazmollangan somon ehtiyyotlik bilan qutichaga solib qo'yiladi. Agardə somondan biron narsa yoki qo'g'irchoq to'qiladigan bo'lsa, uni tog'oradan namligida olib, 4—5 somondan iborat lenta to'qiladi yoki bog' qilib bog'lab, qo'g'irchoq yasaladi,

to'qilgan somon lentadan shlyapalar va shu kabilar to'qish mumkin. Yong'oq, cho'chqayong'oq, meva va poliz ekinlarining urug'lari (danaklari) keng tarqalgan, toplash va saqlash oson bo'lgan material hisoblanadi. Yong'oqqa ishlov berish oson hamda u pishiq materialdir. Agar yong'oqni, ayniqsa eryong'oqni diqqat bilan kuzatib faraz qilinsa, u yoki bu obraz (yong'oq – toshbaqa, qo'ng'iz – qayiqcha yeryong'oq – qush, jonivorlar, ular tanalarining ayrim qismi) kishi ko'z o'ngiga keladi.

Eman daraxti mevasini yetilgan vaqtida usti yumshoqligida terib olish va ular ortiqcha qurib ketmasligi uchun issiqlik manballaridan uzoqroqda saqlash kerak. Ana shunday qilinganda ularni teshish, qismlarga ajratish qiyin bo'lmaydi. Eman daraxti mevasini pallasi bilan birga yig'ish kerak, chunki ulardan mustaqil narsalar yasash yoki narsalarning bezagi sifatida foydalanish mumkin. Meva va poliz ekinlarining urug' (danak)larini yaxshilab yuvish, artish, quritish hamda qutichalarga solib qo'yish kerak. Qamish, g'o'zapoyani yaxshilab tozalash va ularni uzunliklariga moslab yasalgan quticha, g'iloflarga solib qo'yiladi. Quyidagi rasmlarda somondan bajarilgan applikatsiya ishlari namunalari keltirilgan:







---

## **TABIY VA TASHLANDIQ MATERIALLARDAN O'YINCHOQLAR YASASH**

Tabiiy materiallar tarbiyachi rahbarligida ekskursiyalarda to'planadi. Ekskursiya uyuşdırışdan oldin bolalarga bo'lajak ish namunasi ko'rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko'rib, unda ishlatalgan barg plastinkalarining shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. Shundan so'ng uyuşdırılıdigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya marshrutida alohida e'tibor beriladigan obyekt (eman, zarang, akatsiya daraxtlari, hasharotlar, ninachi)lar aniqlanadi. Bolalarning e'tiborlari va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan obyektning zarur bo'lgan asosiy muhim belgilari va xususiyatlarini ajratishga, to'planayotgan materialni to'g'ri baholashga yo'llaydigan savollar tuziladi.

Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko'tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari bolalarni ajablantiradi. Ular kuzning butun go'zalligini, uning ranglarini, to'kilgan barglar hidi va ular o'zining elastiklik xususiyatini yo'qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo'lib qolganligini ko'rardilar. Bolalarning atrof-tabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e'tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtida o'simliklarda sodir bo'layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli shaklda bayon etib beriladi. Shundan keyin bolalarning e'tibori atrofsda uchib yurgan kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi. Uchib yurgan hasharotlar ularning tuzilish shakllari mehnat darslarida hasharotlar applikatsiyasini tayyorlash uchun obraz, to'plangan barglar material xizmatini o'tashi kerak.

Bolalar barglarni to'plar ekanlar, ularning ranglari, shakllarini qiyoslashni o'rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligini o'stirishga yordam beradi. To'plangan barglar oldindan tayyorlab qo'yilgan daftar varaqlari orasiga qo'yiladi. Shundan keyin bolalarga barglarning mehnat mashg'ulotlarigacha rangini yo'qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har

bir ekskursiyada bolalarning e'tibori insonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etilishi kerak. Ekskursiya oxirida unga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umum-lashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga kapalak va ninachilar tasviri tushirilgan rasmlarni ko'rish, ularning tanasi va qanotlaring shakli, rangi qandayligiga alohida e'tibor berish topshiriladi.

Bunday uyuştirilgan ekskursiyadan keyingi mashg'ulotda bolalar applikatsiyalarni zo'r ishtivoq bilan namoyish qiladilar, agarda applikatsiyani o'z istaklariga ko'ra, o'zлari to'plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi. Bunday mashg'ulot quyidagi sxemaga ega bo'lishi mumkin:


1. Mashg'ulot mavzusi va maqsadini aytish.
2. O'tkazilgan ekskursiya bo'yicha suhbat quyidagicha bo'ladi:
  - ekskursiyada qayerda bo'ldik?
  - qanday daraxtlarni ko'rdik, ularning nomi qanday?
  - ularning barglarining shakli bir xilmi?
  - qanday hasharotlarni ko'rdik?
3. Namuna tahlili:
  - kapalak qanday qismlardan tashkil topgan?
  - uning qismlari qanday joylashgan?
  - uni tasvirlashda qaysi daraxtlar barglaridan foydalanilgan?
4. Ishni bajarish tartibini aniqlash:
  - kapalakning ayrim qismlari (tanasi, qanotlari)ning joylashishi tasvirlash;
  - kapalakning tanasi va qanotlari uchun shakli hamda o'lchamlari bir xil bo'lgan barglarni topish;
  - ularni qog'ozda joylashtirish;
  - ishni amaliy bajarish.
5. Tarbiyachining ishni bajarish usullari haqidagi tushuntirishlari.
6. Applikatsiyani bajarish bo'yicha mustaqil ish:
  - kapalakning ayrim qismlarini qog'ozda to'g'ri tasvirlash;
  - shakl, o'lcham va bo'yoqlarini to'g'ri tanlash;
  - yelimlash ishlarini tartibli bajarish;
  - kapalakning ko'z va mo'yalarini to'g'ri tasvirlash;
  - ish bajarilgan qog'ozning orqasida barglaridan foydalanilgan daraxtlarning nomlarini yozish;
7. Ishni baholash.


**Ijodiy xarakterdagи ishlар.** Masalan: «Baliqlardan kompozitsiya tuzish». Tarbiyachi umumiy vazifa beradi, bolalar esa, tarbiyachi namunasi asosida o'z variantlarini izlaydilar.


Tarbiyachi doskaga baliq rasmi tasvirlangan plakatni osib qo'yib, bolalar bilan birgalikda baliq tanasi, baliqning boshi, qanotlari, dumining shakli tahlil qilinadi. Baliq turiga ko'ra uning tanasi, qanot va dumlari har xil bo'lishi mumkinligi aniqlanadi, shuning uchun bu ishda turli tabiiy materiallardan foydalanish mumkin bo'ladi. Shundan so'ng ishni bajarish tartibi aniqlanadi. Avval baliq qismlari uchun material tanlash, uning umumiy tarhini chizish kerak. Shundan keyin qaysi detalning qanday tartibda yelmlanishini, detallarning joylarini aniqlash lozim, so'ngra ishga kirishiladi. Bunday yumushlar bajarilayotgan ishga ijodiy yondoshishni o'stirishga yordam beradi. Mashg'ulotga yakun yasash va bajarilgan ishni baholashda tarbiyachi foydalanilgan materiallar nomini so'raydi.

Bu tabiiy materiallar bilan ishslash mashg'ulotining taxminiy tuzilishidir.

Quyida jo'xori so'tasi, eman daraxti mevasi, kashtan mevasi, qush patlari, archa daraxti mevasi, na'matak mevasidan tayyorlangan o'yinchoq namunalari ishlangan:









Tabiiy materiallardan «**Tizimcha**» yasash, kartondan «**Stakan-chä**», matodan «**Mo'yqalam artgich**», «**Ninachi va chumoli**» yasash mumkin.

**Mashg'ulotning vazifalari.** Bolalarni tabiiy materiallardan foydalanib, turli ashyolar yasashga o'rgatish. Qo'l mehnati bilan shug'ullanishga o'rgatishni davom ettirish. Bolalarda o'zlarining mehnat ko'nikmasi va malakalarini mustaqil ravishda qo'llashni, unga intilishlarini tarbiyalash. Bolalarni tabiatni asrash va muhofaza qilishga o'rgatish. Mashg'ulotni jihozlash: dub daraxti, kashtan daraxti mevalari, na'matak guli mevasi, patlar, plastilin, novdachalar, karton qog'oz, yelim, ip, igna, mato qiyqimlari.

#### **Mashg'ulotning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, o'lkamizda oltin kuz fasli kezmoqda. Bilamizki, kuz faslida sabzavot, mevalar pishadi, to'g'rimi? Manzarali daraxtlarning mevalari ham pishib, ko'chalarimizda, xiyobonlarda ostiga to'kilib yotibdi. Bilasizmi, bolalar bugungi mashg'ulotimizda sizlar bilan ana shu manzarali daraxt mevalaridan o'yinchoqlar yasaymiz. Faqatgina o'yinchoqlar emas, ilk marta birinchi sinfga boradigan o'quvchi kichkintoylarimiz uchun hisob-kitob mashg'ulotida foydalanish mumkin bo'lgan tizimchalarni ham yasaymiz. Tizimcha yasalishi uchun qalinroq ip

olamiz-da, kashtan mevasini teshib, ip o'tkazamiz. Bolalar dastlab 10 raqami ichida sanashni o'rganishlari sababli, tizimchaga 10 ta mevani ipdan o'tkazib chiqamiz. Bu tizimchani eman daraxti mevasidan ham tayyorlash mumkin. Agar meva bir oz qurib qolgan bo'lsa, ozroq suvgaga solib qo'yilsa, ustki po'stlog'i yumshaydi va tizimchani tayyorlash mumkin bo'ladi. Qani, kim sanab beradi?

Bolalar javob berishadi.

**Tarbiyachi:** — Barakalla, bolalar, sizlar bilan mana bunday stakanchalar tayyorlaymiz. Kvadrat shaklidagi karton qog'oz olib, undan doira qirqamiz. So'ng to'rtburchak shaklidagi qog'ozning pastki qismini bir sm enlikda qoldirib arra tishlariga o'xshatib kesib chiqamizda, ikki tomonini yelimlab, pastki qismidagi qirqligani bo'laklarga yelim surtamiz va doirachaga yelimlaymiz. Stakancha tayyor. Bolajonlar, sizlar ham stakanchangizni tayyorlab bo'ldingiz-larmi?

Barakalla! Stakan tayyor bo'lgan bo'lsa, endi mo'yqalamni artish uchun artgich, salfetka tayyorlaymiz. Keraksiz matolardan bir necha kvadratchalar qirqib undan doirachalar hosil qilamiz. Doirachalarni ustma-ust qo'yib, o'rtasidan tiqib qo'yamiz. Mana mo'yqalam artgich ham tayyor bo'ldi. Bolalar, o'yinchoq ham yasaylik, deyapsizlarmi? Albatta, o'yinchoqlar ham yasaymiz. Hozir na'matak va kashtan daraxting mevasidan «Ninachi va chumoli»ni yasaymiz. Buning uchun kashtan mevasini olib, unga sal kichikroq kashtan mevasiga chumolining bosh qismini o'rnatamiz, oyoq-qo'llarini esa novdadan yasab, to'nkaga o'tkazib qo'yamiz, ko'zlarini esa plastilindan yasaymiz. Ninachining tanasi kashtan mevasidan tayyorlanib, uning orqa tomoniga gugurt cho'p o'rmatib, kichik kashtandan bosh qismni yasaymiz: qo'l-oyoqlarini esa novdadan tayyorlaymiz. Manzarali daraxt barglaridan qanotlarini yasab, plastilin bilan yopishtiramiz. Mana, ninachimiz ham tayyor! Qani, eslangu-chi, ninachi haqidagi qaysi masalni bilasiz?

Bolalar javobi rag'batlanirilib, mashg'ulot yakunlanadi.

Bolalarga chiqindi materiallar (ip, shoyi, mo'yna, polietilen kabilari)dan foydalanib har xil mazmunda applikatsiyalar tuzish taklif etiladi. So'ng ularga matolardan o'yinchoqlar, turli bayram ertaliklari uchun ertak qahramonlarining kiyimlari hamda quvnoq qiziqchilar, petrushkalar kiyimlarini tikish ham o'rgatiladi. Bolalarning o'zları yasagan o'yinchoqlar ijodiy, harakatli o'yinlar jarayonida namoyon bo'ladi. Quyidagi rasmlarda tabiat ashyolaridan bajarilgan o'yinchoqlar namunalari keltirilgan:







**Tabiiy materialdan mozaika ishlari.** Mozaika monumental dekorativ san'at turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mam-lakatlarda mozaika qo'llaniladigan materiallariga ko'ra ham, naqshi va rasmlariga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lган. O'rta Osiyoda madrasalar, machitlar, hukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, interer devorlari va xalq amaliy san'ati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna, sopol plitalardan foyda-laniladi. Laosda rangli ko'zgu parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo'shilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.

Mozaika bu rasm sathiga ayrim-ayrim parchalar (qog'oz, oyna, sopol plita, gultojibarglari, urug', tuxum po'sti va shu kabilar) qo'yib chiqishdir. Tuxum po'stidan mozaika ishlarini bajarish uchun tuxum po'sti kerakli ranglarga bo'yaladi. Yuvib quritilgan tuxum po'sti mo'yqalam yordamida akvarel bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Buyoq qurigandan keyin po'stni tanlangan rasmga ko'ra mayda va yirik bo'laklarga bo'linadi. Tuxum po'stidan applikatsiya qilishda shunday tasvirlarni tanlash kerakki, ularning tarhlari mumkin qadar tekis va mayda, egri-bugrilari bo'lmasligi kerak. Tarh qora qog'oz

orqali o'tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi. Avval rasm sathining bir qismiga yelim surtiladi. U yerga tuxum po'sti terib chiqiladi, keyin ikkinchi qismi ham ish shu tartibda davom ettiriladi. Ortiqcha yelim toza latta bilan artib tashlanadi, po'st yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo'yiladi. Bunday ish odatda eng oddiy tarhlardan boshlanadi. Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari, danak, baliq tangalari, chig'anoq, mayda toshlar bilan xilma-xil applikatsiya ishlarini bajarish mumkin. Ayni bir ishda xilma-xil materialdan foydalansa bo'ladi.

Quyida tuxum po'chog'idan applikatsiya ishlari namunalari ko'rsatilgan.



**Maktabgacha ta'lif yoshdag'i bolalarni mehnat tarbiyasida tejamkorlikka o'rgatish.** Bolalarning maktabgacha ta'lif muassasalaridagi mehnat tarbiyasi oilaviy tarbiyadan ajralmagan holda olib borilishi kerak. Bolada mehnatsevarlikni tarbiyalashning barcha qulay sharoitlari maktabgacha ta'lif muassasalarida mavjud.

Biz bolalarni mehnatga o'rgatib-gina qolmasdan ularni tejamkorlikka ham o'rgatib borishimiz lozim. Bu borada xonadonlarda uchraydigan tashlandiq ashyolardan foydalananamiz. Har bir tashlandiq ashyodan biror-bir buyum yasashni o'rgatsak, bolalarda ijodkorlik hissi ham shakllanib boradi. Masalan: suv ichimliklaridan bo'shagan idishlardan chiroysi o'yinchoqlar yasash mumkin. Svetofor, timsoh, ari, tulki o'yinchoqlari hamda chiroysi qalamdon, guldon yasash mumkin, bu o'yinchoqlarni yasashlari borasida bolalarda tejamkorlik hissi shakllanadi. Tashlandiq ashyo hisoblangan paypoq, kiyilmaydigan ko'ylaklarni lentasimon qilib qirqib, bir-biriga ulanadi, so'ng koptok qilib o'raladi.

Bu ipdan to'qilgan ashyolar juda mustahkam bo'lib, yuvilish va quritish juda osondir. Yana eski paypoqqa uyda ishlatilmay qolgan mayda sovun parchalarini solib, ulardan yostiqcha tikilsa, oshxona mebeli va muzlatgichni artish uchun qulay mochalka hosil bo'ladi.

Biz bolalarga tejamkorlikni o'rgatib borar ekanmiz, ularga yoshligidanoq buyum va materiallarni isrof qilmaslikni har bir narsani hayotda tejab ishlatishni uqtirish zarur. Qog'oz karton va gazlama hamda tolali materiallar tayyor mahsulot bo'lib, ulardan turli o'yinchoqlar yasash mumkin.

Maktabgacha ta'lif muassasasida turli materiallar bilan ishlashda, avvalo, qaysi narsadan nimalar yasash mumkinligini rejalab olish kerak, so'ng turli o'yinchoqlar, ertaklar asosida ko'rsatmali ko'rinishlarga boy personajlar yasash mumkin. Deylik, eman daraxti mevasi, po'stlog'i, na'matak, chig'anoqlar, yong'oq po'stlog'i, qovoq urug'lari, gul barglari va boshqalardan multfilm qahramonlarini, «Ninachi va chumoli», «Toshbaqa va chayon» kabi



masallarni, ertak qahramonlarini yasashsa bo'ladi. Mehnat to'garaklarida bunday maqsad uchun poxol, qamish, g'o'za chanoqlari hamda plastilin, rezina, selofan, polietilen lentalari, pylonkalar, gugurt qutichalari, g'altaklar hamda pista po'choqlari, danak po'choqlari, kungaboqar o'simligining kosachasi, tuxum po'choqlari ishlataladi.

Tashlandiq narsalardan ham kerakli buyumlar, estetik zavq olsa bo'ladigan narsalar yasalishi ular tarbiyasiga ijobjiy ta'sir etadi. Oilada ota-onalar, bolalar bog'chasida tarbiyachi bolalarni ana shunday ishlarni amalga oshirishi uchun ushbu materiallarga extiyotkorona munosabatda bo'lishlikni, ulardan unumli ham tejamkorlik bilan foydalana olishlikni uqtirib borishlari kerak. Ular yashnab turgan daraxt shoxlarini shart kesib yoki sindirib olmaydi, daraxtlarni kuzatib, qurigan, keraksiz shoxlarni kesib oladi. Kesib olayotganda o'sha shoxdan nima yasasa bo'ladi, chamalashni o'rganadi. Turli tabiat materiallarini to'plash, saqlash, ishlov berish yo'llarini qo'llash bolalarni tabiat bilan oshno qiladi.

Bunday mashg'ulotlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stiribgina qolmay, ularni ijodkorlikka undaydi, estetik hissiyotini shakllantiradi.

Turli tabiiy materiallarga ishlov berish, ulardan nimalar yasay olishni tahlil qilish hamda ularga ishlov berish bolalarda mustaqil fikrlay olish qobiliyatini shakllantiradi. Bir so'z bilan aytganda, ularda ijodkorlik qobiliyatini o'stiradi. Obrazlar, personajlar, o'yinchoqlarni yaratishda konstruktorlikka bo'lgan mayl rivojlanadi. Bolalarning turli tabiat materiallari bilan ishlashlari ularda alohida qiziqish uyg'otadi, natijada loy, plastilin, daraxt shoxchalari, chinor urug'lari, turli qurigan barglar, daraxt po'stlari, yelimlardan foydalanib qushlar, jonivorlar, ertak ishtirokchilarining shakllarini qiziqib yasaydilar. Bunda ularning tassavvurlari yangi-yangi personajlar bilan boyiydi.

Ular ishslash jarayonida texnik xavfsizlik qoidalari, gigiyena-sanitariya holatlariga rioya qilibgina qolmay, tejamkorlikka ham alohida e'tibor beradilar.

Bolalarga turli ashyolardan narsalar yasashni rejalashtirishni o'rgatar ekanmiz, qanday asboblarni ularga berish mumkinligi va asboblarni to'g'ri ishlatish (sindirmaslik, buzmaslik) yo'llari uqtiriladi, ish joyini toza, tartibli saqlash ta'kidlanadi.

Oilada qizlar tarbiyasiga ko'proq e'tibor berilsa, kelgusida tejamkor tadbirkor uy bekasi bo'lishlikka zamin yaratiladi. Qiz-

larning qo'liga kattalar nazoratida igna berib, ip o'tkazishga, oddiy to'g'ri chok tikishga o'rgatiladi, o'ziga oddiygina peshband tikib olib ish qilsa, kiyimini asraydi. Akalari, ukalarining eski, kiyilmaydigan jemper iplaridan paypoqchalar to'qib berilsa, yangi paypoqlarning yirtilishidan asraladi, paypoq puli tejalib, boshqa narsaga ishlatiladi. Maktabgacha katta yoshdag'i bolalarning kattalar bilan birgalikda ishlashlari alohida ahamiyatga egadir. Masalan: bir yog'ochning o'zidan mitti beshiklar, bolalar aravachasi, suyang'ichlar, kitob javoni, kiyim ilgichlar, taxta, o'qlov, kurak, keli, kuvi dastalari tayyorlashga bolalarni jalb qilish mumkin. Albatta bunda milliy an'anaga, ko'hna qadriyatlarga tayanilsa, bolani milliy ruhda tarbiyalashga katta hissa qo'shgan bo'lamiz. Turli materiallar bilan ishslash turidan tashqari texnik modellash, ya'ni konstruktorlar bilan ishslash, qishloq xo'jalik mehnati hamda o'z-o'ziga xizmat turlari borki, bu mehnat turlarini bolalarga singdirishda ham tejamkorlikka alohida e'tibor berish kerak. Mehnat mashg'ulotlarida texnik modellar – samolyot, parovoz, kemalar haqida tushuncha berib borish bilan birga shu texnikalar inson mehnatini osonlashtirgani haqida to'xtalib, ana shu texnikani asrab, uzoq vaqt ishlatish bilan xayotimizda tejamkorlikka erishayotganimiz, hayotimiz faroven bo'lib borayotganligini tushuntiradi.

**Qum va alebastrdan applikatsiya.** Bunda qum elab olinadi, ozgina bint yoki doka, tasvir yoki ertak asosida, tabiat manzarasi, PVA yelimi, qora kopirovka, kalka qog'oz, qora flomaster, akvarel bo'yog'i yoki guash, mo'yqalam, qora qalam, eski gazeta kerak bo'ladi.

**Bajarish yo'li.** Tabiat manzarasi yoki ertak asosidagi tasvir oq qog'ozga kalka yordamida tushirib olinadi. Uning ustidan flomasterda tasvir tarhi chiziladi. So'ngra tushirib olingan tasvirga PVA yelimi surtiladi, doka yoki elakda elangan qum tezda tasvir ustiga sepiladi. Qurigach, bo'yash ishi boshlanadi. Birinchi rang qurib bo'lgach, ikkinchisiga o'tiladi, quritib uchinchi rangga o'tiladi. Shu tariqa bo'yash ishi tugatiladi. Qumdan bajarilgan ish rangsiz lakda lakanmaydi.

Quyida tavsiya qilinayotgan applikatsiya ishlarini bajarish murakkab emas. Ularni yasash uchun ijodkorlik qobiliyati, mahorat va ehtiyyotkorlik talab qilinadi. Xususan qum va alebastr orqali bajariladigan applikatsiya ishini bajarish uchun elangan qum va alebastr, ikki qavatli doka, ertak asosidagi rangli kitobcha, kalka

qog'oz, PVA yelimi, qora flomaster, qora qalam, akvarel bo'yоq, bostirib olish uchun eski gazeta kerak bo'ladi. Avvalo, qum yoki alebasterni elakchada elab olinadi. Ular yirik tosh va boshqa narsalardan xoli bo'lishi kerak. So'ngra ertak qahramonlari tasvirlari tanlab olinadi. Tanlangan tasvirni kalka, ya'ni xitoy qog'izi orqali qora qalam yordamida tushirib oling. Oq qog'ozga yoki rangli fonga tushirib, ustidan qora flomaster yordamida yurgizib chiqiladi. Unga PVA yelimini tasvir ustiga chiqarib yubormay, tezlikda surtib chiqish kerak. Yelim surtilmay qolgan joyi qolmasin. Chunki alebastr yoki qum sepilganda yopishmay qolishi mumkin. Elangan qum yoki alebastrni ikki qavatli dokaga ikki qoshiqcha solib yelim surtilgan tasvir ustiga sepiladi. Bu ishni bajarib bo'lgach, qum yoki alebastrning ustini eski gazeta bilan bostirib olinadi. So'ng gazetani olib, tasvirni sekin ko'tarib qumli idishga silkitiladi. Yopishgan qum tasvir ustida qoladi, yopishmagani idishdan tushadi. So'ngra ikki soat quritish uchun vaqt kerak bo'ladi. Qum yoki alebastr yaxshilab qurigach, bo'yash ishlari bajariladi. Bo'yash uchun akvarel bo'yog'i yoki guash kerak bo'ladi. Bitta rangni bo'yab bo'lgach, quritib turib ikkinchi rangga o'tiladi. Chunki quritmay ketma-ket davom ettirilsa, chaplanib ketishi mumkin. Qum va alebasterda bajarilgan ishlar rangsiz lakda laklanmaydi. Quyida qum va alebasterdan bajarilgan applikatsiya ishi berilgan:



**Tuxum po'chog'idan buyum yasash.** Tuxum po'choqlaridan bajariladigan applikatsiya ishi uchun kerakli jihozlar: rangli, ertakli kitobchalar, oq qog'oz yoki rangli qog'oz, kalka (xitoy qog'oz), PVA yelimi, tozalab yuvib quritilgan tuxum po'chog'i, akvarel bo'yoq, qora qalam, qora flomaster, rangsiz lak (PF-284). Tuxum po'chog'idan buyum yasash uchun tuxum po'chog'ini maydalangan va butun holda saqlash mumkin. Tuxum po'chog'ini butun asrash uchun tuxumning ikki uchi teshiladi va uning ichidagilari puflab chiqariladi. Buning natijasida ichi bo'sh tuxum po'chog'iga ega bo'linadi.

Bunday tuxum po'chog'i sinuvchan bo'lganligi uchun qutichalarda saqlash kerak. Butun tuxum po'chog'i va tuxum po'chog'inining maydalanganidan buyum tayyorlash mumkin. Masalan: kaptar, baliq, masxaraboz, kemacha, jo'ja va archa o'yinchoqlari. Avvalo tuxum po'chog'ini yuvib, quritib, xovonchada maydalanadi. Juda kukun bo'lib ketmasligi kerak. So'ngra rangli fonga tasvirni kalka qog'ozni yordamida qora qalamda tushirib olinadi va ustidan qora flomaster bilan tasvir yurgizib chizib chiqiladi, uning ketidan PVA yelimi surtiladi. Jarayonda tezlik bilan ishlash talab qilinadi. Sababi yelim qotib qolmasligi kerak. Surtilgan yelim ustidan maydalangan tuxum po'chog'ini qo'lda sepib, gazeta bilan bosib chiqiladi. Yopishgan tuxum po'chog'i tasvirda qoladi. Yopishmagani to'kiladi. Shundan keyin bo'yash ishini boshlash mumkin. Tasvirni rangli kitobchadagi tasvir rangiga qarab akvarel bo'yoqda bo'yaladi. Bo'yoqni iloji boricha suvgaga nisbatan ko'proq ishlatish lozim. Bitta bir xil rangga bo'yab quritib, ikkinchi rangni bo'yashga kirishiladi. Bo'yoq qurigach rangsiz lakda laklab chiqiladi. Shunda tuxum po'chog'i yaxshi yopishadi va yaltirab turadi.

### **Tuxum po'chog'idan «Sichqoncha» yasash**

Kerakli ashyolar: tuxum po'chog'i, pushti rangdagi qog'oz yoki shu rangdagi mato, plastilin, PVA yelimi, qaychi, mo'yqalam, flomaster va qalam.

Bajarish usuli: shablon asosida sichqonchaning qulog'ini ikki buklangan qog'oz yoki matodan qirqasiz, qulolqlarini o'rtasidan qirqib bir-biriga yelimplaysiz va ozgina buklab, tuxumga yelimlanadi. Ingichka kesma qog'oz mo'ylovi uchun qirqiladi. Flomaster yordamida ko'zi, og'zi, mo'ylovleri chiziladi. Qulog'i va dumi



'elimlanadi. Plastilindan kichkina lumaloq qilib tuxumning uchiga 'opishtiriladi (bu burni). Ustdan yelim urtib qo'yiladi.

### Tuxum po'chog'idan «Baliqchalar» asash.

Kerakli ashyolar:

1. Tuxum po'chog'i (guashda yo'yalgan holatda).
2. Rangli qog'oz(suzgichi, dumi, yo'zi uchun).
3. Guash, oddiy qalam, flomaster.
4. PVA yelimi, mo'yqalam, qaychi, turakcha.


Bajarish usuli: Baliqcha suzgichi, yo'zi flomaster yordamida chizib jo'yiladi.




## Tuxum po'chog'idan «Masxaraboz» archa o'yinchoqlarini yasash

Kerakli ashyolar: tuxum po'chog'i, rangli qog'oz, PVA yelimi, gugurt cho'p, ip, plastilin.

Bajarish usuli: «Masxaraboz» o'yinchog'ini yasash uchun ichi bo'shagan tuxum po'chog'ini olinadi. U qimirmasligi uchun tagiga ozgina plastilin qo'yish kerak. Rangli qog'ozdan eni 2sm li kesma qog'oz qirqiladi, uni qat-qat qilib buklaymiz va tuxum po'chog'ini plastilin bilan qo'yilgan joy atrosiga yelimlaysmiz, bu masxarabozning yoqasi bo'ladi. Endi yarim doira shaklida 6 sm li qog'oz olib, undan konus shaklini hosil qilish mobaynida 1sm li gugurt cho'piga 12 sm li ipni ikki buklab bog'lab, tuxum po'chog'ining teshikchasi ichiga joylashtiramiz, uning atrofini konus qilib yelimlasak, ilgich hosil bo'ladi. Rangli qog'ozdan masxarabozning ko'zi, qoshi, og'zini qirqib yelimlaysmiz. Shu bilan masxaraboz o'yinchog'i tayyor bo'ladi.



**Tuxum po'chog'idan turli xil qushlarni ham  
yasash mumkin**



**Jun iplaridan bajariladigan aplikatsiyalar** uchun esa rangli qog'oz (fon uchun), eski to'qilgan kiyimlarning iplari, jun iplar, rangli kitobchalar, «PVA» yelimi, qaychi, qora flomaster, kalka qog'oz, qora qalam bo'lishi zarur. Eski kiyimlarning iplarini qaychi bilan maydalab qirqishda bolalar ham ishtirok etsalar bo'ladi. Ular ertak qahramonlarini yoki mazmunli mavzuda tanlangan tasvirda kerak bo'ladigan ranglarni iplardan tanlashga va alohida iplarni maydalab qirqib solishga yordam berishlari mumkin. Navbat tanlangan tasvirni rangli qog'ozga kalka qog'oz orqali qora qalamda tushirib olishga. Fon tanlashda iloji boricha ochiq ranglardan foydalaniлади. Tasvir tushirib oldingach, qora flomaster ustidan yurgizib chiqiladi va «PVA» yelimi surtilib jun iplarning rangini o'z joyiga moslab bostirib chiqiladi. Yelim qalinqoq surtilsa, jun ipler yaxshiroq yopishadi.



**Penoplast bilan ishslash.** Penoplast anchagina pishiq, juda yengil, oq rangdagi material. Undan kemasozlik, samolyotsozlik, qurilish va elektronika hamda boshqa sohalarda foydalaniladi. Bolalar ijodkorligi ustaxonalarida undan maxsus asboblarsiz turli o'yinchoqlar, stol teatrлari uchun tagliklar, applikatsiyalar, texnik modellash bo'yicha suvda suzadigan modellar va shu kabilarni yasash mumkin. Penoplastni qirqish va turli materiallarga yelimlash oson, uni topish qiyin emas. Penoplastdan narsalar yasash juda oddiy.

Masalan: applikatsiya ishlarini bajarishda eng avvalo kerakli mavzuni kalka qog'ozda qoralama chizmasini tushirib yoki chizib olinadi. Chizmani penoplastning tekis sathiga kalka qog'ozning tagiga kopirovka qog'oz qo'yib, tushiriladi. Mayda tishli arra yoki lobzik bilan qirqib olinadi. Arralashda paydo bo'lgan notejis joylari egovlab tekislanadi. Tayyorlangan mavzu qahramonlarini fon qilib tayyorlangan qog'ozga yoki penoplastga «PVA» yelimi bilan yelimlanadi. Penoplastdan turli o'yinchoqlar yasashda va applikatsiya ishlarini bajarishda quyidagi jihozlar kerak bo'ladi: qaychi, qora kalka, kopirovka, bigiz, lobzik, arra, mayda tishli egov. Quyidagi rasmda plastinka ustiga penoplastdan applikatsiya ishi bajarilgan:

**Qipiqlikdan ho'l meva va sabzavotlar yasash.** Qipik maydasi kleystr bilan aralashtiriladi. Quyuq massani shaklga kiritiladi. Ostobda uch sutkada quriydi. Qum qog'ozda silliqlanadi. Rang beriladi. Ustdidan lak bilan bo'yaladi. Quruq joyda saqlanadi.



---

## KASHTA TIKISH. KASHTACHILIK TARIXI VA TAYYORLASH TEKNOLOGIYASI

Milliy kashtachilik (kashtado'zlik) amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mammakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat kozongan. O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Germaniya, Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy davlatlar muzeylarida doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV–XV asrlarga mansub miniyaturlar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467- yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma»ga ishlagan «Temur taxtda» miniyaturasida chodirga ishlangan kashtani aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazdi. Qo'l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi.

Kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. Chunonchi, o'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligidagi geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi. Qozoq va qirg'iz kashtachiligidagi esa

ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari bo'lajak kelintik seplari, har xil kashtachilik buyumlarini o'zları tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chirolyi bo'lsa, shunchalik qimmatga baholanar edi. Qizlarga 7-9 yoshidan boshlab kashta tikishga o'rgatilardi. Ular uch-to'rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Yetishib chiqqan kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra, go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

Kashtachilikning maxsus turlaridan biri – applikatsiyadir. Applikatsiya kashtado'zlikning maxsus turi bo'lib, u o'ziga xos texnologiyaga ega. Asosiy matoga rangdor mato parchasini, charm va boshqalarni qadab, atrofi choklanadi, applikatsiyada ko'pincha chizma choklardan foydalaniлади.

## KASHTACHILIKDA BEZAK BUYUMLARINING TURLARI

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan. Shuning uchun har bir oila o'zi uchun kirpech, so'zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o'zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko'p, masalan, so'zana, kirpech, choyshab oyxalta, choy xalta, zardevor, palak, gul-ko'rpa dorpech, bug'joma, parda, belbog', takyanush (yostiq ustiga yopiladigan), do'ppi, ko'ylik, dastro'mol, hamyon, joynamoz, nimcha, mahsi-kavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O'tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo'ldi. Kashtachilikda ishlataladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

**Do'ppi** – O'zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do'ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o'rtasida rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinka, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda Toshkent, Chust, Buxoro, Samqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xosdir.

Mamlakatimizning barcha tumanlarida do'ppi tikiladi. Uning iroqi, Chust do'ppi, gilam do'ppi, chakma tur, qizil gul, piltado'zi,

zardo'ppi, to'ldirma deb nomlanadigan milliy turlari bor. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi.

**Arag'chin** — sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmator, iroqi chok usullarida tikiladi.

**Tus do'ppi** — keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina variantining o'zida sakkizta chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura, etalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do'ppisining tepasi kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki guli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi. jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

**Joynamoz** — yerga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi. Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniadi. U turli o'lchamda bo'ladi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroli qilib bezatiladi.

**Zardevor** — uy jihizi, u sidirg'a shoyi baxmal, satinka kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi. U zar ip yoki ipak gajimli bo'lib, eni 40–70 sm, uzunligi mo'ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

**Palak** — devorlarga ilinib eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakning o'rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oyli palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mash-hur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o'z mahoratlarini namoyish etganlar. Agar oy palak ichida sidirg'a rangda ifodalangan bo'lsa, uni, oypalak, agar naqshli bo'lsa gulpalak va hokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqlarda palakni qo'l

mehnati ko'p bo'lgani uchun so'zana deyila boshlandi. Lekin hozir palakni qo'lda tikishga katta ahamiyat berilmoqda.

**Kirpech** – tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorning bo'sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qo'lda yoki mashinada tikiladi. Kirpech qo'lda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka o'xshatib tikilgani kirpechpalak deb yuritiladi. Bu turi ham keng ishlatiladi.

**So'zana** – igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o'ziga xos badiiy ko'rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalanadilar. Shuning uchun u palakdan farq qiladi. So'zana har bir xonadonda bo'lgan, chunki har bir qiz tur mushga chiqishidan oldin o'zi uchun so'zana tayyorlagan. So'zana kelinlar-ning sepi hisoblangan. Kambag'al oilada so'zanani malla, oq bo'zdan, badavlatroqlarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. So'zana uchun kompozitsion joylashgan o'simliksimon naqshlardan foydaliladi. So'zana o'rtasida ko'pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islimiy naqshlar bilan bezatiladi. So'zana tikish juda qadimdan rivojlangan, lekin XIX asrgacha bo'lgan so'zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Farg'ona, O'ratega, Shahrisabz, Toshkent va boshqa joylarda so'zana turlaridan namunalar bor. San'atning bu turi ayniqsa O'zbekiston hududida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda so'zana mashinada tikilmoqda.

**Choyshab** asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun to'shak ustidan to'shaladi. To'shak ustidan yopiladigan choyshab kashtali oq surp, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtida choyshabdani so'zana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalaniib kelinmoqda.

## KASHTA TIKISH TEXNOLOGIYASI

Kashta turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdar. Kashta har xil kiyimlarga, ro'zg'or buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zig'ir, jun, sun'iy iplar, zar iplar, mayin

sim, xom charmidan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, qimmatbaho tabiyi va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlataladi. Kashtachilikda o'ziga xos ish qurollari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos vazifani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, to'g'nag'ich, angishvona, qaychi hamda chambaraklar ishlataladi.

Chambarak asosan yog'ochdan yasaladi, u doira, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'ladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlataladi, chunki u qulaydir. Hamma kashtalarga ham chambarak ishlatalavermaydi. Ip va igna kashta tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda yog'och dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlataladi. Ayrim materiallarga, masalan, charm va kartonga qiyalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlataladi. Naqshlar uchun o'tkir uchli 10–12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlataladi. Tikish qulay bo'lishi uchun qatim 50–60 sm dan uzun bo'lmasligi lozim, kashta chambarakda tikilsa angishvona qo'llanilmaydi. Naqsh nusxasi turli materiallarga har xil yo'llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko'chiriladigan qog'ozlar taxta, yorug'lik yordamida material ustidan buklab chiqiladi, keyin bu qog'ozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtado'zdan katta mahorat hamda did talab qiladi. To'g'ri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi.

Qo'lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi, matoning arqoq hamda o'rim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi, matoga gul tasviri tarhini chizib, erkin kashta tikish. Arqoq va o'rim iplari kesishtirilib, polotno yoki bo'z shaklida to'qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi O'zbekistonda keng tarqalgan. Erkin kashta mato tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. O'zbek kashtachiligidagi yo'rma, ilma, iroqi, bosma, xomdo'zi, chamak, chipta xayol, baxyo chocklar keng tarqalgan. Badiiy kashtalarda turli joydan turli chocklar ishlataladi. Chunonchi Shahrисабзда yo'rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda ko'proq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqandda yo'rma choki bilan tikiladi.

**Chamak choki** – kashta tikish chocklaridan biri bo'lib, chapdan o'ngga ikki to'g'ri chiziq bo'ylab tikiladi va o'tkazilgan igna o'ngdan sanchiladi. So'ng yuqoriga, chapga tomon qiya qilib chiqariladi va pastki chiziqqa parallel ravishda to'g'ri qadaladi hamda pasti ham qiya qilib chiqariladi. Chamak choki qo'shimcha naqshlarni

ramkaga olishda yoki do'ppi kizaklariga badiiy bezak berishda ishlatiladi. Qaychining kichik o'tkir uchlisi ishlatiladi.

**Bahya choki** – kashta chetlarini mustahkamlashga xizmat qilib, matoga xuddi buklagandek, lekin bir tekis chok hamda masofa hisobga olinib tikiladi. Shundan so'ng mato o'girilib yana tikib chiqiladi, natijada tekis ip chiziq hosil qilinadi. Bu chok juda qadimdan qo'lida, keyinchalik mashinada tikiladigan bo'lgan.

**Ko'rpa choki** turli yo'nalişda, ya'ni chapdan o'ngga, o'ngdan chapga, yuqorida pastga, pastdan yuqoriga sidirg'a tikib hosil qilinadi. Yonma-yon tikiladigan choklar bir tekis yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadan kichiklashib boradi. Bu chok (ikki tomonlama) sanama, piltado'zi nomlar bilan yuritiladi. Do'ppido'zlikda va kashtalarda juda keng foydalaniladi.

**Chindi xayol** – duruya choki, matoga igna qadalib bir me'yorda tikib chiqiladi, teskari o'girib yana tikib chiqiladi. Shu tariqa matoning oldi va orqa tomonida bir xil gul hosil qilinadi. Bu chok ikki tomoni ham ko'zga tashlanadigan buyumlar, ya'ni sochiq, ro'mol va boshqalarni bezashda ishlatiladi.

**Yo'rma choki** yo'rmaki, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning o'ng tomonida xalqalar zanjiri hosil qilib tikilib, bigizga o'tkazilgan ipak matoning sirtida chap qo'l bilan ushlab turiladi. Yo'rma choklari bilan yirik kashtalarning hoshiyaları, gul va barglari asosiy shoxga ulaydigan band va boshqalar qadimdan shunday usulda tikilgan. Yo'rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado'zları ko'p foydalanadilar.

## QO'LDA TIKILADIGAN CHOKLARNING TURLARI

**Tepchima chok.** Bu chok qanday vazifada ishlatilishiga qarab, 1,5 mm dan to 3 sm gacha uzunlikdagi qaviq bilan tikiladi. Bunda igna bitta yo'nalişda – buyumga nisbatan o'ngdan chapga qarab harakatlantiriladi. Bu chok bilan ko'pincha buyumning ikkita qismi vaqtincha ko'klab qo'yiladi va undan keyin shu chok izidan pishiq tikiladi. Tepchima chok turlari rangdagi iplar bilan mayda qilib tikilsa, bezash choki vazifasini ham bajarishi mumkin. Tepchima chok qaviqlarini bir necha qator qilib bir-biriga parallel holda tikish mumkin. Bunda quyidagi qoidaga rioya qilish lozim: qaviqni tortib tikmaslik va ignaga ipni bir me'yorda o'tkazish kerak.

Tepchima chok bilan oralatib tikishning ahamiyati shundaki, buyumning ikki bo'lagi ancha pishiq ulanadi. Bu chok ikki marta

tikiladi. Avval buyum mayda qaviqli «tepchima chok» bilan tikilib, keyin buyumni  $180^{\circ}$  ga aylantirib olinadi va ana shu chok bilan orqa tomonga qarab tikib chiqiladi. Yangi qaviqlar avvalgi chok qaviqlari orasiga solinadi; igna esa avvalgi qaviq qadalgan joyga sanchiladi. O'ngidan ham, teskarisidan ham banya chokning chap tomoniga o'xshash chok hosil bo'ladi.

**Tepchima chok bilan jimjima tikish** choki. Bu ikki yo'l tikiladigan elementlar bezak hisoblanadi. Avval buyum o'ngidan «tepchima chok» tikiladi. So'ngra igna bilan har bir qaviq ilib chiqiladi. Agar igna ilon izi qilib harakatlantirilsa, spiralsimon bo'ladi.

**Bosma chok.** Bu chok o'ng tomonidan tepchima chokka o'xshaydi. U quyidagicha tikiladi. Igna gazlamaning teskarisidan qadab, o'ng tomonidan tortib olinadi. Orqadan ip qalinligini bir necha hissasi qadar joy tashlab, igna sanchiladi va uch hissa joy tashlab, igna o'ngiga tortib chiqariladi. Keyingi qardash yana orqadan bo'ladi. Uni birinchi va oxirgi ipga qadalgan joy orasiga qadaladi. Chokning teskari tomonida uchlari ayqash katta-katta qaviq hosil bo'ladi. Bu chok qalin gazlamalarni pishiq qilib ulovchi chokdir.

**Chetlarni yo'rmash choki** buyumning qirqilgan joylari chetlarini yo'rmash uchun xizmat qiladi. U iplarni titilib ketishdan saqlaydi. Chokni chapdan o'ngga qarab yoki o'ngdan chapga qarab tikish mumkin. Ip o'ramga o'xshab turadi, buyum cheti qancha zich yo'rmalansa, chok shuncha pishiq bo'ladi. Ignani buyum chetidan va bir-birining orasidan baravar masofada olish kerak. Bu chok bilan buyum chetlarini milki bo'ylab ulash to'rlarini tikish mumkin.

Chetlarni yo'rmash chokidan faqat buyum chetlarini teskarisidan yo'rmash uchungina foydalanilmaydi. «Chetlarni yo'rmash» choki bilan narsalarning, masalan, dastro'molchaning chetlarini chirolyi va pishiq qilib yo'rmab chiqish mumkin, bunda chok ikki yo'l tikiladi. Narsalarning chetlari ikki qavat qilib ingichka qayiriladi va chetlarini avval bir tomonga qarab, keyin ikkinchi tomonga qarab yo'rmab chiqiladi. Ip chulg'ami bir-biridan bir xil masofada bo'lishi kerak.

**Halqa choki.** Bu chok bilan chetlari yo'rmab chiqiladi. Shuningdek, bu chok bilan buyum chetlarini zich va pishiq qilib ulash ham mumkin. Chok qanday tikilishiga qarab, bir necha variantda bo'ladi. Chapdan o'ngga qarab tikiladigan chokni ko'rib chiqaylik. O'ngdan chapga qarab tikiladigan halqa choki bir oz boshqacharoq tikiladi. Vertikal qaviqlar bir-biriga qancha yaqin bo'lsa, chok shuncha pishiq bo'ladi. Ignani buyum chetidan va bir-biridan bir xil masofada qadalishiga riosa qilib borish kerak. Ikki

qavat halqa choki buyumlarni bezash uchun ishlataladi. U ikki yo'l tikiladi. Avval bir xil rangdagi ip bilan buyum cheti tikib chiqiladi. Vertikal qaviqlar orasidagi masofaning bir xil bo'lishiga diqqat qilish kerak. Qaviqlarning bo'yи bir xil bo'lishi kerak. Keyin boshqa rangdagi ip bilan shu chetning o'zi yana bir marta halqa choki bilan tikib chiqiladi. Vertikal qaviqlar birinchi qatorning qaviqlari orasiga joylashadi. Farq shundaki, bu qaviqlar yuqoriroqda joylashadi, ya'ni igna material chetidan yuqoriroqqa sanchiladi.

**Oddiy buklab tikish.** Buyumning chetini buklab tikishdan oldin gazlama chetini teskarisiga qarab ikki marta buklab olish kerak. Qayirmaning eni tikiladigan buyumga bog'liqdir. Qayirma «Tepchima chok» bilan yo'rmab chiqiladi. Oddiy qayirishda igna spiralga o'xhash harakatlantiriladi. Ignaga bilan buyum asosidan bitta ip, qayirmaning buklangan joyidan esa 2–3 ta ip ilib tikiladi.

**Ko'rinnmas chok bilan buklash.** Ko'rinnmas chok bilan qaytarishda buyum cheti buklanadi. Ip ilon izi bo'lib turadi. Ignaga buyumning asosiy qismidan bitta ip, qayirma chetidan esa 2–3 ta ip ilinadi.


**Suv tortish choki.** Bu chok tashqi ko'rinishdan shnurning buralmasiga o'xshaydi. Bu chokni tikishda ignaning uchi hamma vaqt tikuvcchi tomonga qaragan bo'ladi. Ignaga gazlama teskarisidan qadaladi va gazlamaning bir nechta ipini tashlab o'ngidan chiqariladi. Ignaga pastga qaratiladi va birinchi qaviqning o'rtasidan tortib chiqariladi. Ikkinci qaviq birinchi qaviqning oxiridan yarmicha joy tashlab tikiladi. Ignaga gazlama teskarisidan o'ngiga birinchi qaviq tugagan joydan chiqariladi va shu kabi. Ip har doim ignaning bir tomonida bo'ladi. Agar qaviq o'ng tomonidan mayda olinsa, chok chiroyli va bejirim bo'ladi. Katta-katta qaviq chokni ancha uzun qiladi. Buyum bunday chok bilan tikilsa, ish tez bitadi, lekin uning ko'rinishi unchalik chiroyli bo'lmaydi.

**Archasimon chok.** Bu chokning tekis bo'lishi uchun qalam yoki ip bilan uchta parallel chiziq belgilab olish kerak. Ip gazlamaning teskari tomonidan o'ngiga o'rtadagi chiziqdani chiqariladi. O'rtadagi chiziq bilan ikki yon tomonagi chiziqlar orasi bir xil bo'lishi kerak. Ignaga gazlamaning chap yon chizig'iga o'ng tomonidan qadaladi, bunda orqadagi ip qancha bo'lsa, o'ngdagagi ip ham shuncha olinadi. Dastlab igna qadalgan joydan bir nechta ip tashlab, igna yana o'rta chiziqqa qadaladi, keyingi safar igna o'ng tomonga qadaladi. Bunda ip to'g'ri qavishdagi kabi bo'lmay, bir-biriga ilinib, burchak shaklida bo'ladi.

**Ayri chok** buyumlarni hoshiya qilib bezash va buyum chetlarini qayirish uchun ishlataladi. Chok ikkita parallel chiziq orasiga joylashtiriladi. Qaviqlar bir-biri bilan ayzashadi. Qaviqni har doim o'ziga qaratib pastdan yuqoriga tikish mumkin.

**Zanjir yoki popop choki.** Bu chok ko'pincha kashtaning chetini yoki kashta ichini to'ldirish uchun ishlataladi. Chok tikish ipli ignani teskaridan o'ngga chiqarishdan boshlanadi. Igna bilan chiqqan ip gazlamaning o'ng tomoniga halqa qilib tikiladi. Halqa chap qo'lning bosh barmog'i bilan ushlab turiladi va igna ip chiqqan teshikka sanchiladi. Igna chiqqan teshik halqa ichida qolishi lozim. Igna ustiga tortiladi. Shunday qilib, ketma-ket zanjirlar hosil bo'la boradi. Zanjirlar o'lchami bir xil yoki turlichcha bo'lishi mumkin, bu esa tikiladigan kashtaning o'lchamiga bog'liqdir. Talabalar tanishi lozim bo'lgan asosiy chok turlari shulardan iborat. Ko'rinish turibdiki, bitta chok bir nechta vazifani bajarar ekan. Masalan, halqa choki bezak choki ham, ularash choki ham, mustahkamlash choki ham bo'lmoqda. Eng oddiy chok — «tepchima chok» — ham ularash, ham bezash choki bo'lishi mumkin.

Quyidagi choklarga e'tibor qiling:



1 — Oddiy tepchima chok.

2 — Bahya chok.

3 — Sirtmoqsimon chok.

4 — Koch chok.



5 — Poyasimon bahya chok.

6 — Halqa chok.

7 — Archasimon chok.

8 — Zanjir chok.

### Sanama chok



Sanama chok bilan tikilgan buyumlar namunalari



## ZARDO'ZLIK SAN'ATI VA UNING TARIXI

Zardo'zlik san'ati uzoq tarixiga ega bo'lib, deyarli barcha Sharq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'zлari kashf etishgan. Qadimgi Rim imperiyasi zar, ipak va jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Zardo'zlik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topib, zardo'z kiyim-kechaklarni faqat imperator a'yonlari va asilzodalar kiyishgan. Somoniylar davrida Eron podshosining saroyida ham zardo'zlik san'ati rivoj topgan. Chunki bu mamlakat Vizantiya bilan muntazam madaniy va siyosiy hamkorlik qilgan. Eronda zardo'z san'atining rivojlanganligiga XV–XVII asrlarda ishlangan zardo'z namunalari misol bo'la oladi. O'rta Osiyoda zardo'zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turlaridan biridir.

Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlari orasida zarbof kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan. XVII asrda yashagan Samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo'zlik bo'lgan, u matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan. XIX – XX asr boshlarida zardo'zlikning o'ziga xos maktabi yaratilgan.

O'zbekistonda Buxoro, Samarqand, Farg'ona va boshqa joylarda zardo'zlik maktablari ochilgan. Qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo'z kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o'rtasida keng tarqalgan.

Qo'li gul ustalar amir saroyining ahllari uchun chakmon, kamzul, poyafzal, belbog', salsa tikanlar. Boy xonadonning 8–10 yoshdan katta bo'limgan o'g'il bolalariga sunnat to'yi munosabati bilan zarbof to'n kiydirganlar. 1885–1911 -yillar Buxoroda zardo'zlik san'atining gullab-yashnagan davr bo'lgan. Hunarmandchilik artellari ochilib, zardo'zlar birlashgan, shundan so'ng dabdabali kimxob to'nlar o'rniga do'ppi, ayollar nimchalari, choyshablar, ko'zoynak g'ilofslari, yostiqlarning g'ilofi tikila boshlandi. 1930-yilda O'zbekistonda rassomlar uyushmasi qoshida zardo'zlik arteli tashkil etilib, unga tajribali zardo'zlar taklif etildi. Keyinchalik artel kengaytirilib fabrikaga aylantirildi.

Zardo'z do'ppilar faqat Buxoroda tikilardi, ustalar ularning yangidan-yangi ajoyib nuxsalarini yaratdilar. Ayniqsa qizlar, kelinchaklar kiyadigan, yoqut, olmosdek charaqlagan «Gulnoz»,

«Bahor», «Navro'z», «Dilorom», «Ra'no», «Qo'shbodom» va «Baxt» deb nomlangan do'ppilar tikildi.

1960-yillardan buyon xotin-qizlar poyafzallarining zardan uch xil shakli tikila boshlandi.

### **Zardo'zlik uchun ishlataladigan zaruriy ashyo va asbob-uskunalar.**

Zardo'zlik ishida chetdan keltirilgan turli xil fabrika materiallari singari mahalliy jaydari gazlamalardan XIX–XX asr boshlarida foydalilanilgan. Erkaklar choponlari chetdan keltirilgan baxmali birishim eng a'llo navli baxmaldan tikeladi. Baxmali farangi deb atalgan. Barhutlar g'oyat rang-barang tusda bo'lishiga qaramasdan, kishilarga qizil, binafsha, yashil va ko'k rangdagilari ko'proq yoqqan. Qizil va binafsha rangdagi barhutlardan ayollar va bolalar kiyimlari uchun qo'llaniladi. Sof ipak barhutdan tashqari baxmali musi degan silliq, yarmi ipak barhut erkaklar choponidan boshqa barcha buyumlar uchun ishlataladi. Yarim shoyi jaydari gazlama zardo'zlikda deyarli barcha buyumlar tayyorlashda ishlataladi. Undan asosan uy-ro'zg'or buyumlari: «So'zana», «Yostiq jildi», «Joynamoz», «Lola» bolishlar jildi tikiladi.

Turli navdag'i simli iplar zardo'zlik uchun asosiy xomashyo bo'lib hisoblanadi. Qadimdan Misr hamda Bobilda zar va kumush ip tayyorlash texnologiyasi ma'lum bo'lgan. O'rama zar simlar Dehli shahrida ishlab chiqarilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoroga zar iplar faqat Moskvadan, keyinchalik Angliyadan, hozirda Yaponiyadan keltirilyapti. G'oyat momiq zar tolalar buxorolik zardo'zlar tilida kalyobatun nomi bilan mashhur bo'lib, u goh zar, goh kumush ip o'rnida qo'llanilgan. U yoki bu navni ajratish zaruriyati tug'ilib qolsa zar ipga tilla kalyobatun, kumush ipga kalyobatun safed (oq) deb ataladi.

**Kalyobatun** ingichka metal ip bo'lib, shoyi ipga puxta o'ralgan. Kalyobatun tayyorlash uchun kumush qotishmasidan qo'shilgan.

**Birishmi tillo chortor** – u to'rt yo'lli zar ip va eng yaxshi sifatli ipak ip. Oq ipak ipdan kumushrang gullar tikiladi. XIX asrning 90-yillari boshida 40-o'ramli g'altak ip paydo bo'lganda u zardo'zlikda keng ishlatalgan.

«Tilla» kalyobatun qilish uchun sim ipga tilla suvi yugurtirilgan. Kalyobatunning asosini tashkil etuvchi ipak ipning rangi turlicha bo'lgan. Kalyobatun bilan sim Buxoro zardo'zligining asosiy xomashyosi hisoblangan. Ayniqsa, kalyobatun XIX asrning boshida shu paytgacha bo'lgan davrga oid barcha buyumlarda

uchraydi. Zardo'zlikda oltin, kumush rangdagi ipak hamda sun'iy ipak va tolalardan foydalilanildi.

Zardo'zlikda yana po'lakcha, olmos qubbalar, zarhal to'g'alar va boshqalar ishlataliladi.

**Po'lakcha** – zardo'zlikda ishlataladigan kichkina piston (pirpirak). U mayda oq, qizil, sariq va boshqa ranglarda bo'ladi. Buyumni bezash uchun qadaladigan, o'rtasidan teshikcha qilingan metall pistoncha.

**Olmos qubbalar** – turli nav oltindan zardo'zlarning o'zlarini yasagan zargarlik taqinchoqlariga o'xshab ketuvchi bo'rtma naqshlar, dur hamda qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar ishlataladi.

**Zarhal to'g'alar** – mahalliy zargarlar ishlagan, odatda qora sir va feruza bilan bezatilgan, nafis gul naqshi tushirilgan bo'ladi.



Zardo'zlikda o'ziga xos asbob-uskunalar ishlataladi. Naqsh kompozitsiyalari chizish uchun chizg'ichlar, yumshoq va qattiq qora qalamlar, daftar, albom, o'chirg'ichlar, shaffof, karton qog'ozlar kerak bo'ladi. Zardo'zlik qurollari unchalik ko'p emas. Bular chambarak, ya'ni korcho'b. Uning to'p, nimcha va mayda-chuyda buyumlar uchun mo'ljallangan uch turi ma'lum. Ular tuzilishi jihatidan bir xil bo'lib, hajmlarining katta-kichikligi bilangina bir-biridan farq qiladi.



Korcho'b uzunligi 320 santimetrgacha bo'lgan ikki teng yonli silliq yog'och dastadan iborat bo'lib, uchidagi harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni istalgan kattalikka keltirish mumkin.

Chambarakka qilingan kerish tortilib, tayyor bo'lgan buyum bilan birga chiqarib olinadi. Zardo'zlikda qadimdan patila degan asbob ishlatalidi. Patila qattiq yog'ochdan, uzunligi 20 santimetr bo'lgan, to'rt qirrali va payya qilib tarashlangan, ichini kovlab qo'rg'oshin quyib vazminlashtirilgan bo'ladi. Unga to'rt qavat qilib zar ip o'raladi. Bunday patilalar ipning orasi zich bo'lishini ta'minlagan. Zardo'zlikda angishvona ham ishlataladi. Angishvona barmoqni saqlovchi degan ma'noni bildiradi. Qo'lga igna kirib ketmasligi uchun barmoqqa kiyiladigan metall g'ilof. Angishvonaning ustki va yoni ignani keti qadaladigan chuqurchalardan iborat bo'ladi. Zardo'zlik ishida ikki xil angishvonadan foydalilanildi. Biri fabrika angishvonasi bo'lib, uni o'rta barmoqqa, ikkinchisi tagsiz, qalin charmdan yasalib, chap qo'lning uchta barmog'iga taqilib ishlanadi. Charm angishvonani fabrikada

metalldan ishlangani ham bo'ladi. Zardo'zlik ishida qaychi bo'ladi. Qaychi ushtur gardan, ya'ni «Tuya Bo'sh qaychi» degan ma'noni beradi. Tuya bo'yniga o'xshash qaychi gul qirqishda ishlatiladi. Oddiy uy ro'zg'orda ishlatiladigan metall qaychilar ham bo'ladi. Ignalarning o'rtacha kattalikdagilari ishlatiladi.

Quyidagi rasmlarda zardo'zlik uchun kerak bo'ladigan asboblar, zar iplar, naqsh namunalari berilgan:





---

## YOG‘OCH BILAN ISHLASH, YOG‘OCHSOZLIK

Yog‘ochsozlik O‘rta Osiyoda, shu jumladan, O‘zbekiston hududida qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san’ati turlaridan biridir. Qadim-qadimdan xalqimiz orasida duradgorlik, hunarmandchilik rivojlangan. Duradgor va hunarmandlar kundalik ehtiyoja kerakli bo‘lgan barcha narsalarni yasashgan. Oddiy qoshiqdan boshlab to go‘dak yotadigan beshikkacha yog‘ochdan yasalgan. Ularga alohida nashq, o‘ymakorliklar bilan zeb berilgan. Turli ranglar bilan jilo berishgan. Qadimda ota-bobolarimizdan qolgan urf-odatlar hozir ham davom etib kelmoqda. To‘ylarda albatta kelinga yog‘ochdan yasalgan sandiq onasi tomondan beriladi. Uy jihozlari chiroyli yog‘och o‘ymakorlik bezaklari bilan bezatilgan. Yog‘och bilan ishlash asrlar davomida rivojlanib borib o‘ziga xos badiiy uslub kelib chiqqan.

Arxeolog olimlarimizning izlanishlaridan O‘rta Osiyoda georeleyefli, ya’ni juda bo‘rtiq reliefslar bilan har xil narsalar yog‘ochdan o‘yib ishlanganligi ma’lum bo‘ldi. Xalq yaratgan asarlar o‘zining nafosati, murakkabligi, tabiiyligi bilan kishi aqlini lol qoldiradi. Afsuski, yog‘ochdan ishlangan ajoyib yog‘och buyumlar har qancha sifatlari ishlov berilishiga qaramasdan asrlar o‘tishi bilan ular namga dosh berolmay deyarli ko‘pchiligi chirib yo‘q bo‘lib ketgan.

Temur va temuriylar davrida san’atning barcha turlari qatori xalq amaliy san’ati juda tez sur’atlar bilan rivojlandi. Ayniqsa, yog‘ochsozlik ham yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi. Amir Temur O‘rta Osiyo madaniyati va san’atini rivojlantrishga katta hissa qo‘shdi. Temuriylar imperiyasi inqirozga uchragach, XVI–XVIII asrlardagi o‘zaro ichki nizolar madaniyatimiz shu qatori xalq amaliy san’atining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklarida yetuk adabiyot namoyandalari qatori xalq amaliy san’ati ustalari ham yetishib chiqdi. Bu davrda xonardonlarda kulolchilik, miskarlik,

ganchkorlik, sirkorlik qatori yog'och o'ymakorligi ham gurkirab rivojlandi. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati ustalari qatorida yog'och o'ymakor ustalar ham ko'plab ajoyib namunalar yaratdilar. Yog'ochsozlikda ota-bobolarimiz qadimdan har xil yog'ochlardan turli maqsadda foydalaniib kelganlar. Ustalar yog'ochni ishlatishdan oldin uning o'ziga xos xususiyatlarini sinchiklab o'rganganlar. Hamma yog'ochlar ular olinadigan daraxt turiga qarab ikki guruhga: bargli va nina barglilarga bo'linadi. Nina bargli daraxtlardan olingen yog'ochlar qurilishda, duradgorlikda va yog'och o'ymakorligida asosiy xomashyo hisoblanadi, chunki uning o'ziga xos afzalliklari bor. Chunonchi, ular tarkibida smolali moddalari bo'lgani uchun tez chirib ketmaydi, nina bargli daraxtlarga qaraganda quruqligi va yengilligi, unga ishlov berish osonligi, tanasi to'g'ri, silliq bo'lgani uchun undan silliq ashyolar tayyorlash mumkin. Yog'och materiallari tabiiy guliga, rangiga, tovlanishiga, hidiga qarab aniqlanadi. O'zbekistonda yog'ochsozlar o'z ishlari uchun eng yaxshi yong'oq, qayrag'och, chinor, tut, archa, terak, o'rik kabi mahalliy daraxtlarning eng a'lo navlarini ishlatadilar. Shu bilan birga boshqa joydan keltirilgan shAMDOD, eman, qarag'ay daraxtlari yog'ochlarini ham ishlatadilar. Yog'ochsozlikda ishlatiladigan daraxtlar asosan tog' teragi (osina), oq qarag'ay, qarag'ay (sosna), tilog'och, arg'uvon (lipa), baqaterak, mirzaterak, chinor, o'rik, archa, nok, yong'oq, zirk kabilardir.

Yog'ochsozlikda ishlatiladigan asboblar.

Yog'ochsozlikda turli asboblar ishlatilib, ular o'ziga xos ishlarni bajaradi. Bu asboblar ikki turga bo'linadi, ya'ni yog'ochni tekislab bir shaklga keltiradigan va pardozlash uchun qo'llaniladigan asboblar. Bu asboblarni maxsus asbob tayyorlaydigan chilangar ustalar tayyorlaganlar. Hozirgi qo'llanadigan asboblar metallsozlik korxonalarida tayyorlanadi. Ayrim ustalar ularni o'zлari tayyorlaydilar. Iskanalar bir tomoniga qarab charxlanib, o'ziga xos o'tkir bo'ladi. Iskana, tesha, bolg'a va boshqa asboblarning dastalari pishiq yog'ochlar, ya'ni qora qayin, qayrag'och, zarang, yong'oq va boshqa daraxt yog'ochlaridan tayyorlanadi. Iskanalar yog'och to'qmoq bilan uriladi. Shuning uchun dastasi yog'och yoki plastmassadan yasaladi. Plastmassali dastalar yorilishga chidamli bo'ladi. Bolg'a urishda yorilib ketmaydi.

Yog'och bilan ishslash maktabgacha tarbiya muassasalarida kichik guruhdan boshlab olib boriladi. Dastlabki mashg'ulotlarda bolalarni duradgorlik, hunarmandlik kasblari bilan, yog'ochdan

qanday foydalanish kerakligi, yog'ochning hayotimizdag'i tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirib boriladi. O'rta guruhga kelib yog'ochsozlikda, duradgorlikda qo'llanadigan asboblar, jihozlar, duradgorlik kasbining murakkab tomonlari yanada kengaytirilgan holda tushuntirib o'tiladi. Katta, mакtabга taylorov guruhlarida esa yog'ochsozlikda eng ko'p qo'llanadigan tesha, iskana, arra, randa kabi asboblar bilan mukammal tanishtirilib, ulardan foydalanish yo'llari, qo'llash, ishlatishlar keng o'rgatiladi. Oddiy xodachani arralash, kesish, randada tekislash, bolg'achalar bilan mix qoqish kabi holatlar haqida ma'lumot beriladi. Duradgorlik kasbining muhimligi, uning hayotimizda, turmushimizda tutgan o'rni haqida bolalarga tushuncha berilib, shu kasbga nisbattan ularda qiziqish, mehr uyg'otiladi.

Duradgorlik kasblari bo'lmaganda yog'ochdan yasalgan chiroyli buyumlarimiz turmushimizni bezamasligi, mebelsozlik sanoati rivojlanmasligi haqida bolalarga ma'lumot beriladi. Bundan tashqari duradgorlik, yog'ochsozlikning eng asosiy materiali hisoblanishini tushuntirish bilan birga daraxtlarni asrab-avaylashimiz kerakligi, ekologik tarbiya ishlari ham olib boriladi.

**Yog'och bilan ishlash uchun asbob-uskunalar.** Yog'och bilan ishlashga mo'ljallangan stol bolaning belidan bir oz pastroq bo'lishi kerak, unda ishlayotgan bolalar o'ynayotganlarga xalaqit bermaydigan, yorug'lik chap tomonidan tushadigan qilib joylashtirilishi kerak. Kigiz qoplangan taxta bolg'a bilan ishlashda uning tagiga qo'yish uchun kerak bo'tadi. Uning g'adir-budur sathida detallar sirpanmaydi, kigiz esa ishlashda paydo bo'ladigan shovqinni yutadi. Taxtaning uzunligi stolning uzunligiga teng, eni 25–30 sm, qalinligi 3–4 sm bo'lishi kerak. Ikki bo'linmali yashikning tor g'aladonida qo'l arra saqlanadi, kengida bolg'a, mix solingan quticha, ombir, chizg'ich va o'lcham qalamlari saqlanadi. Instrumentli quti ish stolining o'ng tomonida turadi.

Instrumentlar: yog'och dastali (dastaning ko'ndalang kesimi oval) og'irligi 120–200 gr li metall bolg'a, keng dumaloq qalpoqli, 2–3 sm li mixlar, tishining balandligi 4–5 mm, keskich polotnosining uzunligi 350 mm, polotnoning eni boshlanishida 40–50 mm, uchida 25–30 mm, qalinligi 0,8 mm yog'och dastali arra.

Yog'och xomashyolar: g'o'lachalar, reykalar, daraxtning yumshoq novdalaridan (jo'ka, qarag'ay, qoraqarag'ay) to'g'ri burchaklar. Ular g'adir-budursiz, quruq, yaxshi ishlov berilgan bo'lishi kerak. Ish stoli yonidagi bo'linmali qutida saqlanadi.

## **YUMSHOQ O'YINCHOQLAR TAYYORLASH**

Hozirgi paytda yumshoq o'yinchoqlarga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Shunga ko'ra, biz mакtabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ishlarini yengillashtirish maqsadida asosan qo'g'irchoq teatri to'garaklarida qo'llanib kelinayotgan o'yinchoqlar namunasini e'tiboringizga havola etishni lozim topdik. Bu o'yinchoqlar tarkibiga, bezaklariga sharoitdan kelib chiqib ayrim o'zgarishlar kiritishingiz mumkin. O'yinchoqlarni berilgan katakchalar yordamida 2, 3, 4 va bir necha marta kattalashtirib andozani unga ko'ra tayyorlash qulaydir. Tikish usullarini esa, yaxshi bilasiz. Har bir o'yinchoqning qismlari bir-biriga tikilgach, ichki qismlarini tashqariga ag'darishni unutmang. Lekin uning ichiga esa gazlama bo'laklari, qiyqimlar, paxta tiqilishi mumkin. Ayrim o'yinchoqlarning old va orqa oyoqlari mahkam turishi uchun simdan karkas sifatida foydalaniлади. Ko'z, shoxchalarni yog'ochdan ham tayyorlash mumkin. Ba'zan ko'z sifatida chiroyli tugmachalardan ham foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur detallar kartondan yasaladigan bo'lsa, guash, akvarelda bo'yalib, ustidan lak qoplanadi.

Kerakli asboblar:

1. Ignalarning turli katta-kichiklari.
2. G'altakli turli rangdagi iplar.
3. Rangli mulina iplari.
4. Turli rangdagi ipakli iplar.
5. 6 dona qaychi.
6. Bigiz.
7. 1 dona omburi.
8. Dazmol.
9. Yog'ochli, temirli tayoqcha (paxta to'ldirish uchun)
10. Tikuv mashinasi.
11. Oddiy qalamlar.
12. Loy yasashda ishlataladigan tayoqcha.

13. Rasm chizish uchun mo'yqalamlar.
14. 2 dona doiraviy ombur.
15. Har xil kattalikdagi igna.
16. Har xil rangdagi turli qalinlikdagi 10, 40, 50, 60- iplar.
17. Har xil rangdagi ipak ip.
18. Dag'al iplar.
19. Yumshoq jag'li ombur.
20. O'tkir jag'li ombur.
21. Angishvona.
22. Dumaloq yog'och (paxta tikish uchun).
23. Qalam.

**Kerakli ashyolar:**

Yumshoq o'yinchoq uchun iloji boricha yangi mato yoki avvaldan yuvib, dazmollangan satin, duxoba, shtapil, pahmoq, chit, junli matolar.

O'yinchoq hayvonlarni tayyorlash uchun, sun'iy va tabiiy jun matolaridan foydalaniлади. Tana, yuz ko'rinishlarini tasvirlovchi qo'g'irchoq o'yinchoqlar uchun shifon, shoyi matolar. Yuz uchun och pushti, och jigarrang matodan olinadi.

Kiyimlari uchun: rangli matolar. Soch uchun: sun'iy iplar, viskoza, qismlarni biriktirishda 1–2 mm yumshoq simlardan o'yinchoqlarni jihozlashda, har xil tugmacha, marjon, lentachalar, shnurlar hamda qoralama tayyorlash uchun plastilin zarur. O'yinchoq ichini paxta, sintefon, trikotaj chiqindilari, averlo tikishda chiqqan qirindilar, yog'ochdan chiqqan qipiқ bilan to'ldirish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlashga o'rgatishni nimadan boshlash kerak?

Dastlab, bolalarni igna ushlashga, igna to'g'nog'ichdan o'rinali foydalanishga, so'ng eng oddiy chok turlarini tikishga o'rgatish zarur. Chok turlarini o'rgatish uchun amaliy bir necha ish tavsiya etiladi (ro'molcha tikish, xaltacha, kitob uchun xatcho'p). Bu esa bolalar chok turlarini tikish malakasini egallashlariga sharoit yaratadi. Bolalarda igna bilan ishslash malakasi hosil bo'lgandan so'ng, oddiy model tayyorlashga o'tiladi. Kichik bolalar qo'lida tikadilar, kattaroq bolalar tikuv mashinada tikishlari mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlash jarayoni quyidagi ishlardan iborat: mato tanlash, g'ijim bo'lak matoni dazmollash, matoga andozani chizish, qismlarni bichish, tikish, ichini to'ldirish, ustini jihozlash.

Andoza kartondan tayyorlanadi. Bichishda mato ikkiga buklanadi, uning chap tomoniga andoza qo'yib, uchi yaxshi ochilgan qalam bilan tayyorlanayotgan bo'lsa, andoza har bir bo'lak mato ustiga ipni qiyalab yo'nalgan tomoniga qo'yiladi. To'q mato bo'lsa, andoza oq yoki sariq rangli qalam bilan, och rangli mato bo'lsa qora rangli uchi yaxshi ochilgan qalamdan foydalaniladi.

Chizib olingan matoning har tomonidan 0,5 sm chok uchun qoldirib, qirqiladi, so'ng qo'lida yoki mashinada tikiladi. Burchaklari o'ng tomonidan chiqariladi. Tayyor tikilgan shakl metall tayoqcha yordamida o'tmas tomoni bilan o'ngiga ag'dariladi.

Agar o'yinchoq tabiiy jundan tayyorlanayotgan bo'lsa, chok haqi qoldiriladi, chetlari qalin ipda tikiladi. O'yinchoq titiluvchan matodan bo'lsa chok haqi qodirilmaydi, o'yinchoq bichib bo'lgandan so'ng, ustki qismdan halqa choki bilan tikiladi.

Hayvon va qushlarni tikish quyidagi qoida bo'yicha: avval tana va qorin qismlar bir-biriga tikiladi. Shaklning ikki yarmi tayyor bo'lgandan so'ng ularni birga tikiladi. Shakl o'ngiga ag'darilib, ochiq qoldirilgan joydan ichi to'ldiriladi, qismlar bir-biriga ko'rinxas chok bilan birlashtirib tikiladi. O'yinchoqning ichi paxta yoki mayda mato qiyqimlari bilan to'ldiriladi, oyoq qismlarini tayoqcha yordamida to'ldiriladi. Bolalar texnik jarayon bilan tanishtirilgandan so'ng o'yinchoq tayyorlashga o'tiladi.

O'yinchoq tayyorlash murakkabligiga qarab ikki guruhga ajratiladi:

1-guruh (kichik bolalar) yengil to'ldiriladigan o'yinchoqlar (tovuq, matreshka qo'g'irchog'i, pingvin, o'rdakcha, kuchukcha, filcha, quyoncha, ayiqcha, xo'tikcha, jirafa, pastki qismi tikilgan qo'g'irchoq).

2-guruh qo'g'irchoq teatri uchun qo'g'irchoq personajlari (ayiqcha, maymuncha, qo'g'irchoq, mushuk, sim sinch o'matilgan o'yinchoq).

Eslatma: berilgan andoza qanday kattalikda bo'lsa, shundayligicha tikilishi kerak. Kattalashtirishga berilgan, kattalashtirishi kerak bo'lgan o'yinchoq katak ichida chiziladi.

O'yinchoqlar tayyorlashni kattalar ham, bolalar ham yaxshi ko'radilar. Bular bolalar uchun bir ermak o'yin bo'lsa, kattalar uchun bolalar qalbiga yo'l topishdir. O'yinchoqlar yasash bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, saviyasini kengaytiradi, ijodiyotga qiziqishni tarbiyalaydi. O'yinchoqlarni bolalar bilan


birga yasash va mehnat qilish bo'lib qolmasdan, balki ijod qilish, sikrash hamdir. Ular o'zлari yasagan o'yinchoqlarida o'zlarining ajoyib-g'aroyib istaklarini, orzularini ko'radilar. Shuning uchun ularning mehnatlarini qadrlash va mehnat qilishga qiziqtilish lozim. Bu esa ularda maqsadga intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, o'zaro yordam berish, mehnatsevarlik, e'tiborlilik, batartiblikni tarbiyalaydi.

O'yinchoqlarni tikishda chok, yo'rma chok, qoviq chok, bosma chok, sirtmoqsimon choklardan foydalaniadi. O'yinchoq tayyorlashda, eng avvalo, kartondan andoza tayyorlanadi. Berilgan chizmalarni kattalashtirish lozim bo'lsa, kerakli o'lchamda katakchalar chizib olib, ular va chizmadagi katakchalar bir xil sonlar bilan belgilanadi. So'ng har bir kataknинг ichidagi chizma chizib chiqiladi. Shunda chizma kerakli o'lchamda kattalashtiriladi. Andoza gazmolga qo'yib bichiladi. Bichishda gazmoldan 8 mm tikish uchun qoldirib so'ng qirqiladi. Tikish tayyorlangan o'yinchoqning ichi har xil paxta, parolon va trikotaj qiyqimlari bilan to'ldirilib, tayyorlanadi. Bosh qismini bezatish uchun tugmacha, munchoq, yaltiroq charm yoki kleyonka ishlataladi.


**Sichqoncha o'yinchog'ini tikish.** Sichqonchani och havo rang yoki kul rang sidirg'a matodan tikish mumkin. Mato ustiga tana andozasini qo'yib ikki marotaba chizib oling, keyin qorin andozasini xam xuddi shunday qiling. Hamma andozalarni chizib olganingizdan keyin matodan qirqib olib, tananing bir tomoniga qorinning bir tomonini halqa choki bilan tikasiz. Tikishda ko'rsatilgan harflarga e'tibor bering. Avval 4 ta quloq detalidan ikkitasini alohida tikasiz. Andozaning bosh peshonasi, bosh qismining ikki tomoniga quloqlari tikiladi. Tayyor bo'lgandan so'ng ichiga paxta solib ko'zini ko'z-munchoq donasidan tikamiz.

**Mushukcha o'yinchog'ini tikish.** Matolar: mo'ynali gazlamalar, trikotaj paxta. Mushuk yasash uchun rasmda ko'rsatilgan chizma asosida andoza tayyorlanib, gazmoldan quyidagi detallar olinadi. Tana-2 ta, tana tagi-2 ta, (bittasi kartondan, ikkinchisi gazmoldan), dum-1 ta, bosh-2 ta, tumshug'i uchun yopiq-1 ta, quloq-4 ta, ko'z-2 tadan tayyorlanadi.

Qirqilgan detallar juftlanib ko'klanadi, so'ng o'ngiga tekislاب shaklga keltiriladi. Mushukning tanasi taglik bilan bekitiladi. Tanasiga chizmada ko'rsatilgan joyga yashirin chok bilan boshi va dumi tikiladi. Oq paxta yoki trikotajdan tumshug'i uchun yopqich bichilib, ramkasi zanjirsimon chok bilan tikiladi. Tikib bo'lgandan



so'ng shaklga ip bilan bir necha marta o'raladi va o'rtasidan chiziqlar bilan ko'rsatib qo'yilgan bosh qismidagi joyga tikiladi. Boshning uchiga burun pushti munchoqdan yoki tugmachadan tikiladi. Boshning pastki qismiga yon tomonlariga qora charmidan ko'z qorachig'i, zangori movutdan ko'z osti qirqib tikiladi. Quloqlari ikki rangdan, tashqarisi gavdasi rangidan, ichkarisi pushti paxmoq yoki trikotajdan qirqilib birlashtiriladi. So'ng o'ngiga aylantirilib, ozgina cho'ziladi va bosh qismidan ko'rsatilgan joyga tikiladi.



## «Petrushka» qo‘g‘irchog‘ini tikish mashg‘uloti

Mashg‘ulot vazifalari: bolalarga «Petrushka» qo‘g‘irchog‘ini yasash usullari haqida tushuncha berish. Igna, ipdan to‘g‘ri foydalanish, ip uchini tugish malakalarini o‘stirish. Yasaydigan o‘yinchoqqa mos mato va unga mos rangda ip tanlashga o‘rgatish, matoni tejab ishlatish va qaychidan ehtiyotkorlik bilan foydalanishga odatlantirish. Ishni sifatli qilib, oxiriga yetkazish malakalarini mustahkamlash.

Mashg‘ulotni jihozlash: har xil rangdagi drap matolari, paxta, ip va igna.

Mashg‘ulotning borishi:

Tarbiyachi: – Bolalar, bugun bizga kim mehmon bo‘lib keldi? Qani qaranglar-chi, uni taniysizlarmi? Ha, to‘g‘ri, bu qo‘g‘irchoq «Petrushka». Qaranglar, Petrushkamiz juda quvnoq, sho‘x raqsga tushishni biladi.

Mana (Petrushkani raqsga tushiradi). Endi bolajonlar sizlar bilan birgalikda quvnoq petrushka o‘yinchog‘ini matodan tikamiz. Men sizlarga «Petrushka» qo‘g‘irchog‘ini tikish usullarini tushuntirib ko‘rsatib beraman. Birinchi bo‘lib Petrushkamizning boshini tikib olamiz. Boshini dum-dumaloq holda tikib, bo‘yin qismi ochiq holda tikilmay qoldiriladi, So‘ngra, tikilgan bosh qismining ichki qismi o‘ngiga ag‘dariladi. Bosh qismiga paxtadan bir tekisda tig‘iz qilib solinadi, boshning o‘rtasidan bitta barmoq kengligida joy qoldiriladi. Mana Petrushkaning bosh qismi tayyor bo‘ldi. Uni bir tomonga qo‘yamiz. Navbatdagi ish Petrushkaning tana qismini tayyorlash bo‘lib, buning uchun bizga qattiq drap mato kerak bo‘ladi.

Undan konus shakli qirqib olinadi. So‘ngra, qirqib olingan konusning bir tomoni tikiladi. Konus shaklida tayyorlangan Petrushka tanasi o‘ngiga ag‘dariladi va uning uchki tomoni bosh qismining ochiq qoldirilgan qismiga o‘rnataladi. Qaranglar, Petrushkamizning bosh qismi va tanasi tayyor bo‘ldi. Endi Petrushkaning tana qismini turli rangdagi matolar bilan tikib mahkamlaymiz. Endi uning qo‘llarini yasaymiz. Buning uchun andoza yordamida Petrushkaning qo‘llari bichib olinadi va ikki bo‘lak qilib bir-biriga tikib chiqiladi. O‘ng va chap qo‘llar tayyor bo‘lganidan so‘ng, bosh va o‘rta barmoqlarga kiyib ko‘riladi. So‘ng Petrushkaning konussimon tanasidan bosh va o‘rta barmoqlar

balandligida teshiklar ochilib, qo'l tikib qo'yiladi. Endi avval tayyorlangan bosh qismni olib, qora drap matodan Petrushkaning ko'z-qosh, sochlari qirqib olinadi. Ozgina qizil matodan og'zini qirqib olamiz. So'ngra ko'z, qosh, sochlар bosh qismiga yopish-tiriladi. Oxirgi qiladigan ishimiz Petrushkaning shlyapasini/ soyabonini/ yasashdir. Buning uchun qora drap matodan konus shaklini qirqamiz.

Shuningdek, yana doira shaklida ham qirqib, uning o'rtasini belgilab olamiz. Konus shaklini tikib ag'daramiz. Ag'darilgan konusni doiraning qirqilgan qismiga tikamiz. Doira va konusning diametri bir xil kattalikda bo'lishi kerak. Tayyor bo'lgan soyabonni Petrushkaning bosh qismiga to'rt tomonidan tikib o'rnatamiz.

So'ng, bolalarning o'zлари mustaqil ishlashga taklif etiladi. Qiynalgan bolalarga yasash usullari alohida tushuntirilib, ko'rsatib beriladi.

Mashg'ulotning yakuni:

Bolalar ishi rag'batlantiriladi. Tayyorlangan «Petrushka» qo'g'irchog'i ishtirokida ba'zi bir sahnalashtirilgan ko'rinishlar namoyish etiladi. Bolalar bog'chasida mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha jihozlar yetarli bo'lishi kerak. Zarur asbob-anjomlar, asbob-uskunalar gigiyenik tomondan bolalar hayoti hamda sog'ligini muhofaza qilish qoidalariga qat'iy muvosiq kelishi lozim. Shuningdek, bolalar tomonidan foydalanilgan materiallar egiluvchan va ishlov berish oson bo'lishi, asbob-anjomlar esa ularning yoshlariga mos ravishda tanlanishi kerak. Bundan tashqari, bolalar asbob-anjomlar saqlanadigan joyni yaxshi bilishlari hamda mashg'ulot tugagach ularning o'rnini topib tozalab, ozodagarchilik talablariga rioya qilishlari hamisha diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

**Yumshоq o'yinchoq andozasini kattalashtirish usuli.** Yumshоq o'yinchoq andozasini kattalashtirish uchun, eng avvalo, kichik andozani katakli qog'ozga tushirib olamiz,(0,5 sm). Andozani kattalashtirishda o'zimiz xohlagan kattalikka keltirish uchun uning taxminiy ko'rinishini tasavvur qilish lozim. Shundan so'ng katakli qog'ozni olib, uni 1 sm li ( 2 sm li) qilib chizib chiqamiz. Bu andozani qanchalik kattalashtirishingizga bog'liq. Chizilgan katakli qog'ozni olib kichik andozadan har bir qismni kattalashtiramiz. Har bir katakni bittadan chizish lozim. Bunda andozani kattalash-gan holda olamiz.

## TOLALI MATERIALLAR VA GAZLAMALAR BILAN ISHLASH

Tolali materiallar va gazlamalar bilan ishlashda maxsus asbob va moslamalardan foydalaniladi, ish o'rmini jihozlash va asboblarni ishlatish qoidalariga rioya qilinadi.

Qo'llanmaning mazkur bo'limida tavsiya qilingan ishlarni bajarish uchun quyidagi asbob va moslamalarga ega bo'lish kerak: santimetrlı chizg'ich, oddiy qora va bo'yоq qalam, qaychi, to'g'nag'ich, igna, angishvona, ilgak, shablon va moki. Tolali materiallar va gazlamalar ishning qay tarzda bajarilishiga qarab tanlanadi. Asbob va moslamalarni maxsus qutichalarda saqlash lozim. Qaychi yaxshilab charxlangan bo'lsin; agar ular ehtiyyot bilan ishlatsa, uzoq vaqtgacha o'tmaslanmaydi. Ignalar zanglamasligi uchun bir parcha movut yoki qalin jun gazlamaga qadab qo'yiladi.

Ignadan ehtiyyotkorlik bilan foydalanish kerak. Ish vaqtida ignani kiyimga qadab qo'yish yoki ish o'rniда qoldirish juda xavfli. Bunday ehtiyyotsizlik baxtsiz hodisalarga sabab bo'lishi mumkin.

Ignaga har doim ip o'tkazib qo'yish zarur, shunday qilinsa igna yo'qolmaydi. Ishni birpas to'xtatganda ignani maxsus yostiqchaga qadab qo'yish yoki maxsus igna qutichasiga solib qo'yish kerak.

Uchi o'tkir boshqa asboblar: qaychi, to'r to'qiydigan ilgakni ham ehtiyyot bo'lib ishlatish kerak. Bularni boshqa kishiga berayotganda, jumladan, qaychini uchi bilan emas, orqa tomoni bilan; igna, to'g'nag'ich va ilgakni-to'mtoq uchi bilan uzatish kerak. Talaba bu xavfsizlik qoidalariga mehnat darslarida ham, shunga o'xshash ishlarni uyda bajarayotgan vaqtlarida ham rioya qilishi kerak.

Tolali materiallar va gazlamalarni ishlatishda, ayniqsa, materialni xomashyo qilishda ehtiyyot bo'lish kerak, masalan, buyumlarni ilgak bilan to'qishda ishni ko'z bilan chamalab emas, balki andozadan foydalanib bajarish zarur; yumshoq o'yinchoqlarni ham andozaga qarab tikish lozim, bunda andoza gazlamaga to'g'nag'ich bilan qadab qo'yiladi: o'yinchoqni tikayotganda hatto bir ozgina noaniqlikka yo'l qo'yilishi o'yinchoq shaklining buzilishiga sabab bo'ladi.

Tolali materiallar: ip, mulina, tasmalar bilan turli-tuman ishlar qilish mumkin, natijada har xil buyumlar hosil bo'ladi. Bunday

ishlashga o'rish, ilgak va spitsa bilan to'qish va eshish kiradi. Bu ishlardan ayrimlariga to'xtab o'tamiz.

Har xil buyumlarni (jadval, sxema, albom, papka) tayyorlashda uch tola ipdan qo'lida o'rilgan bog'ichdan foydalanish mumkin, ular qovuzoq bog'lag'ich, xatcho'p bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bog'ichning nimaga ishlatilishiga qarab har bir o'rimda ikkitadan, to 8–12 tolagacha ip olinadi. Ipning uzunligi shnurning uzunligiga qarab aniqlanadi. Uch tola ipdan o'rilgan bog'ichdan chiroyli, guldar xatcho'p sifatida foydalanish mumkin.

Xatcho'p yasash uchun 3–5 xil rangli 12–15 tola iris yoki har xil rangli mulinadan 6–9 tola olish kerak. Bu iplarning uzunligi hatcho'p yasaladigan kitob uzunligidan 2 baravar ortiq bo'lishi (taxminan, 60–70 sm) va unga qo'shimcha qilib 4–5 sm olinishi kerak, chunki o'rilgan shnur olingenan ipdan kalta bo'ladi, undan tashqari, shnurning uchida popuk bo'lishi lozim.

Hamma ipni teng uchta tolaga bo'lib, shnur o'riladi. Eng pastidan 1–1,5 sm joy qoldirib uchi tugib qo'yiladi. Shnur tekislab to'g'rilanadi-da, ikkiga buklanadi. So'ng ingichka rangli ip bilan tortmasdan turib, o'tasidan tikiladi. Chiroyli xatcho'p hosil bo'ladi. Enliroq xatcho'p yasash uchun uch tola ipdan o'rilgan uchta shnur tayyorlash kerak. Avval uchta ingichka xatcho'p o'rib, keyin ularning chetlarini bir-biriga tikish kerak. Bunda eni 2,5–3 sm bo'lgan jimmimador o'rilgan xatcho'p hosil bo'ladi. Biriktirish uchun tikilgan chocklar deyarli sezilmaydi. Oddiy ip tasmalardan bolalar o'ynaydigan tizgin ham to'qish mumkin. I m 90 sm dan uch bo'lak tasma o'lchab olib, uch tolali shnur o'riladi. Shnurning ikki uchidan teshigi 10–12 sm li halqa qilinadi. Bu tizgining asosiy qismi hisoblanadi. Ikkinchchi qismi – to'simini tayyorlash uchun 30–35 sm li tolali shnur o'riladi. To'sin tizgin asosiga tikib qo'yiladi. 4–7 va undan ortiq tolali sutajdan o'rilgan belbog'lar chiroyli bo'ladi.

Ko'p tolali iplardan buyum o'rish uch tola o'rishga qaraganda murakkabroqdir, shuning uchun belbog' tayyorlashga o'tishdan oldin o'rishni bir oz mashq qilish kerak. Belbog' o'rishda qancha uzunlikdagi xomashyo lozimligi aniqlanishi kerak, buning uchun bel o'chanadi va unga 15 sm qo'shiladi. Masalan,  $60\text{ sm} + 15\text{ sm} = 75\text{ sm}$ . Har bir tola (sutaj ipi) ham shunday uzunlikda bo'lishi lozim. O'rilgan belbog'ning uchini qayirish, tikish, unga shnur o'tkazish, halqa chatib qo'yib, tugma qadash kerak. Har qanday yo'g'onlikdagi shnurni faqat

to‘qib emas, balki eshish yo‘li bilan ham tayyorlash mumkin. Qanday yo‘g‘onlikdagi shnur kerakligiga qarab, bir xil, ikki xil yoki har xil rangli ip tolalari tayyorlanadi. Har qaysi ipning uzunligi tayyor bog‘ichning uzunligidan ikki barobar ortiq olinishi kerak. Masalan, agar 25 sm uzunlikdagi bog‘ich eshish kerak bo‘lsa, 8–10 iris ipi yoki 50–55 sm uzunlikdagi o‘ninchig‘altak ip olinadi. Ipning bir uchi tugiladi va ilgak yoki mixga ilinadi. Barcha ip tolalarini tarang tortib turib bir tomonga qarab esha boshlanadi. Agar ip bir oz bo‘shatilganda ip bir yoki bir necha joyda buralsa, demak ish tugagan hisoblanadi. Eshilgan ip yana tarang tortiladi, chap qo‘l bilan o‘rtasidan ushlab, o‘ng qo‘l bilan esa ikkala uchi birlashtiriladi. Keyin chap qo‘ldagi ipning uchi qo‘yib yuboriladi. Qo‘yib yuborilgan ipning uchi tez burala boshlasa, ip tolasi tekis eshilgan hisoblanadi. Agar tolalarning biror yerida ip chigal bo‘lib qolgan bo‘lsa, uni to‘g‘rilash lozim. 1 metrli yoki undan uzunroq shnur eshish uchun tolani ikki kishi bo‘lib eshgan yaxshi. Bularning har biri ipning bir uchini ushlab turib, uni soat miliga teskari yo‘nalishda burash kerak. Agar shu usulda 3 m li tasma eshilsa, undan bolalar sakraydigan pishiq arqon hosil bo‘ladi.

**Moki yordamida to‘p uchun to‘r to‘qish.** Tolali materiallardan boshqacha usulda — maxsus moslama va asbob yordamida buyumlar to‘qish mumkin. Bunday paytlarda material faqat ma‘lum tartibda to‘qilibgina qolmay, balki tugib ham biriktiriladi. Shunday qilgan taqdirda buyum jimjimador bo‘ladi. Moki yoki igna va shablon (shablon buyumdag‘i halqaning o‘lchamini to‘g‘rilab turadi) yordamida juda xilma-xil buyumlar: to‘p va basketbol uchun to‘r, uy-ro‘zg‘or xaltasi, baliq tutish uchun to‘r to‘qish mumkin. To‘p uchun to‘r to‘qishga to‘xtab o‘tamiz. Bu to‘rnii to‘qish uchun sutaj, ingichka ipak tasmasi, iris, qog‘ozdan foydalanish mumkin. Moki va shablon tayyorlash uncha qiyin emas. Buning uchun faner yoki plastmassadan yasalgan eski chizg‘ichdan foydalanish mumkin. Mokini simdan ham yasash mumkin.

Shablonning o‘lchami mokining o‘lchamiga hamda buyum-dagi halqaning o‘lchamiga bog‘liq. Moki shablondan ingichkarot bo‘lishi lozim. Agar buyumga 2 sm li uzunlikdagi halqa kerak bo‘lsa u holda shablonning eni ham 2 sm bo‘lishi kerak; to‘p uchun to‘r to‘qishda aynan shunday shablon kerak. Uy-

ro'zg'orda ishlatiladigan setka to'qishda esa, ancha ingichka, 12–13 mm li shablon yasash lozim, chunki bu yerda uzun halqa unchalik qulay bo'lmaydi. To'p uchun to'r to'qishda ip mokiga o'raladi, ikki qavat ipdan halqa qilib, unga mokidagi uchi bog'lanadi. Halqani mixga yoki ilgakka ilib qo'yamiz. Shablonni chap qo'limiz bilan shunday ushlashimiz kerakki, bunda mokidagi ip yuqoridan o'tadigan bo'lsin. Moki o'ng qo'lda turadi. Mokini shablon atrofidan aylantirib halqaga kiritamiz va shablonga ipni tortamiz.


Chap qo'limizning bosh barmog'i bilan ipni shablonga bosib turamiz, o'ng qo'l bilan esa chapga, yuqoriga, o'ngga aylanma harakat qilamiz. Yoy hosil bo'ladi. Moki bilan pastdan ikki chetdagi ipni ilib olamiz (moki ishlovchiga qaratilgan bo'ladi). Halqani shablon qirrasiga qarab tortamiz. Shundan keyin chap qo'lning bosh barmog'ini shablondan olamiz.

Ipni yana moki bilan shablon atorofidan aylantiramiz, mokini pastdan halqaga ilamiz, ipni yuqoridan shablonga tortamiz va chap qo'lning barmog'i bilan qisamiz. Chapga, yuqoriga, o'ngga harakat qilib, yoy shaklidagi halqa hosil qilamiz, ikki chetdagi ipni pastdan ilib olamiz va tugib bog'laymiz. Shunday qilib (to'pning katta-kichikligiga qarab) 12–14 ta halqa hosil qilamiz.

Kerakli miqdordagi halqani to'qigach, uni shablondan chiqaramiz-da, birinchi va keyingi halqaning uchlarini tugib qo'yamiz. Buning uchun chap qo'lning bosh va ko'rsatkich barmoqlari bilan tugun tugilgan joyda halqani ushlab turamiz, mokidagi ipdan halqa hosil qilamiz (chapga, yuqoriga, o'ngga harakatni qaytaramiz) va tugun tugamiz. To'pning birinchi qatori tayyor.


Ikkinci qatorga o'tish uchun mokidagi ipni pastga – o'ngdagi yoki chapdagi eng yaqin halqaning o'rtasigacha tortamiz, halqaning o'rtasini barmoqlar bilan ushlab turib, mokidagi ip bilan chapga, yuqoriga, o'ngga yoy shaklida harakat qilib tugun tugamiz (moki halqaning o'rtasidan o'tadi). Biz ikkinchi qatorga o'tdik. Shablonni hosil bo'lgan tugun tagiga qo'yamiz. Mokidagi ip shablon ustida turgan ip bilan ikkinchi qatorni to'qishda har bir halqani mokiga ilib chiqamiz. Tugun boshlashda moki bilan halqaning o'rtasida ikkiga bo'lingan ipni ilib olamiz va shablon qirrasida tugun bog'laymiz. To'pning katta-kichikligiga qarab, to'r qatorlarining soni turlicha bo'lishi mumkin. To'r to'pni qoplagach, yana 2–3 qator to'qish, keyin ipni uzish va oxirgi halqaga ikki marta tugib bog'lash kerak. Birinchi qatordagi halqani

tortamiz va ip bilan bog'lab chiqamiz. Shnurni oxirgi qatorning halqasidan o'tkazib, uchlarini bog'laymiz. U to'p aylanasidan 4–5 sm uzun bo'lishi kerak. To'r bir xil rangda yoki yo'l-yo'l bo'lishi mumkin. Agar biz yo'l-yo'l to'r to'qishni xohlasak, bir qatordan ikkinchi qatorga o'tishda ipni uzishimiz va boshqa rangdagi ipli moki bilan ishni davom ettirishimiz lozim.



**Gilam to'qish jarayoni.** Gilam to'qish uchun bizga turli rangdagi jun ip, ilgak, doka, surp yoki bo'z mato kerak bo'ladi. Ishni ipni tayyorlab olishdan boshlaymiz. Buning uchun ipni 6 santimetrlri qilib taxlab klyonkaga o'raymiz. O'raganda ikki uchi ochiq qoladi. Kleyonka cheti yelimlanib qo'yiladi. Har xil iplardan shunday o'ramlar tayyorlanib olinadi. Endi gilam uchun tasvir tanlang. Tasvir katak qog'ozga chizi-ladi, chunki to'qishda kataklarni oson sanash mumkin. Masalan, «Ot» tasviri olindi. Tasvirdagi rangiga qarab ip olasiz. Ipni ikkiga buklab olib uni tasvirning shu joyidagi katagiga qo'yasiz, ilgakni o'tkazib, unga boyagi ipni ilasiz va sekin tortasiz, yarmi o'tgandan so'ng to'xtatib, ipni uch tomonini berk tomoni ichiga kirgizasiz va tortasiz, shunda ip ilgak-simon bo'lib qoladi va 3 santimetrali





patli gilam bo'lib to'qiladi. Ipni ikki buklashda bir xillikka e'tibor bering, har xil bo'lib qolsa, gilamning ustki qismi tekis bo'lmay qoladi.




**Dastgohda to'qish.** Dastgohda gilam to'qish uchun bizga jun ip, taroq, kichik qaychi kerak bo'ladi. Ishni dastgohni tayyorlashdan boshlaymiz. Dastgohning eni, uzunligi ixtiyoriy, sizga qanday kattalikda gilam kerak bo'lsa, shunday dastgoh tayyorlaysiz. Tasvirda dastgohning ko'rinishi berilgan. Dastgohning ikki tomoniga ip tortilib, rangli iplar shu iplar

orasidan tasvirga mos qilib o'tkaziladi. Gilamning ikki uch tomonini ilgakda avvalgi gilam to'qish singari to'qib qo'yiladi. Qaychi yordamida gilam usti tekislanadi. Taroqdan esa asos ipidan rangli ip o'tayotganda zichlashtirish uchun foydalanim borasiz.

#### **Gazlama ip va boshqa noto'qima materiallarni qayta ishlash.**


Ma'lumki, paxta xalq ho'jaligi va sanoat uchun qimmatbaho xomashyodir. Paxtadan gazlama, ip, arqon, baliq tutish uchun to'r, bolalar o'ynichoqlari va odamlar uchun kerakli boshqa juda ko'p narsalar tayyorlanadi. Paxta chigitidan paxta yog'i, kunjara, o'g'it va boshqalar olinadi. Paxtadan tayyorlanadigan gazlamalarning quyidagi xillari bor: satin — qalin gazlama, o'ng tomoni silliq, bir oz yaltiraydi, teskari tomoni yaltiramaydi, chit satingga qaraganda bir oz iplari ingichkaror va yumshoq.

Doka chitga qaraganda yumshoqroq va yirik to'qilgan, doka yorug'lik o'tkazadi, chit esa o'tkazmaydi. Sintetik gazlamadan olingan gazlamalar: shoyi, krep, trikotaj, villur va hokazo. Jundan olinadigan gazlamalar: jun, drap. Ipakdan: atlas, shoyi, adres, beqasam. Noto'qima gazlamalar: bo'z, brezent, kanop, drap.



## **Gazlama ustida applikatsiya.**

Gazlamadan va qog'ozdan qilingan applikatsiya ishlari bir-biridan farq qiladi. Gazlama parchalarini fon xizmatini o'tovchi materiallarga tikib naqsh yaratiladi. Gazlamadan yasalgan applikatsiya bilan kiyim-bosh, uyro'zg'or predmetlari bezatilgan. Gazlamadan applikatsiya bir necha xil usulda bajariladi: gazlamaga ishlana digan applikatsiyani cheti qo'lda, halqa choki orqali tikiladi, applikatsiya qilinadigan gazlama orasiga se lofan qo'yib dazmollanadi, gazlamining cheti mashinada tikiladi. Yuqorida gazlamadan ishlangan applikatsiya ishlari berilgan:



Talaba tikuv ustaxonasida mashinada buyum tikishga o'tirishdan oldin ayrim mayda buyumlarni qo'lda tikib mashq qilishi kerak. Qo'l choklari bilan tanishish va shu bilan bir vaqtida tikishga tayyorlanish tayyorgarlik davri hisoblanadi.

## **Qo'g'irchoqlar uchun ko'rpa-to'shak va ularga jiddlar tikish.**

Maktabgacha ta'llim muassasalarida gazlama, mato bilan ishslash keng qo'llaniladi. Bolalar sevib o'ynaydigan «Qo'g'irchoqni uxlatamiz», «Qo'g'irchoqni kiyintiramiz» kabi mashg'ulotlar uchun kerak bo'ladigan qo'llanmalarni tarbiyachilar o'z qo'llari bilan tikadilar, buning uchun qo'g'irchoq karavotining o'lchami olinadi va shunga mos qilib ko'rpa-to'shak bichiladi.

- to'shak bo'yi – 46 sm, eni – 26 sm;
- yostiq bo'yi – 18 sm, eni – 16 sm;
- ko'rpa bo'yi – 50 sm, eni – 45 sm.

Ko'rpa, yostiq jiddlari shu o'lchamga mos qilib bichiladi va tikiladi. Ko'rpa- to'shak uchun chit, satin, atlas kabi gazlamalar ishlatiladi, ular mashinada tikiladi va ichiga paxta solinib qavib chiqiladi. Jiddlar esa, oq surp, chitdan bichiladi va chetlariga lentalar qo'yib tikiladi.

- ko'rpa jildi bo'yi – 51 sm, eni – 45 sm;
- choyshab bo'yi – 50 sm, eni – 45 sm;
- yostiq jildi bo'yi – 19 sm, eni – 17 sm o'lchamga bo'linadi.

---

## TO'QISH. SPITSA VA ILGAK BILAN TO'QISH

**To'qish, halqalarниhosil qilish usullari.** O'zbek xalqi qadimdan qo'l hunarmandchiligi sirlarini chuqur egallab kelgan. Jumladan, o'zbek xotin-qizlari mohirlik bilan kashta, jiyak, do'ppi, to'n, so'zana kabilarni tikish bilan shug'ullanganlar. Ular atlas va gilamlar to'qishgan. Bor xomashyolardan foydalanganlar. Hozirgi kunga kelib ayollarimiz orasida qo'lda kiyimlar to'qish keng rivojlanib bormoqda. Qo'lda to'qilgan kiyim-kechaklar betakror va bejirimdir. To'qish amaliy san'atning bir turi bo'lib, nihoyatda zavqli va foydalidir. To'qilgan kiyim yaroqsiz bo'lib yotmaydi yoki tashlab yuborilmaydi. Har bir to'qish hunaridan xabari bor xotin-qiz kerakli buyumni osonlikcha to'qib oladi.

**To'qish qurollari bu – spitsa va ilgakdir.** Spitsa – asosiy to'qish quroli bo'lib, uning quyidagi turlari bor.

1. Aylana troschali.
2. Aylana naychali.
3. To'g'ri, ikki tomoni uchli.
4. To'g'ri, bir uchli.

**Spitsalar** – nikellangan, po'lat, temir, alyumin, plastmassa va yog'ochdan yasalgan bo'ladi. Eng foydalanishga qulay spitsa po'lat-dan yasalgan, ikki uchi uchli va bir uchi uchli spitsadir. Chunki u mustahkam bo'lib, yog'och va plastmassa spitsalar kabi sinib ketmaydi. Har bir spitsaning raqami bo'ladi. U spitsaning diametrini bildiradi.

1. Diametri 1 mm li spitsa.
2. Diametri 4 mm li spitsa.

Har bir to'qishni o'rghanuvchi talabaga har xil raqamli spitsalar berilishi kerak. Chunki har bir spitsa o'z o'rniда ishlataladi. Bu buyumning sifatli chiqishiga olib keladi.

**Ilgak.** Kalta [12–15 sm va 30–40 sm], ingichka va yo'g'on [1–6 mm] ilgaklar bor. Har xil iplarni to'qishda har bir ipning o'ziga mos ilgak tanlanadi. Ilgak ipdan ikki baravar yo'g'on bo'lishi kerak. Ilgak po'lat, alyumin, plasmassa, mis va temirdan yasalgan bo'ladi.

## TO‘QISH TEKNOLOGIYASI

Buyumni qo‘lda to‘qish uchun spitsa yoki ilgak kerak bo‘ladi. Buyumni junli, jun aralash, ipak, paxta, quyon va echki yunglaridan yigirilgan ip va hokazo iplardan to‘qish mumkin. To‘qiladigan buyumga shakl berish uchun andozaga muvofiq yoki hisobga yarasha shu halqalar soni ko‘paytiriladi.

**Ilgak yordamida to‘qish.** Ilgak yordamida to‘qish qo‘l mehnati turlaridan biridir. To‘qishning asosiy turlari – shnurcha, ustamali zanjir, ustamasiz zanjir to‘qish bilan tanishib olgach, namunaga yoki rasmga qarab juda xilma-xil buyumlar to‘qish mumkin. Ilgak bilan jun, oddiy ip va ipakdan har xil buyumlar to‘qisa bo‘ladi. Asosiy asbob – metalldan, yog‘ochdan, plastmassadan, suyakdan yasalgan ilgakdir. Ilgaklar: 2 dan to 6 gacha raqamli bo‘ladi. Ilgakning raqami uning yo‘g‘onligiga va ish bajaradigan (to‘qiy-digan) qismining chuqurligiga bog‘liq. Ilgak ipning yo‘g‘on-ningichkaligiga va naviga qarab tanlanadi. Ip ilgakning ish bajaradigan qismining chuqurligi (ilgagi)dan bir yarim-ikki barobar yo‘g‘on bo‘lishi kerak.

To‘qish paytida ilgakni o‘ng qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmog‘i bilan ushslash va uni o‘rtta barmoq bilan ishga solib turish kerak. Ilgakda to‘qilgan buyumlar halqaning shakli va o‘lchamiga qarab har xil bo‘ladi. Buyumning tekis to‘qilishi uchun ipni bir tekis tortib turish, halqani bog‘lash, ularning soni va shakliga rioya qilib turish kerak. Agar halqaning o‘lchami va shakliga rioya qilinmasa, halqalar sanab to‘qilmasa, buyumning ko‘rinishi va shakli buziladi. To‘r to‘qishning asosiy turlari ustida to‘xtalib o‘tamiz. Bular bilan talabalar tanishishi lozim.

Birinchi halqa – to‘qish bu halqadan boshlanadi. Ilgak o‘ng qo‘lda bo‘ladi. Ip uchini halqa qilib buklab, chap qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmog‘i bilan ushlab turish kerak. Halqaga ilgakning uchini suqib va kalavadagi ipni ilib, halqa orasidan tortib chiqariladi. So‘ngra ip yana ilgak bilan ilib olinadi va hosil bo‘lgan yangi halqa orasidan tortib chiqariladi. Ipnинг uchi tortiladi va 1 sm qoldirib uchi qirqib tashlanadi.

**Havo halqasi** – kalavadan ilgak uchi bilan ipni ilib halqa hosil qilishdir, bunda ilgakning o‘zida birinchi halqani hosil qilib olamiz. Havo halqasining bir nechta zanjir yoki shnur hosil qiladi. Shnur har qanday to‘ming asosi hisoblanadi. Havo halqasining soni buyum o‘lchamiga yoki rasmdagi halqa soniga bog‘liq bo‘ladi. Havo


halqasini to'qishda ularning o'lchamlari bir xil bo'lishiga e'tibor berish kerak.

**Ustamasiz zanjir to'qish.** Kerakli uzunlikdagi zanjir hosil bo'lgach, burilish halqasi to'qiladi. Zanjirni o'ng tomoni bilan chap qo'lning ko'rsatkich barmog'i bo'ylab qo'yiladi va chap qo'lning bosh barmog'i bilan ushlab turib, ilgak zanjirning o'ng tomonidan uchinchi halqasiga suqiladi (ilgakning o'zida turgan

halqa, ya'ni burilish halqasi ham qo'shib hisoblanadi). Kalavadagi ip ilgakda ilib olinadi va havo halqasi orqali tortib chiqariladi. Ilgakda ikkita halqa hosil bo'ladi. Yana ilgak bilan kalavadagi ipni olib, bu halqalar bog'lanadi. Ilgakda yana bitta halqa qoladi. Ikkinchi qatorning zanjirini to'qish uchun ilgakni navbatdagi halqaning o'rtasiga suqiladi va kalavadan yana ip ilib olib, yana havo halqasidan tortib olib chiqariladi.

Ilgakda bog'lanadigan yana ikkita halqa hosil bo'ladi. Keyingi zanjirlar ham shu tariqa to'qiladi. Ustamasiz zanjir bilan to'qilgan buyumlar zinch va tarang bo'ladi.

**Ustamali zanjir.** Ustamali zanjir bilan to'qilganda buyum nafis va jimjimador chiqadi. Bir ustamali zanjir quyidagicha to'qiladi. Birinchi (yetakchi) halqali ilgak uchining ustiga o'ng tomonidan ip tashlanadi – bu ip ustama ipdir. Ustama ipli ilgak halqaga sanchiladi (chetidan uchinchi halqa); agar ustunchalar zanjir bilan to'qilsa, kalavadagi ip ilib olinadi va uni halqa shaklida ilgakka tortiladi. Bu vaqtida ilgakda ikkita halqa hosil bo'ladi, ularning o'rtasida esa ustama ip bo'ladi. Ilgak bilan kalavadan ip ilib olinadi va qo'shni halqa bilan ustama ipdan tortib o'tkaziladi, ilgakda yana ikkita halqa bo'ladi. So'ngra ip ilib olinadi va bu ikkala halqadan tortib chiqariladi. Ilgakda yana bitta yetakchi halqa hosil bo'ladi. Agar ustunchalar to'qish zanjirdan boshlanmay, ustamali yoki ustamasiz zanjirdan iborat polotnodan boshlansa, u holda birinchi ustunida uchta havo halqasi hosil qilinadi.




Uchinchi yetakchi halqadan ustamali ustuncha to'qish boshlanadi. Ilgak bilan ishlagan vaqtida ba'zi bir maxsus terminlarni bilib olish kerak. Burilish halqasi — to'qish vaqtida to'rning bir qatoridan ikkinchi qatoriga o'tishda ilgakda turiladigan halqadir. Ilgak bilan to'qilgan qator yoki zanjirning ustki qismi bir-biriga ulangan halqalarga o'xshaydi. To'qilayotgan to'rning to'qilish tomonidan tashqarida turuvchi halqa qismi, tashqi yarim halqa deyiladi. To'quvchiga nisbatan narsaning ichki tomonida turuvchi halqa qismi ichki yarim halqa deyiladi. Ichki va tashqi yarim halqalar asosiy halqani tashkil qiladi. Amaliy qo'llanmalarda ishlarning tavsisi berilganda ilgakni qaysi halqaga — tashqi, ichki yoki asosiy halqaga suqish kerakligi ko'rsatiladi.

Ustuncha (ustamali yoki ustamasiz ustuncha) to'qib bo'lgandan keyin ilgakda qolgan halqa etakchi halqa deyiladi. U keyingi ustuncha yoki zanjirning boshlanishi hisoblanadi.


Ayrim buyumlarni to'qigan vaqtida ularni kengaytirish yoki zichlashtirish, ya'ni halqa sonini kamaytirish yoki ko'paytirish kerak bo'ladi. Halqa qo'shish uchun asosiy halqaga ustamali yoki ustamasiz bitta halqa emas, ikkita, uchta halqa to'qish kerak. Buyumni qo'shimcha havo halqalari bilan kengaytirish mumkin, bu halqalar ustamali yoki ustamasiz ustunchalar orasiga to'qiladi.

Buyumlarni zichlashtirish uchun halqalalr sonini qisqartirish lozim: ustamali yoki ustamasiz ustunchalar asosiy halqaga to'qilmay, oralatib to'qiladi. Ilgak bilan to'qishni o'rganish uchun havo halqasi bir xil bo'lgan zanjir to'qishni mashq qilish kerak. To'qilgan zanjirni bog'ich o'rniда ishlatish mumkin (narsalar osish, papkalarga bog'ich qilish va boshqalar). Agar uzunligi 25 sm li bog'ich kerak bo'lsa, ip uch barobar ortiq olinadi. Suyakdan ish-



langan ilgak bilan qalin ip yoki sutajdan zanjir to'qishni o'rganish oson bo'ladi.


**Bolalarning zanjirdan yasalgan sumkasi.** Agar sutajdan 2,5 m uzunlikdagi ikkita zanjir to'qilsa, u bolalar sumkachasi uchun xomashyo bo'ladi. Har bir zanjirdan sumkachaning yarim pallasi hosil bo'ladi. 15x15 sm qalin qog'oz ustiga zanjirning o'ngini ichkariga qilib spiralga o'xshatib yo'rmalahadi va xomashyo tekis bo'lishi uchun qog'ozga tikib qo'yiladi. Zanjirning chetlari yo'rmab tikiladi. Spiral bo'ylab chok tikiladi. Zanjirdan 25 sm qolsa, uni doiraning chetiga mahkamlab tikiladi, ikkinchi uchini esa aylana uzunligining to'rtdan bir qismiga teng keladigan masofada xomashyo chetiga tikilsa, bu sumkachaning dastasi bo'ladi. Sumkaning ikkinchi pallasi ham xuddi shunday to'qiladi. Ikkala doira tayyor bo'lgach, reja va qog'oz olib tashlanadi, so'ngra ularning o'ng tomonini bir-biriga qaratib birlashtiriladi va chetlari tikiladi. Faqat dastasi o'rnatilgan tomonning cheti tikilmaydi. Shnur yoki sumkacha uchun zanjir to'qish to'qishga doir boshqa ishlarni bajarish uchun juda yaxshi tayyorgarlik bo'ladi.




**Nonushta solib qo'yiladigan sumkacha.** Nonushta solib qo'yiladigan sumkacha ham ustamali ustuncha usulida to'qiladi. Buyumning jijimador bo'lishi uchun har bir ustuncha orasiga ikkita havo halqasi to'qiladi. Sumkachani iris yoki qog'oz ipdan to'qish mumkin. sutajdan to'qilgan sumkacha ancha pishiq, lekin qo'polroq bo'ladi. Nonushta uchun sumkacha to'qish 12–15 sm li zanjirdan boshlanadi. Bu zanjir atrofiga oralariga ikkitadan havo halqasi to'qilgan ustamali ustunchalar to'qiladi. Burilish joyida asosning bitta halqasiga oralarida ikkitadan havo halqasi bo'lgan ustamali 4 ta ustuncha to'qiladi. Ikkinchi qatorlarda keyingi

qatorlarda har bir qatorning ustunchalari o'zidan oldingi qatorning ustunchasiga kiritib to'qiladi. Sumkachaning oxirgi qatori tutash ustunchalar bilan to'qiladi. Dastasini bir qatorda 3–4 ustamali ustunchalar bilan to'qiladi.

**Shippak.** Bino ichida jismoniy tarbiya mashqlari vaqtida kiyish uchun qulaygina shippak to'qib olish mumkin. Uni istalgan rangdagi har qanday oddiy ipdan to'qish mumkin. Ish boshlashdan oldin oyoqni o'lchab olish kerak. Oyoqni bir varaq qog'ozga qo'yib chetidan qalam yuritib chiqiladi. Qalam izidan qog'ozni qirqib oyoqning andozasini olamiz. Shippak to'qish vaqtida tumshug'ining enini va butun bo'yini ana shu andozaga qarab mo'ljallaymiz. To'qishni 6 ta havo halqasidan to'qilgan zanjirdan boshlaymiz. Zanjirning uchlarini biriktirib, berk halqa hosil qilamiz. Bu halqa atrofida ustamasiz 10 ta ustuncha to'qiymiz, bunda ilgakni halqaning o'rtasiga kiritib to'qiymiz, keyin bu yo'g'on halqa atrofini to'qiymiz va har bir qatorga 3–4 tadan ustun qo'shib boramiz. Shippakni juda keng yoki tor qilib qo'ymaslik uchun bajarayotgan ishimizni vaqtiga vaqtiga bilan andozaga solishtirib ko'ramiz. Shippak tumshug'ining eni andoza eniga yetmaguncha to'qishni davom ettiraverish kerak. So'ngra halqa qo'shmasdan 7–8 qator (yoki andozaga muvosif ko'proq) to'qiymiz. Shippakning tumshug'i tashqi tomonidan xaltachaga o'xshaydi. Shippakning tumshug'ini to'qib bo'lgach, yon tomonlari va tagini to'qishga kirishamiz. Bu quyidagicha bajariladi: shippakning tumshug'i xaltachaning qismini to'qib bo'lib halqani aylantiramiz va teskari tomonga ustun to'qiymiz. Andozaga qarab shippakning yon tomonlari va tagini to'qiymiz. To'qilgan shippakning hamma o'lchamlari andozadagiga mos kelsa, uni ikkiga buklaymiz-da, tovonini biriktiramiz. Shunday qilib, shippak tayyor bo'ladi. Ipni uzmasdan turib, ustamasiz ustuncha usuli bilan




shippakning oyoq kiradigan og'zi to'qiladi. Shippakning ikkinchi poyi ham xuddi shunday to'qiladi. Quyida shippakni to'qish bosqichlari ko'rsatilgan. Marhamat, to'qishga harakat qiling.



**Bolalar boshmoqchasi.** Jun yoki oddiy ipdan hali yura olmaydigan bolalar uchun boshmoqcha to'qish mumkin. Boshmoqchaning uzunligini bilish uchun o'lchov olish: qog'oz ustiga oyoqning tagini tushurish kerak. Ish boshmoqcha tumshug'ini to'qishidan boshlanadi. Oltita halqadan iborat zanjir to'qiymiz. Zanjirni mahkamlashimiz kerak. Buning uchun yetakchi halqali ilgakni chetidan ikkinchi halqaga qadaymiz va ustamasiz ustuncha to'qiymiz. Zanjir bo'ylab yana to'rtta ustuncha to'qib, oxiriga yetkazamiz. 2–3 ta havo halqasi to'qib, zanjir to'qishni qaramaqarshi tomonidan davom ettiramiz. So'ngra ikkinchi qatorga o'tamiz va 2–3 ta havo halqasi bor joygacha to'qiymiz. Avvalgi qatorga qaraganda, bu qatorda ham 2–3 ta halqa qo'shamiz. Boshmoqcha tumshug'idan boshlab uning yuza chizig'ini hosil qilish uchun shunday qilinadi. Halqa qo'shish boshmoqchaning yuza tomonidan 2–3 havo halqasi to'qish hisobiga bo'ladi. Bu halqalarga har bir qator bilan ikkitadan qo'shimcha ustamasiz ustuncha to'qiymiz. Yuza qarshisidagi qismi oyoq kafti hisoblanadi. Bunda boshmoqcha paypoq singari, ya'ni boshmoqchaning tumshug'ini to'qigandagi doira bo'yicha to'qiladi. So'ngra ipni uzmasdan, boshmoqchaning orqasini to'qishga kirishamiz. Boshmoqchaning qo'nji chuqurroq bo'lishi uchun, avval 10 ta havo halqasi to'qib olish kerak, so'ngra ilgakni teskari tomonga aylantirib, uchinchi halqadan boshlab ustamali ustuncha yordamida zanjir to'qiymiz. So'ngra boshmoqchaning asosiy qismini ustuncha

bilan to'qishni davom ettiramiz. Xaltachaning qismini to'qib bo'lib, yana 10 ta havo halqasi to'qiymiz, u boshmoqchaning ikkinchi tomonidan orqasini to'qish uchun kerak bo'ladi. Ilgakni teskari tomonga aylantirib, ustuncha usulida zanjir to'qiymiz va boshmoqchaning bu qismini butun uzunligi bo'yicha to'qiymiz.




Shu usulda 12–14 qator to'qiymiz, qator soni bolaning oyoq andozasining uzunligiga bog'liq. Tovonning chetlarini tikib yoki ilgakda to'qib biriktiramiz. Boshmoqchani bezash uchun uning ustki qismini ustamali yoki ustamasiz ustuncha bilan to'qiymiz. Boshmoqchaning oyoqdan tushib qolmasligi uchun shnur to'qib to'piqdan yuqoriga o'tkazamiz.

**Do'ppi.** Do'ppini naqshli yoki naqshsiz, ustamali yoki ustamasiz ustuncha usulida to'qish mumkin. Har qanday usulda ham to'qishni 5–6 ta havo halqasini halqa qilib to'qishdan boshlash kerak. Do'ppini ustamali ustuncha usulida to'qish uchun halqa ustiga 8–10 ustuncha to'qiladi. Bu birinchi qator bo'ladi. Qolgan qatorlar doira bo'ylab to'qiladi. Har bir qatorga 5–6 tadan halqa qo'shib boriladi, bunda doiraning cheti ilon izi bo'lib qolmasligiga diqqat qilib borish kerak. Diametri 10–12 sm bo'lgan doira to'qilgach, halqalar soni 2–3 taga kamaytiriladi. Natijada doiraning cheti torayib, buyum taqsimcha shakliga keladi. Do'ppi hosil bo'lguncha to'qish davom ettiriladi. Do'ppining chetini kungurador qilib bezash mumkin, kungura ustamali ustuncha usulida to'qiladi. Har bir kungura 6–7 ta ustunchadan iborat bo'ladi.

Do'ppini kungura bilan bezash uchun ilgak ustiga halqa solinadi va yetakchi ustunchadan 3–4 ta halqa tashlab do'ppi cheti bo'ylab ip ilgak uchida tortiladi. Ilgakda 3 ta halqa bo'ladi. Avval ulardan

ikkitasini to'qiyimiz, so'ngra ilgakda yetakchi halqa qolguncha yana ikkitasini to'qiyimiz. Birinchi ustuncha hosil bo'lgach, yana ilgakni o'sha halqaga suqib, ikkinchisini, uchinchisini va hokazo, to yettinchi ustuncha hosil bo'lguncha to'qiyimiz. Bitta halqadan chiqqan yelpig'ichsimon ustunchalar dastasi hosil bo'ladi. Chapdan 3–4 ta halqa tashlab yetakchi halqlari ilgakni do'ppi chetiga suqamiz va ipni ilib olib ustamasiz ustuncha to'qiyimiz, so'ngra boshqa kunguralarni ham shu usulda to'qiyimiz. Do'ppi ustamali ustunchalar bilan to'qilsa, vaqt ancha tejaladi, chunki bunday to'qishda, har bir qator to'qilgach, buyum sezilarli darajada kattalashadi. Oddiy ustunchalar bilan to'qilgandagidek, bu holda ham har bir qatorga 5–6 tadan ustamali ustuncha, ya'ni bitta halqaga ikkita ustuncha qo'shib boriladi. 10–11 sm diametrli doira tayyor bo'lgach, halqa qo'shish 2–3 taga kamaytiriladi.



---

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA MEHNAT BURCHAGINI TASHKIL ETISH**

Maktabgacha ta'lismuassasasida mehnatning asosiy turlari – maishiy-xo'jalik mehnati, tabiatdagi mehnat, qo'l mehnati bo'lib, uni tashkil etish shakllari – topshiriq, navbatchilik, bolalarning jamoa mehnati hisoblanadi.

Topshirqlardan maktabgacha ta'lismuassasasining barcha guruhlarida keng foydaliladi, ammo kichik guruhlarda ular bolalar mehnatini tashkil qilishning asosiy shakli hisoblanadi. Har bir maktabgacha ta'lismuassasasida mehnat burchagi tashkil etilib, unda yuqorida bayon etilgan vazifalar amalga oshiriladi.

**Maktabgacha ta'lismuassasasida mehnat burchagi.** Mehnat burchagini ahamiyati kattadir. Bunda bolalar ishlatishi mumkin bo'lgan quyidagi asboblar saqlanadi:

- bichish-tikish uchun kerak bo'ladigan igna, ip, tugmacha, gazlama, gardish, lentalar, qaychi, sim;
- bog'dorchilikda ishlatiladigan asboblardan tesha, kurakcha, xaskash, ketmoncha, leyka, chelakcha, jo'yak olish uchun tayoqcha va kurakcha;
- mashg'ulot uchun kerak bo'ladigan yelim, qaychi, bigiz, pichoqcha, arra, egov va sanoat chiqindilari.

Mashg'ulot davomida bolalarga asboblardan qanday foydalanish kerakligi o'rnatib boriladi. Bolalar tomonidan bajarilgan ishlar bilan tanishtiriladi. Buzilgan o'yinchoqlar ta'mirlanadi. Mehnat tarbiyasini amalga oshirish uchun quyidagi ta'limgarbiyaviy talablarga e'tibor qilish lozim:

- bolalar mehnati uchun zarur shart-sharoitni yaratish, ish joyi bilan ta'minlash;
- kundalik rejimdan vaqt ajratish;
- bolalarning imkoniyatlariiga va ularning kuchiga to'g'ri keladigan asbob-anjomlar tanlay bilish;
- asbob-anjomlarni bolalar uchun qulay yerga joylashtirish;
- barcha gigiyena talablariga amal qilish, tozalik, sof havo, binoning to'g'ri yoritilishi.

Mehnat topshiriqlari har bir bolaning yoshiga to‘g‘ri kelishi, bajarish muddatining to‘g‘ri taqsimlanishi, mehnat qilayotganda qomatni to‘g‘ri tutishga e‘tiborni qaratish.

Dasturda ko‘rsatilganidek, bolalarga beriladigan mehnat tarbiyasi bolani o‘rab turgan muhit asosida tashkil etilishi muhim ahamiyatga egadir. Bu o‘rinda milliy kashtachilik, miskarlik o‘ymakorlik va shu kabi xalq hunarmandchiligi va turli kasblar bilan tanishtirish. Ma‘lumki, mehnat tarbiyasi ayrim hollarda mujassam mashg‘ulotlar tarzida yoki kundalik hayot jarayonida amalga oshirilib boriladi. Mujassam mashg‘ulotlar bolalarning mehnat tarbiyasi yuzasidan olgan bilim va malakalariga, hayotiy tajribaliriga asoslangan holda tashkil etiladi va o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlarni rejalashtirish va uni olib borishda ta‘limning eng muhim vazifalaridan bo‘lgan aqliy faoliik, mustaqil fikr yuritish, tashabbuskorlik, egallangan bilim va hosil qilingan malakalardan bolalar o‘z ishlari jarayonida samarali foydalana olishlari lozimligi tarbiyachining doimo diqqat e‘tiborida bo‘lishi lozim. Agar bolalar tarbiyachining ko‘rsatmalarini tushunmasdan hissiyotsiz, mexanik ravishda bajarishga odatlanib qolsalar, u holda bunday ta‘lim-tarbiya bolaning o‘sishiga har tomonlama salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bolalarning o‘ylashlari, eslariga tushirishlari, taqqoslashlari jonli hissiy nutqlari orqali o‘z kuzatishlari haqida hikoya qilib berishlari juda muhimdir.

Tarbiyachilar bolalarning turli topshiriqlarni bajarish, shuningdek, o‘yinlar uchun qo‘lbola o‘yinchoqlar, kichkintoylarga, katta yoshlilarga sovg‘alar tayyorlash jarayonida mehnatga malaka va ko‘nikmalarini mustaqil qo‘llashga intilishlarini rag‘batlantirishlari lozim. Bu maqsadda asbob-uskunalar va materiallar bolalar ixtiyoriga beriladi.

**Qalin, yupqa xitoy qog‘oz.** Qalin qog‘oz (albom, muqova, stolga solinadigan qog‘oz)dan katta hajmdagi shakllarni yasash va yelimlash uchun foydalaniladi. Uning rangi oq, har xil rangda, marmarsimon, yaltiroq bo‘lishi mumkin. Yupqa qog‘ozdan tayyor shakllarni uning ustiga yopishtirishda foydalaniladi. Xitoy qog‘ozidan oq yoki har xil rangdagi tayyor narsalarni bezashda foydalanish tavsiya etiladi. Odatda ishslash uchun bola qynalmay qirqa oladigan qalinlikdagi kichikroq karton bo‘lagi yoki varag‘i beriladi. Qalinroq kartondan tarbiyachi detallarning andozalarini tayyorlaydi, bolalar shu asosda tarhni chizib olib, kerakli shaklni mustaqil kesadilar.

Turmushda uchraydigan xilma-xil materiallar: qutichalar (gugurt, karton, qand, kosmetika kremlari, tish pastalari, vitaminlar

va shu kabilarning qutilari), g‘altaklar, shishaning qopqoqlaridan bolalar o‘yinchoqlar, sovg‘alar tayyorlashadi.

Ishlab chiqarish chiqindilari: porolon, penoplast, mis sim bo‘laklari. Porolondan sabzavot va mevalarning xilma-xil shakllarini yasashda foydalaniladi. Yasalgan narsani bo‘yash uchun, u avval toza suv bilan namlanadi, so‘ngra uni siqib olib, bo‘yoqqa bo‘ktiriladi. Porolondan yasalgan narsalarni bezatish uchun sim bo‘laklari (rangli qoplamlali yoki qoplamasiz), mo‘yna, gazlama qiyqimlari kerak bo‘ladi.

Tabiiy materiallar quydagilar: qoraqarag‘ay va qarag‘ay so‘tasi: o‘rmon yong‘oqlari, cho‘chqa yong‘oq, kashtanlar; qarag‘ay po‘stlog‘i, qushlarning patlari, o‘tlar, poxol, mox, po‘stloq, ko‘knor g‘unchalari, yong‘oq pallalari, chig‘anoqlar va boshqalar. Bularning hammasi qopqog‘iga teshikchalar qilingan yopiq qutilarda saqlanadi. Agar quruq va qorong‘i xonalar bo‘lsa, ularni to‘shalgan eski gazetalar ustida quritish mumkin. Bunday quritish tabiiy materialning tabiiy rangini va pishiqligini saqlash imkonini beradi. Agarda tabiiy material (so‘ta, cho‘chqa yong‘oq, kashtanlar) uzoq saqlansa, u qotib qoladi. Shu sababli ularni kuzda yangilash lozim bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan materiallar mashg‘ulotlarni bolalar bilan birga o‘tkazish uchun ham, yakka holda foydalanish uchun ham yetarli miqdorda bo‘lishi kerak. Barcha materiallar bolalar mashg‘ulotlardan bo‘sh vaqlarida foydalana olishlari uchun guruh xonasida o‘z joyiga ega bo‘lishi, ularning yonida esa ish uchun zarur asboblar turishi lozim. Kazein yelimdan karton va qog‘ozdan narsalar yasashda foydalaniladi. Mashg‘ulotdan oldin kazein yelimi kukuniga iliq suv solib, qaymoq darajasidagi quyuqlikka ega bo‘lgunga qadar yaxshilab aralashtiriladi va shu zahotiyq idishlarga solinadi.

**Gazlama bilan ishlash uchun ashyolar va jihozlar.** Xilma-xil laxtaklar: chit, rangli satin, oq ip, gazlama, shoyi, yung gazlama, pahmoqlardir (bolalar bulardan qo‘g‘irchoqlar uchun kiyimlar tikadilar, yumshoq o‘yinchoqlar yasaydilar va hokazo). Bulardan qo‘g‘irchoqlarga ko‘ylak, peshband, kofta tikiladi, ishtonchalar bichish uchun andozalar olinadi.

**Tikuv mashinalari.** Tikuv mashinalarida bolalar qo‘g‘irchoqlar uchun choyshablar, yostiq jiddlari, qiyiqchalar, ro‘molchalar tikadilar. Ignalar, igna sanchib qo‘yiladigan yostiqchalar, turli rangdagi iplar, shuningdek, turli rangdagi va o‘lchamdagisi tugmachalar, qaychilar maxsus qutilarda saqlanadi. Qo‘l mehnatiga mo‘ljallangan materiallar, asboblar, asbob-uskunalar tokchalarda yoki shkaflarda saqlanadi.

Har xil o'lcham, shakl, tur, rangdagi qog'ozlarning yoniga u bilan ishlashga mo'ljallangan asboblar: qaychi, qattiq tukli mo'yqalam, oddiy qalam, rangli qog'oz parchalari solingan patnis, yelim bilan ishlash uchun plastinka parchalari, shuningdek, qopqog'i buralib yopiladigan shisha idishda kazein yelimi, mo'yqalam va salfetkalar qo'yish uchun tagliklar qo'yiladi. Boshqa tokchada – gugurt qutilari, shuningdek, sim, shishalarning qopqog'i, gazlama bo'laklari bo'ladi. Keyingi tokchada – porolon bo'laklari, 2,5–3 sm uzunlikda qirqilgan mis simlar turadi. Qopqoqli qutichada guash va akvarel bo'yoqlar uchun 3–4 idish, suv uchun banka saqlanadi. Tarbiyachi uchun asbob-uskunalar: pichoq, qirrali bigiz, qo'l parma – alohida saqlanadi. Shkafda gazlama bilan ishlashda kerak bo'ladigan jihozlar: bolalar tikuv mashinalari, andozalar, iplar, tugmalar, paxta, porolon uchun ham joy ajratiladi (ninalar va bigiz tarbiyachida saqlanadi).

### **Qaychidan foydalanish qoidalari.**

1 .Yosh bolalarga iloji boricha uchi to'mtoq qaychini berishni unutmang.

2. Qaychini ish burchagida belgilangan holatda g'ilofda saqlang.
3. Qaychining uchini yuqoriga qilib ushlamang.
4. Qaychini ochiq holda ushlamang.
5. Qaychidan yurib turib foydalanmang.
6. Qaychini o'rtoq'ingizga uzatganingizda faqat yopiq holda, uchidan ushlab uzating.

7. Qaychidan foydalanayotganda kesilish yo'nalishi va qog'oz yoki matolarini ushlab turgan chap qo'l barmoqlarini kuzatib turing.

8. Yaroqsiz, o'tmas, zanglagan qaychidan foydalanmang.

### **Ignan bilan ishslash qoidasi.**

1. Ignani hech qachon og'zingizga solmang.
2. Ignani ishlatib bo'lgach, maxsus yostiqchaga sanchib qo'ying.
3. Kichik bolalarni teshigi katta bo'lgan ignalardan foydalanishga odatlantiring.
4. Ignani ho'l joyga qo'y mang.
5. Ignani quriq holda saqlang.
6. Mashg'ulot jarayonida berilgan ignalarni sanab tarqatib, sanab oling.
7. Yetishmagan ignalarni albatta topping.
8. Karton qog'oz, qalin varaqlardan narsa yasashda avval bigizda teshib olishni unutmang.

9. Ignadan foydalanib bo'lgach, ip taqib qoldirish maqsadga muvofiqdir.

10. Baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun xonada yod, bint, spirt solingan dorixona bo'lishi shart.

**Bigiz bilan ishlash qoidasi.**

1. Bigiz bilan ishlashda ehtiyotkorlik kerak, uni o'rinsiz ishlatmagan ma'qul.

2. Sirg'anchiq, usti silliq, qattiq narsalarni bigiz bilan teshmang.

3. Teshadigan narsangizni qo'lingizda ushlab teshmang.

4. Teshadigan narsangizni maxsus stol yoki taglik ustiga qo'yib teshing.

**Pichoq bilan ishlash qoidasi.**

1. Bolalar bilan ishlashda uchi yumaloq pichoqdan foydalangan ma'qul.

2. Pichoqlarni maxsus joyga qo'ying.

3. Pichoqni kesganda qattiq bosmang.

4. Pichoqni artganda o'ng qo'lga ushlab, chap qo'l bilan yuqori tomonidan artishni unutmang.

5. Ho'l joyda qoldirmang.

6. Buzilgan, ochilishi qiyin bo'lgan pakkidan foydalnmang.

7. Ishlatib bo'lgach artib, quruq joyga qo'yishni unutmang.

---

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA O'TKAZILADIGAN QO'L MEHNATI MASHG'ULOTI NAMUNALARI**

### **«Ignat to'g'nag'ich tikish»**

Dastur maqsadi: bolalarda o'z qo'llari bilan foydali narsalar, uy-ro'zg'or buyumlarini yasash istagini uyg'otish, qiyinchiliklarni yengish, ishni orasta, yaxshilab bajarish, chirolyi ko'rinishiga ega bo'lgan buyumlar tayyorlash ko'nikmasini shakllantirish. Ish faoliyatini rejalashtirish. Harakatlar izchilligini belgilab olish, eng zarur usullar ko'nikmasini shakllantirish.

Mashg'ulotga tayyorgarlik: bolalarni o'z onalari, opalari va buvilarining qo'l ishlari bilan tanishtirish, ularning ishidan zavqlanishga o'rgatish, so'zana, kashta, palaklar haqida suhbat o'tkazish.

Mashg'ulotni jihozlash: karton, rangli qog'oz, yelim, o'chirg'ich, mochalka yoki qalin mato, qizil bo'yoq.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi mashg'ulotni kirish suhbatini bilan boshlaydi. Shu payt guruhga buvijonimiz kirib keladilar. Bolalar bilan salomlashib bo'lqandan so'ng:

— Bolajonlarim, men sizlardan yordam so'rab keldim. Palak tikayotib ignamni yo'qotib qo'ydim. Sizlar menga ignamni yo'qotmaslik uchun ignat to'g'nag'ich yasab berasizlarmi? — deb suraydi.

Tarbiyachi:

— Bolalar, buvijonimizga yordam beramizmi?

Bolalarning javobi.

**Tarbiyachi:** — Buvijon, siz dam olib turing, bolalar sizning iltimosingizni yerda qoldirmay, qulupnay ko'rinishidagi to'g'nag'ich yasab beradilar, ular juda chaqqon va mohir bolalar. Qani bolalar, ishga kirishdikmi? Buning uchun biz qaychini olib, mana bu karton gog'ozdan doira shaklini qirqib olamiz va uning ustiga o'zimizga yoqqan rangli qog'ozdan yelimlaysiz. Bu to'g'nag'ichimizning asosi bo'ladi. Endi mana bu qalin porolon bo'lagidan qulupnay qirqish mumkin va asosga qulupnay shaklini yelimlaysiz. Bargini yashil qog'ozdan qirqib olamiz va yelimlaysiz. Qulupnay sirtidagi

oq nuqtachalarni mo'yqalamning uchi bilan qo'yamiz. Kartonning orqa tomoniga ilgich yasab uni yelimlab qo'yamiz.

Bolalar ishga kirishganlardan so'ng tarbiyachi bolalarning ba'zilariga yordam berib boradi, ularning mustaqil ishlarini kuzatib turadi.

Mashg'ulotning yakuni: bolalar ishlarini tugatib, buvijonlarini chaqirishadi va o'zları yasagan qulupnayli igna to'gnag'ichni topshiradilar. Buvijon va tarbiyachi ishlarni yaxshi bajargan bolalarni rag'batlantirib, o'z minnatdorchiliklarini bildiradilar. Ularga mehnatning tagi rohatligi tushuntiriladi.

Maktabgacha tarbiya yo'riqnomasida asosiy maqsad bola shaxsining rivojlanishiga qaratilgan ekan, undagi tarbiya yo'naliishi shubhasiz o'ziga xos shaklni talab etadi. Shu vaqtgacha hukm surib kelgan asosiy usul, bu tarbiyachining ko'rsatmasi bo'yicha olib borilgan bo'lsa, endilikda esa bolaning faoliyatiga mos ravishda yondashilib uning ilk qiziqishlarini tarbiyalashga qaratiladi, ya'ni bolaning hayotiy tajribasiga ko'ra moslashish talab etiladi. Yakka mehnat topshiriqlarini bajarishni o'rganishda bolalar uncha katta bo'limgan guruuhchalarga biriktiriladi. Natijada jamoa asosida kichik guruuhdan boshlab bolalarda mehnat qilish ko'nikmasi va malakalari shakllanib boradi. Ertalabki nonushta va tushlik vaqtida bolalar enagaga yordam berishda ishtirok etadilar. O'rta guruuhdan boshlab mehnat topshiriqlari murakkablashib, qo'l mehnati ham dasturga kiritilgan.

Mehnat turlaridan qo'l mehnatini tashkil etish birmuncha murakkabroq bo'lib, unga oldindan tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Quyida mehnatning shu turi bo'yicha tashkil etiladigan ta'lim mashg'ulotlaridan namuna keltiramiz.

### **Mashg'ulotning mavzusi: «Ko'zoynak g'ilofini tikish»**

Dastur maqsadi: bolalarga g'ilofning ahamiyatini, qo'llanilish jihatlarini tushuntirish, igna va ipdan to'g'ri foydalanishga, ipning uchini tugishga, tikiladigan buyumga qarab mato va ip rangini tanlashga o'rgatish, o'z mehnatidan zavqlanish va uni qadrlash malakalarini shakllantirish.

Mashg'ulotga tayyorgarlik: bolalarga ko'zoynak g'ilofini ko'r-satish, u ikki qismidan tayyorlanishini aytish, g'ilofga ko'zoynakni solib qo'ysa, chang bo'lishdan va sinib qolishdan saqlanishini bolalarga uqtirish; uni tikish unchalik murakkab emasligini aytib o'tish.

Mashg'ulotni jihozlash: qalin mato, mato rangiga mos ip va igna.  
Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: – Bolalar, bugun biz sizlar bilan ko'zoynak g'ilofini tikamiz. Buning uchun mato rangiga mos ip tanlashimiz kerak bo'ladi, bo'lmasa tayyorlagan g'ilofimiz xunuk chiqadi. Bolalar mato qanday rangda ekan? Qora. Demak, ipning kanday rangidan olamiz? Ha, to'g'ri. Endi bolalar ikkita mato olamiz va ularni ustma-ust qo'yib, chetlarini tikamiz. Ipning uchini tugishni unutmang, xo'pmi? Ignani o'ng qo'l bilan ushlang, chap qo'l bilan esa matoning chetlarini mahkam bosib turing. Tikishda qaviq oralari bir xilda bo'lsin, aks holda chokingiz tekis bo'lmaydi va g'ilof chiroyli chiqmaydi. Chiroyli chiqmasa, tikkan g'ilofimiz hech kimga yoqmaydi. Ignani ehtiyyotkorlik bilan ishlating. Qo'lingizga sanchilib ketmasin. Eng chiroyli tikilgan g'ilofni ota-onalarga, tarbiyachi opalarimizga va boshqa guruuh bolalariga ko'rsatamiz.

### **Mashg'ulotning mavzusi: «Onalarimiz uchun sovg'a»**

Dastur maqsadi: bolalarda bayram kayfiyatini uyg'otish, bayram arafasida o'z qo'llari bilan sovg'a yasash, ularni o'z onalariga taqdim etishni iaklif qilish, kerakli materiallar va qaychidan to'g'ri foydalanish yuzasidan texnik malakalariga o'rgatish.

Mashg'ulotga tayyorgarlik: bolalarga «Onamlarning bayrami» she'rini yod oldirish, chinnigul haqida suhbat o'tkazish.

Mashg'ulotni jihozlash: rangli qog'oz, karton, sim, yelim, o'chirg'ich, po'kak bo'lagi, rangli mato, ip, qaychi, g'ijim qog'oz va hokazo. Mashg'ulotning borishi: Mashg'ulot boshida tarbiyachi quyidagi she'rni o'qib beradi:

*Quyosh kulib boqqan kun,  
Bahor tanga – yoqqan kun,  
Sakkizinchı mart bugun,  
Onalarning bayrami!*

Tarbiyachi: – Bolalar, she'rimiz nima haqida ekan?

Tarbiyachi bahor fasli, 8 mart haqida kirish suhbatini o'tkazayotganda Bilmasvoy kirib keladi.

Tarbiyachi: – Iye, bolalar, qaranglar, guruhimizga Bilmasvoy mehmon bo'lib kelibdi! /Bilmasvoy hamma bilan salomlashadi/. Bilmasvoy nega xafa ko'rinasan. Kim xafa qildi seni?

Bilmasvoy: — Meni hech kim xafa qilgani yo'q, yaqinda 8 mart, onalarimizning bayrami ekan. Hamma o'rtoqlarim onalariga, opalariga sovg'a tayyorlashyapti, men ham sovg'a tayyorlab onamga taqdim etishni xohlayman. Lekin hech narsa yasashni bilmayman. Men sizlardan yordam so'rab keldim.

Tarbiyachi: — Bilmasvoy, bizning guruhgaga juda to'g'ri kelibsang. Biz ham sovg'a yasamoqchi bo'lib turgandik. Yaxshisi, sen mana bu joyga o'tirgin-da /joy ko'rsatiladi/, barchangiz mening gapimga diqqat bilan qulq soling va kuzatib turing, men sizlarga chinnigulni qanday yasash kerakligini ko'rsataman. Buning uchun avval, mana bu chiqim qog'ozlardan, bir necha doirachalarni qirqib olamiz va shu doirachalarning chetlarini uchburchak qilib qirqamiz. Bu gulning kunguralari bo'ladi. Endi sim olib doirachalar o'rtasidan o'tkazamiz. Uchini qayrib qo'yamiz. Yashil rangdagi g'ijim qog'ozdan olib tasma qirqamiz, uni gul asosidan mana bunday qilib simga aylantirib o'rab uchini yelimlaymiz, qolgan qog'oz tasmasi bilan simni o'rab chiqamiz. Oxirini esa yelimlab qo'yamiz. Endi yashil rangdagi qog'ozdan olib, uni qat-qat qilib o'rtasidan teng buklab barg tasvirini qirqib olamiz va gulning bandiga yopishtiramiz. Mana gulimiz ham tayyor bo'ldi. Qaranglar, bolalar, gul yoqdimi? Bilmasvoy senga-chi?

Tarbiyachi bolalarning ishlarini kuzatadi va yordam beradi.

Mashg'ulotni yakunlash: tarbiyachi bolalar ishlarini birgalikda muhokama qiladi, so'ng Bilmasvoyning bajargan ishini alohida baholaydi.

— Qaranglar, bolalar, Bilmasvoy ham sizlarnikiga o'xshatib juda chiroyli gul yasadi. Bilmasvoy onasini juda yaxshi ko'rар ekan. Bolalar, hammamiz onajonlarimizni yaxshi ko'ramiz-a? Bu gullarimizni bayram kuni ularga sovg'a qilamiz.

### **Mashg'ulotning mavzusi: «Tovuq» o'yinchog'ini yasash**

Dastur maqsadi: bolalarni narsa yasayotganda ehtiyojkorlikka, bir yo'la bir necha ish qurollaridan; oddiy qalamdan, qaychidan, yelimidan va mo'yqalamdan to'g'ri foydalanishga, o'z mehnatidan zavq olishga o'rgatish bolalarning tovuq va tuxum haqida tassavvurlarini kengaytirish, uy hayvonlari va parrandalariga nisbatan muhabbatlarini mustahkamlash.

Mashg‘ulotga tayyorgarlik: bolalar bilan birqalikda tovuqlarni diqqat bilan kuzatish, tuxumni ko‘zdan kechirish, she’r, topishmoqlar yod oldirish, tovuqlarga don berish.

Mashg‘ulotni jihozlash: ichi bo‘shatilgan tuxum po‘chog‘i, oq qog‘oz, oddiy qalam, yelim, boyoq, mo‘yqalam.

Mashg‘ulotning borishi:

Tarbiyachi:

— Bolalar, bugun ertalab nonushtada nima yedik? Tuxum juda mazali. Sayrda sizlar bilan nimalarni kuzatgan edik? Qani, kim esladi? Ha, tovuqlarni. Ularning nimalari bor edi? (Bolalarning javobi: dum, ko‘zi, qanotlari.) Bilasizlarmi bolalar, tuxumni yeb bo‘lgandan keyin uning po‘stlog‘ini tashlab yubormasdan, chiroyli o‘yinchoqlar yasash mumkin. Hozir biz sizlar bilan tuxum po‘chog‘idan o‘yinchoq tovuqnini yasaymiz. Buning uchun ehtiyyotkorlik bilan ichi bo‘shatilgan tuxumni olamiz. Mana bu oq qog‘ozga tovuqning yon qanotlarini, dumini mana bu oddiy qalam yordamida chizib olamiz va qirqamiz, so‘ngra uni yelimlab, tuxum po‘chog‘iga yopishtiramiz. Mana, tovuqning qanotlari hosil bo‘ladi. Tumshug‘ini ham yopishtiramiz. So‘ngra mo‘yqalamni bo‘yoqqa tegizib, dum, qanot uchlarini va ko‘zlarini chizamiz. Qaranglar, bolalar, tovuq o‘yinchog‘iga o‘xshadimi? Sizlar ham ishingizni yakunlanglar. Hozir hammamiz birqalikda jonli burchakka borib tovuqlarga suv va don berib kelamiz.

Yuqorida keltirilgan mashg‘ulot namunalaridan xulosa shuki, bolaning biror-bir buyum yasashi yoki ayrim topshiriqni bajarishda, avvalo, ularning qiziqishi nazardan chetda qolmasligi hamda uning mehnat ko‘nikmasi va malakalarini tarbiyalash asosiy maqsad etib olinishi zarur. Bolalarning biror muddat ichida masalan, oy yoki yarim yil davomidagi olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan mujassam mashg‘ulotlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Quyida taxminiy mujassam mashg‘ulotlar rejasini havola etamiz.

### **Mashg‘ulotning mavzusi: «Non aziz»**

Dastur maqsadi: bolalarda dunyodagi eng aziz narsa nonga, uni qadrlash va kattalar mehnatiga qiziqish uyg‘otish. Non tayyor bo‘lgunga qadar g‘allakor, novvoylarning mehnatlarini qadrlash va hurmat qilishga o‘rgatish.

Mashg‘ulotni jihozlash: turli xil ko‘rinishdagi nonlar, undan tayyorlangan pishiriqlar, xamir, zuvalachalar, chakich.

Mashg'ulotning borishi: bolalar fikrini jamlab, ularga turli xil non turlarini ko'rsatish va uni bunyodga kelishi, g'allakor, zavod ishchisi, novvoyolar mehnati haqida suhbatlashish. Qadim-qadimdan bizning davrgacha etib kelgan rivoyatlarda ham nonning qadr-qimmati haqida hikoya qilinganligi haqida so'zlab berish.

«Non isi» hikoyasini sahnalashtirish. Zal milliy ko'rinishda: Husayn Boyqaro taxtda xayol surib o'tiribdi.

Shoh: — Menga dunyodagi eng mazali narsani olib keling.

Vazirlar: — Marhamat shohim (gul keltiradilar).

Shoh: — Yo'q, bo'lmas.

Vazirlar chiqib ketadilar.

Vazirlar: — Marhamat, shohim (qalampirmunchoq olib keladilar).

Shoh: — Yo'q, sizlarga uch kun muhlat; shu uch kun ichida dunyodagi eng yaxshi narsani keltiringlar.

Vazirlar: — Xo'p bo'ladi, shohim.

1-Vazir: — Endi nima qilamiz, shohimiz aytgan narsani qayerdan olamiz?

2-Vazir: — Buni faqat ustoz Navoiydan so'rash kerak (ular Navoiyning oldiga boradilar).

Vazirlar: — Assalomu alaykum!

Navoiy: — Vaalaykum assalom!

Vazirlar: — Shohimiz dunyodagi eng mazali narsani keltiring, dedilar. Dunyodagi eng mazali narsa nimadir?

Navoiy: — sizlar dehqon boboning oldiga boringlar. (Vazirlar dehqon boboning oldiga boradilar).

Navoiy, vazirlar: — Assalomu alaykum!

Dehqon: — Vaalaykum assalom!

Navoiy: — Dehqon bobo, dunyoda eng mazali narsa nimadir?

Dehqon bobo: — (Savatda non beradi). Mana shu nonlarni olib boringlar.

Vazir: — Shohimiz, huzuringizga Navoiy dehqon bobo bilan keldilar, ruxsat bering.

Shoh: — Borakallo! Ofarin, rahmat do'stim, mir Alisher!

Navoiy: — Rahmatni menga emas, dehqon boboga aytинг.

Shoh: — Sarpo keltiring.

Dehqon boboga sarpo keltiradilar.

Dehqon bobo: — Rahmat, shohim!

Vazirlar: — Muborak bo'lsin!

Mana, haqiqatdan ham nondan aziz narsa yo'qdir. Kelinglar, endi biz ham o'z qo'limiz bilan non yasaymiz.

Bolalar bilan birgalikda xamir qorish, zuvalachalar olib non yasash, o'zлari xohishlari bo'yicha chiroyli bezaklar bilan bezashni taklif etish.

Tarbiyachi: — Marhamat bolalar, o'zingiz xohlagan ish bilan shug'ullaninglar. Sizlar ham shulardek usta bo'lasizlar.

Bolalarning hammalari o'z ish joylariga o'tiradilar. Bir tomonda beshik yasovchi va unga bo'yoq beruvchi ustalar, ikkinchi tomonda esa palak, so'zana, do'ppi tikuvchi chevarlar.

Beshik yasovchi usta: — Mehnat unumli va samarali bo'lishi uchun kuy va qo'shiq hamisha hamrohdir. Navbat qo'shiqqa, qizlar qo'shiq aytib o'ynaydilar.

Usta: — Mehnat kishiga zavq bag'ishlaydi, mehnat haqidagi maqollardan aystsangiz.

1-bola: — Mehnatdan kelsa boylik,

Turmush bo'lar chirolylik.

2-bola: — Odamni mehnat bezaydi.

3-bola: — Mehnat- mehnatning tagi rohat.

4-bola: — Mehnat qilib topganing,

Qandu asal totganing.

5-bola: — Mehnatsiz ish bitmas.

6-bola: — Odamning qo'li gul.

7-bola: — Rohatning onasi mehnat.

O'g'il bolalar «Dilxiroy» o'yinini ijro etadilar.

Mashg'ulot oxirida har bir bola o'z qilgan ishini namoyish qiladi.

Tarbiyachi: — Bolalar, mehnatdan keyin dam olish qanchalar yaxshi!

---

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA «BOLALAR IJODI» TO'GARAGINI TASHKIL ETISH

«Bolalar ijodi» to'garagini tashkil etish va unga iqtidorli bolalarni jalb etish mumkin. Bunda bolalar to'garak mashg'ulotlari jarayonida turli badiiy materiallar, tabiiy va tashlandiq materiallar, rangli qog'oz, karton bilan ishslash usullarini o'rGANADILAR. Bu ularning tajribalari, bilim va ko'nikmalarini ham mustahkamlanib boradi. To'garakda qatnashuvchi bolalarni 2 guruhga: o'g'il va qizlar guruhiga bo'lib olish mumkin. Qiz bolalar: dastro'mol, salfetka, qo'g'irchoqlar uchun ko'yaklar tikadilar. O'g'il bolalar esa, gugurt qutisidan stol, stul, karavot, divan kabilarni yasaydilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tabiiy materiallardan, stol yoki tut daraxti novdalaridan savatcha to'qish, archa, dub daraxtining mevalaridan, jo'xori so'talaridan o'yinchoqlar yasashga o'rgatiladi. Jo'xori so'tasining ustidagi po'stlog'i, barglaridan eshik ostonasiga yoziladigan gilamcha to'qish, archa daraxtining mevasidan esa toshbaqa, yong'oq pallasidan kema, dubdan, qo'shimcha manzarali daraxtlarning mevasidan odamchalar, tipratikan yasaladi, ular duradgorlik yelimi yordamida qismma-qism yopishtiriladi. Shuningdek, zarqog'ozdan har xil munchoqlar, devorga ilib qo'yiladigan sovg'alar tayyorlash ham mumkin. Uni tayyorlash uslubi quyidagicha: tanlangan tasvir zarqog'ozga chizilib, tasvirdan tashqari joylari ruchka yordamida teshiladi. Bu usul miskarlikdagi chekanka usulini eslatadi. Tayyor bo'lgandan so'ng tasvirli zarqog'oz kartonga qoplanadi va chetlari kartonning orqa tomoniga buklab qo'yiladi, orqasiga ilgich qilib, osib qo'yish mumkin. Bu buyumdan bayramlarda, tug'ilgan kunlarda sovg'a tariqasida foydalanish qulaydir. Bolalar o'zлari yasagan o'yinchoqlarni birgalikda ko'rib, chiroyli qilib tayyorlanganlarini ajratib oladilar va bu ishni xursandchilik bilan bajaradilar.

**Baliq tangachalari va suyaklaridan buyum yasash.** Baliq suyaklaridan ham tabiiy xomashyo sifatida turli xil applikatsiya

ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkin. Baliq suyaklaridan bajariladigan applikatsiya ishlari hammani o'ziga rom etmasdan qolmaydi. Bunday applikatsiya ishlarini bajarishdan oldin baliq suyaklari quyidagicha tayyorlanib olinadi. Baliqlarning tangalaridagi shilimshiqni ketkazish uchun avval issiq, so'ngra sovuq suvda yaxshilab yuvish, gazeta yoki taxta ustiga quritish uchun yoyib qo'yish kerak. Baliqning tangasi quritilganda buralib ketadi, shuning uchun ustiga faner yoki qalinqoq karton qo'yib, narsa bostirib qo'yish lozim. Quritilgan baliq suyaklaridan tabiat manzaralari, qushlar, naqsh kompozitsiyalari, gullarni tasvirlash mumkin. Baliq suyaklari bilan ishlaganda faqat ijodkorlik, yaratuvchilik, qobiliyat talab qilinadi. Bunda hech qanday asbob kerakmas. «PVA» yelimidan foydalaniladi, xolos. Suyaklarni ehtiyyotkorlik bilan yopishtirish lozim. Tayyor applikatsiya ishlarni akvarel bo'yog'i yoki guash yordamida bo'yash mumkin. So'ngra RF283 rangsiz lak orqali lakanib, qotiriladi.

**Qushlar patidan buyum yasash.** Qushlarda katta qanot pati, tanalarini qoplaydigan pat, par bo'ladi. Oq patlarni turli ranglarga bo'yash qiyin emas. Rangli patlardan tabiiy ko'rinishda foydalaniladi. Patlarni bo'yashdan oldin yog' va boshqa narsalardan tozalanadi. Buning uchun uni 10 foizli sovun eritmasiga solib qo'yiladi. Agarda patlarni bog'lam qilib eritmaga solinsa va eritma qaynash darajasigacha isitsila, yanada yaxshiroq bo'ladi. Patlar ortiqcha qizib ketmasligi uchun uni eritmadan bir necha marta olib sovitiladi va yana eritmaga solinadi. Patlarni eritmadan olib, toza suvda chayiladi va ipga osib quritiladi. Qurigan patlar anilin bo'yog'ining qaynoq eritmasiga solinadi. Ipakni bo'yaydigan bo'yoqlardan ham foydalanish mumkin. Patni mo'yqalam yordamida rangli lak bilan bo'yasa ham bo'ladi.

# MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA «BOLALAR IJODI» TO'GARAGINING TAXMINIY REJASI

<b>No</b>	<b>Taxminiy va-zifalar mavzusi</b>	<b>Dastur mazmuni</b>	<b>Eslatma</b>
<b>Tabiiy materialdan buyumlar tayyorlash. 5 yoshli bolalar uchun</b>			
1.	«Kuzgi barglar»	Guldasta uchun shakli va bargigaqarab barglarni terish.	O'g'il bolalarni jalb qilish.
2.	«Guldasta yasash»	Gullardan, barglardan, butalardan guldastayashdaishtirok etish.	
3.	«O'rmon hayvonlari»	Bujurlardan, shoxlardan, tayoqchalardan hajmlı skulpturaning turli ko'rinishlarini yaratishni o'rgatish. Bujurlardan maydaskulpturayash.	
4.	«Onamga sovg'a»	Olcha shoxining gullahini kuzatish. Mazmun bo'yichachizish.	
5.	«Birinchi guldasta»	Barglarni shakli bo'yichat erish va ulardan kompozitsiyalar tuzish.	Mustaqil ish.
6.	«Barglardan naqshlar»	Toshchalarni, chig'anoqlarni, tayoqchalarni, bujurlarni terib soyali naqshlar hosil qilish.	
<b>6 yoshli bolalar uchun.</b>			
1.	«Kundagi naqshlar», «Guldasta yasash»	Gullardan, kuzgi barglardan interyer uchun guldasta yasash.	O'g'il bolalarni jalb etish.
2.	«Yangi yil guldastasi»	Interyer uchun qishki guldastani yasatishdaishtirok etish.	
3.	«Birinchi guldasta»	Gullagan shoxlardan, bahorgi gullardan guldastatuzish.	
4.	«O'rmon odam-chalarining ustaxonasi»	Tabiiy materiallardan hajmlı skulpturaning turli ko'rinishlarini, qushlar shakli, hayvonlar shakli va ajoyib odamchalar yaratish.	
5.	«Gulli natyurmort»	Quritilgan gullardan, barglardan, o'tlardan papkayaratish.	Tarbiyachi, ya'ni kattalar rahbarligida
<b>Mato bilan ishlash. 5 yoshli bolalar uchun.</b>			
1.	«Rang-barang kiyqimlar»	Turli matolardan bo'laklar, qiyqimlardan kolleksiyaqilishda qatnashish.	Jamoa ishi, Tarbiyachi rahbarligi ostida

2.	«Lolaxonning ko'y lagi»	Turli shakldagi kartochkalarga matolarni ishlash. Namunaga qarab.	
3.	«Ayiqcha»	Intyerer uchun dekorativ yirik o'ynichoqni yasashda ishtirok etish.	

### **6 yoshli bolalar uchun.**

1.	«Rang-barang qiyqimlar»	Rasmgaranglar majmuasigamos qiyqimlar terishdaishtirok etish.	Jamoa ishi
2.	«Navbatchilar uchun peshband»	Qaychi bilan ishlashni bilish, buyumni, ranglar majmuasini hosil qilish.	
3.	«Gilamcha ertak»	Syujet o'ylab topishga, original kompozitsiyani yaratishga, matoning rangi vaxususiyatini hisobgaolishgao'rgatish	
4.	«Dekorativ sumkacha»	Qalam vaflomasterlar uchun sumkacha idishni applikatsiya yo'li bilan yasash, qiyqimlarning rangini hisobga olgan holdarasm yaratishda qatnashish.	
5.	«Qiyqimlarni tanla»	Namunali bichim varangni moslashtirish, qo'g'irchoq uchun kiyim tayyorlashdaishtirok etish.	Jamoa ishi
6.	«Kichkintoylar o'ynichoqlari uchun devoriy cho'ntak»	Foydali mehnatdaishtirok etish. Buyumlar uchun matolarni tanlay olishgao'rgatish.	Kattalar rahbarligi ostida
7.	«Rangli iplarni ajratish»	Iplardan, tizimchalardan buyumlar tayyorlash.	

### **5 yoshli bolalar uchun.**

1.	«Rangli i plar bog'lami»	Rangli i plardan kolleksiyatayyorlashda ishtirok etish.	
2.	«Rangli chiziqlar»	Kolleksiyaishlari ustidagi ishni davom ettirish.	
3.	«Onamga sovg 'a»	To'qish uchun dekorativ tizimchalar vakesmalar (20 sm) tayyorlash.	
4.	«Salfetka»	Turli kenglikdagi tizimchalardan salfetka to'qish. Salfetka to'qish rangini tanlash, naqsh tuzish, tizimchalarini oralatish.	
5.	«O'riltgan belbog'cha»	O'rishni (sochni) o'zlashtirish. Rangli tizimchalardan, iplardan, matodan o'rish (soch).	

### 6 yoshli bolalar uchun

1.	«Rangli iplar bog'lami»	To'qimachilik uchun iplar terish, topish va undaishtiroketish.	Kattalar bilan ishlash.
2.	«Rangli chiziqlar»	Turli rang va kenglikdagi tizimchalar topishda ishtiroketish. Salfetkava o'riltgan belbob'cha uchun iplardan chiziqlarni hozirlash.	Kattalar nazorati ostidaish olib borish.
3.	«Dumaloq gilamcha qo'g'irchoq uchun»	Soch o'ramini o'rish, to'qish vadoira bo'yichatikib qo'yish.	Jamoa ishi
4.	«To'qilgan salfetka»	Stanokdabuyumlarni to'qishni bilish.	
5.	«To'qilgan gilamcha»	Rangni tanlash vachiziqli tizimchani oralatish. To'qish usullarini o'zlashtirish.	
6.	«To'qilgan naqshlar»	Iplar bilan ishlashni o'rgatish. Iplarni rangi, sifati bo'yicha oralatib to'qishda chiziqni hisobgaolish.	

### Yog'och, daraxt va boshqa materiallardan foydalangan holda buyumlar tayyorlash. 5 yoshli bolalar uchun

1.	«Tuzatish ustaxonasi»	Yog'ochli o'yinchoqlarni maydatuzatishda ishtiroketish. Asboblar bilan, yog'ochning turlari bilan tanishish	Kattalar bilan ishlash.
2.	«Mohir qo'llar»	Materialni taqsimlashda ishtiroketish. (Faner yog'ochlar)	
3.	«Ishga tayyorlanamiz»	Qo'g'irchoq mebeli uchun yog'ochlar tayyorlash.	

### 6 yoshli bolalar uchun

1.	«Ustaxonamizni ochamiz»	Ish uchun asboblarni, materiallarni tayyorlash.	Kattalar ishtirokida ishlash.
2.	«Naqsh ishslash uchun doskalar»	Naqshlarni doskadaishlashda ishtiroketish.	
3.	«O'zbek suveniri»	Yog'och taxtalardan aqsh ishslashda ishtiroketish. Tabiy materiallardan mato. Mebel uchun tayyorgarlik ko'rish, narsalarni tayyorlash.	
4.	«Qayinli stillar»	Qo'g'irchoq burchagiga «Uch ayiq» ertagi asosidamaterial tayyorlash.	
5.	«Oq qayin shoxlaridan mebel»	«Uch ayiq» ertagi bo'yichamebel tayyorlash va naqshlar bilan bezash.	
6.	«Sovg'alar, yodgorliklar»	Turli materiallardan buyum yasash, tayyorlash (bolalar tanlashi bo'yicha).	

---

---

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Hasanboyeva O.U.* va boshq. Maktabgacha ta'lif pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
2. *Hasanboyeva O.U.* va boshq. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. T.: «Fan va texnologiya». 2010.
3. *Hasanboyeva O.U* va boshq. Oila pedagogikasi.//Darslik T.:«Aloqachi», 2007.
4. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. V.I.Loginova, P.G.Samorukovalar tahriri ostida. T.: O'qituvchi. 1991.
5. Uchinchi ming yillikning bolasi. T.: Ma'rifat-madadkor. 2002.
6. *Mavlonova R.* «Mehnat tarbiyasi». T.: «O'qituvchi». 1999.
7. Bolalar bog'chasida estetik tarbiya ( N.A.Vetlugina tahriri ostida). T.: O'qituvchi, 1981.
8. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. 2 qismli. 1- qism. T.: O'qituvchi. 1991.
9. *Комарова. Т.С.* Методика обучения изобразительной деятельности и конструированию. М.: Просвещение. 1991.
10. Теория и методика изобразительной деятельности в детском саду. М.: Просвещение. 1997.
11. *Сакулина Н.П.* Рисунок, аппликация, работа с глиной в детском саду. М.: Просвещение. 1993.
12. *Куцакова Л.В.* Конструирование и ручной труд в детском саду. М.: «Просвещение».1990.
13. *Hasanov R., Egamov X.* «Tasviriy san'at darslari». T.: «O'qituvchi». 1995.
14. *Перевертенев Г.И.* «Самоделки из текстильных материалов». М.: «Просвещение». 1990.
15. *Давидчук И.* «Что можно сделать из природного материала». М.: «Просвещение».1990.
16. *Лиштван З.В.* «Конструирование». М.: «Просвещение».1981.
17. *Караманенко Т.Н., Караманенко Ю.Г.* Кукольный театр дошкольникам. М.: «Просвещение» 1982 г.
18. *Максимова М.В.* Азбука вязания. Т.: «Меҳнат». 1994.
19. *Роговин А.* «Хочу сделать сам». М.: «Педагогика». 1984.
20. *Гусакова М.А.* Аппликация. М.: «Просвещение». 1977.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
Ustaxonada amaliy mashg'ulot fanining maqsad va vazifalari.....	5
Qog'oz va kartonni qayta ishlash texnikasi.....	6
Qog'oz va kartonning asosiy xususiyatlari.....	13
Qog'oz va kartonga ishlov berish usullari.....	14
Qog'oz va karton bilan ishlash.....	16
Qog'oz turlari.....	17
Qog'ozni bo'yash.....	30
Qog'oz va boshqa materiallardan esdalik sovg'alarini tayyorlash.....	40
Applikatsiya haqida umumiy tushuncha. Applikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarish.....	45
Gazlama va qog'ozdan gullar yasash texnologiyasi.....	54
Qog'ozdan buklash yo'li bilan o'yinchoq yasash («Origami usuli»).....	59
Papye-mashye usuli.....	62
Papye-mashye usulida o'yinchoqlar yasash.....	64
Ijodiy o'yinlar uchun qo'llanma yasash.....	69
Harakatli o'yinchoq tayyorlash.....	72
Maktabgacha ta'lif muassasasida qo'g'irchoq teatri va jihozlarini yasash.....	78
Maktabgacha ta'lif muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash. O'simlik barglari va urug'lardan applikatsiya.....	105
Somondan applikatsiya.....	113
Tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash.....	116
Kashta tikish. Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi.....	136
Kashtachilikda bezak buyumlarining turlari.....	137
Kashta tikish texnologiyasi.....	139
Qo'lda tikiladigan choklarning turlari.....	141
Zardo'zlik san'ati va uning tarixi.....	146
Yog'och bilan ishlash, yog'ochsozlik.....	151
Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash.....	154
Tolali materiallar va gazlamalar bilan ishlash.....	161
To'qish. Spitsa va ilgak bilan to'qish.....	168
To'qish texnologiyasi.....	169
Maktabgacha ta'lif muassasasida mehnat burchagini tashkil etish.....	177
Maktabgacha ta'lif muassasasida o'tkaziladigan qo'l mehnati mashg'uloti namunalari.....	182
Maktabgacha ta'lif muassasasida «bolalar ijodi» to'garagini tashkil etish.....	189
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	194

**Miyassar Shakirovna NURMATOVA,  
Shaxnoza Toxtasinovna HASANOVA,  
Dano Ergashevna AZIMOVA**

## **USTAXONADA AMALIY MASHG‘ULOT**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*

**Ikkinchি nashir**

*Muharrir To‘lqin Alimov*

*Badiiy muharrir Alyona Tulkunova*

*Texnik muharrir Yelena Tolochko*

*Musahhih Ozoda Ahmedova*

*Kompyuterda sahifalovchi Gulchehra Azizova*

Litsenziya raqami № 163. Bosishga ruxsat etildi 22.09.2011. Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>. Tayms TAD garniturası. Shartli b.t. 12,25. Nashr b.t. 12,09. Shartnoma № 84–2011. 595 nusxada. Buyurtma № 721.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho‘pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30- uy.

«Shoakbar» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. 100031, Toshkent, To‘g‘on Rejametov ko‘chasi, 1 a.